

F.A. ALIMOVA

TRAKTOR VA QISHLOQ
XO'JALIK MASHINALARI KONSTRUKSIYASI



TOSHKENT

**0'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

F.A. ALIMOVA

**TRAKTOR YA QISHLOQ
XO⁴ JALIK MASHINALARI
KON STRUKSIY ASI**

*0'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**LABORATORIYAISHLARI VA AMALIY
MASHG'ULOTLAR**

UO'K: 631.3.02(075.8)

KBK 40.721

A 50

A 50

F.A. Alimova. Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalari konstruksiysi.

—T.: «Fan va texnologiya», 2019,212 bet.

ISBN 978-9943-5676-4-1

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat texnika universitetining bakalavriat talabalarli: "5310600 - Yer usti transport tizimlari va ulaming ekspluatatsiyasi" yo'naliши учун моijallangan.

"Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalari konstruksiysi" fani bo'yicha laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlami o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, qishloq xo'jaligida keng ishlatiladigan qishloq xo'jalik mashinalari asosiy texnologik va konstruktiv parametrlarini aniqlash, tajriba natijalarini EHMda mustaqil ishlashga bag'ishlangan.

Unda Oly ta'lif muassasalarida o'qitiladigan «Traktor va qishloq xo'jalik mashinalari konstruksiysi» fani bo'yicha laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarini bajarish tartibi, mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar, qishloq xo'jaligi mashinalari parametrlarini aniqlash va rostlash, bajarishga oid tavsiyalar, talabalami testlash uchun nazariy savollar, masalalar izohlangan.

O'quv qo'llanma «5310600 - Yer usti transport tizimlari va ulaming ekspluatatsiyasi», «5610600 - Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi (qishloq xo'jalik texnikasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha)» bakalavriat yo'naliishlari hamda magistrantlar uchun mo'ljallangan.

В учебном пособии приведены примеры выполнения лабораторных и практических занятий по предмету «Конструкция тракторов и сельскохозяйственных машин», проводимых в высших сельхозмашиностроительных учебных заведениях. Учебное пособие включает сведения по теории, расчету и регулировкам сельскохозяйственных машин а также образцы вопросов и задач для тестирования студентов.

Данное пособие предназначено для студентов, обучающихся в бакалавриате и магистратуре по направлениям «5310600 - Наземно-транспортные системы и их эксплуатация»; «5610600-Технология и техника сервиса (обслуживание сельскохозяйственной техники)».

The manual provides examples of delivery of the laboratory works and practical exercises by the subject «Construction of tractors and agricultural machines», carried out in higher education institutions specialized in agricultural machinery engineering. The manual includes theoretical information, calculation and adjustment of agricultural machines, as well as sample questions and tasks for student examination.

The manual is intended for students enrolled in undergraduate and graduate educational courses on areas: «5310600 Ground-based transport systems and their exploitation»; «5610600 Technology and service technic (by agricultural machines service)».

UO'K: 631.3.02(075.8)

KBK 40.721

Tagrizchilar:

A.A. Do'squlov - t.f.n., dotsent;
SH.T. Ravutov -t.f.n., dotsent.

ISBN 978-9943-5676-4-1

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.

K IRISH

Qishloq xo'jaligini rivojlanishi fan va texnikaning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Respublikamiz dehqonchilikida paxtachilik bilan bir qatorda g'allachilik, sabzavotchilik, polizchilik bog'-dorchilik mahsulotlari yetishtiriladi. "Davlat xalqni mo'l-ko'i, arzon va sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash uchun ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ekinlami parvarishlashga oid bo'lgan ishlarni qisqa agrotexnik muddatlarda sifatli qilib o'tkazish va fan-texnikaning eng so'nggi erishgan yutuqlari asosida yaratilgan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalaridan unumli foydalanish talab qilinadi."¹

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish dolzarbligini Respublikamiz Prezidenti quyidagicha ifodalagan: «Biz modernizatsiya deganda, ko'pincha sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishni tushunishni o'r ganib qolganmiz. Holbuki, sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning qishloq xo'jaligi kabi yetakchi sohasini ham modernizatsiya qilish, uning tarkibiga kiradigan deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining butun kompleksida texnik va texnologik yangilash ishlarini amalga oshirishga katta ehtiyoj sezilmoqda». Ushbu fikrlar zamirida qishloq xo'jalik tarmog'ini nafaqat chet eldan keltirilgan texnika va texnologiyalar asosida modernizatsiyalash, balki Respublikamizda mavjud texnikalarni taraqqiy ettirish hamda yangilarini joriy etish kabi muhim vazifalar ham ifoda etilgan.

So'nggi yillarda qishloq xo'jalik mashinalari tobora takomillash-tirilmoqda. "Dehqonchilikda industrial texnologiyani joriy etish uchun serunum mashinalar turkumi yaratilmoqda; kuchli tezkor traktorlar, keng qamrovli va tezkor mashina-qurollar joriy etilib, ularning ish unumi oshirilmoqda; mashina-qurollari unifikatsiya qilinmoqda va universallashtirilmoqda, sifati va puxtaligi

¹ Se gun R. Bello. Agricultural machinery and mechanization, Published in USA by Createspace US in 2012

oshirilmoqda.”² Metall sig‘imini kamaytirish, ekspluatatsion ko‘rsatkichlami yaxshilash ishlari olib borilmoqda; gidravlik va elektr yuritmaW, avtomatik boshqarish vositalari joriy etilmoqda.

«Traktor va qishloq xo‘jalik mashinalari konstruksiyasi» fanini o‘qitishdan maqsad zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan agromashinalar kompleksi bilan batafsil tanishtirish. Agromashinalarning vazifasi, tuzilishi, ishlashi, ishchi organlarni rostlash, ishga tayyorlash to‘g‘risida DTSning talablari darajasida bilirn, ko‘nikma va amaliy tajribalar berishdan iborat. Qishloq xo‘jaligi mashinalari va agregatlarini o‘rganish va ularni tadqiq etishga bag‘ishlangan laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlari «5310600 Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi», «5610600 Xizmat ko‘rsatish texnikasi va texnologiyasi (qishloq xo‘jalik texnikasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha)» ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavriat va magistratura talabalari uchun « Traktor va qishloq xo‘jalik mashinalari konstruksiyasi» fanining namunaviy o‘quv dasturi asosida yozilgan.

Har bir amaliy va laboratoriya mashg‘uloti (ishi)da ko‘rilayotgan va o‘rganilayotgan mashinalarning turlari, ularning ishslash jarayonlari, alohida ishchi organlar va mexanizmlarning vazifasi, ishning mazmuniga qarab geometrik, kinematik va texnologik parametrlarni hisoblash bayon etilgan. Ishning mohiyatini to‘liq tushunib olish uchun, jarayonlar nazariyasidan umumiy ma’lumotlar ham keltililgan.

Laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlari ro‘yxatiga 0‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sharoitlarida ishlatiladigan zamonaviy vatanimizda ishlab chiqarilgan va xorijda yerga ishlov berish, ekin ekish, g‘alla va texnik ekinlami yig‘ish, o‘simliklarni parvarish qilish, kasallik va hasharotlardan himoya qilish, shuningdek, oziq-yem tayyorlashda asosiy ish'lami bajaradigan mashina-agregatlarning faqat zarur turlari kiritilgan. Bunda kafedra ixtiyorida mavjud boigan mashinalar va stendlar e’tiborga olindi.

Talabalar amaliy va laboratoriya darslarida o‘zlarining ma’ruzalarida, darslik va o‘quv qoilanmalarni mutolaa etishda o‘zlashtirgau bilimlarini mustahkamlaydilar mashinalar bilan

² G. Crutz. Design of agricultural machinery. Published in New York by Willey , 2004

tanishadilar, mashina va jihozlarning konstruksiyasi, ishslash prinsipi va rostlashlarini o‘rganish jarayonida esa qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish ko‘nikmalarini oladilar. O‘quv qo‘llanmada muayyan mashinalar va jihozlarning parametrlarini hisoblashga oid tenglama va tushunchalar ham keltirilgan. Talabalar amaliy va laboratoriya ishlarida mashinalami o‘rganish bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlarini ham bajaradilar.

O‘quv qoilanmada katta hajmda nazariy va eksperimental ma’lumot keltirilgan. Bu ma’lumot 0‘zQXMEI, KubGAU (Rossiya), National Center for Appropriate Technology (USA), Technical University of Denmark (Germaniya) va boshqa adabiyot manbalarini tanishib chiqmoq jarayonida tanlab olingan. Keltirilgan mashinalarning ekspluatatsion ko‘rsatkichlari bosh ishlab chiqaruvchi zavod ma’lumotlaridan olingan: CLAAS, Lemkin (Germaniya), CASE IH, John Deere (USA), AGREGAT-AGROTECH (0‘zbekiston) va h.k. Adabiyot manbalarida keltirilgan Federal University of Santa Maria (Ispaniya), M1ISP (Rossiya) institatlardagi, Se gun R. Bello olimlarning “Agricultural machinery and mechanization” (USA), Brian Bell “Farm Machinery” ilmiy ishlarida tavsiya etilgan metodik materiallari o‘quv jarayonida amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda qo‘llaniladi

«Traktor va qishloq xo‘jalik mashinalari konstruksiysi» fahi bo‘yicha yosh o‘qituvchilarga metodik yordam berish maqsadida o‘quv qo‘llanmada bir nechta laboratoriya hamda amaliy mashg‘ulotlarni bajarish tartibi namuna sifatida keltirilgan. Amaliy va laboratoriya mashgulotlaridan olgan bilim va ko‘nikmalami bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mashina va jihozlarini yaratuvchi mashinasoz-konstrukturlik vazifalarini bajara oladigan bakalavrga yanada mustahkamlashda yordam beradi.

I QISM. LABORATORIYAISHHLARI

Laboratoriya ishlarini tashkil qilish

Har bir talaba laboratoriya ishlarini bajarish uchun mashg‘ulotga tayyorlanib kelishi lozim. Buning uchun u ma’ruzalar matni va adabiyotlami mutolaa qilib, laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmani kutubxonadan olib o‘rganishi va ish bo‘yicha hisobot shaklini tayyorlab kelishi shart.

Mashg‘ulot boshlanishda o‘qituvchi talabalarning ishni bajarishga tayyorgarlik darajasini tekshiradi va ushbu tekshiruv natijalari asosida tayyorgarligi yetarli bo‘lgan talabalarga laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishga ruxsat beradi.

Har bir laboratoriya ishini 3-4 talaba birgalikda bajaradi. Laboratoriya ishining tajriba qismi ko‘rsatmada tavsiya qilingan tartibda va xavfsizlik choralariga rioya qilingan holda bajariladi. Ishning tajriba qismi bajarilgandan so‘ng labaratoriya ishlari bo‘yicha hisobotga o‘tkazilgan tajriba natijalari kiritilib, xulosa yoziladi va ushbu laboratoriya mashg‘uloti himoya qilinadi. Himoya davomida savollarga aniq javob berib, o‘tkazilgan tajriba natijalarini tushuntura olgan talabalarga ushbu laboratoriya ishiga ajratilgan reyting sinovdan o‘tganligi haqida o‘qituvchi jurnaliga joriy baholash (JB) ballarini qo‘yadi.

Mashg‘ulot davomida laboratoriya ishini himoya qila olmagan talabalar keyingi mashg‘ulotgacha o‘qituvchi ajratgan qo‘srimcha vaqtida ushbu mashg‘ulotni himoya qilishlari lozim. Aks holda ular keyingi mashg‘ulotda laboratoriya ishini bajarishga qo‘yilmaydilar, buning o‘rniga avvalgi laboratoriya ishini himoya qiladilar. Laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘quv rejasi bilan ko‘rsatilgan muddatlarda bajarmagan talabalar ularni barcha asosiy laboratoriya ishlari tugallangandan so‘ng, o‘qituvchi belgilangan qo‘srimcha vaqlarda bajarishlari kerak. Barcha laboratoriya ishlarini bajargan va himoya qilgan talabalarning sinov daftarchalariga sinov belgilari qo‘yiladi.

Laboratoriya ishlarini bajarishda rioya qilinishi zarur bo‘igan xavfsizlik choralar

1. Laboratoriya ishini bajarishga kirishdan awal o‘qituvchilardan xavfsizlik texnikasi bo‘yicha tushuntirish olib, diqqatingizni ishni bajarishda xavf chiqishi mumkin bo‘lgart qismlarga qarating.
2. Mashg‘ulot o‘tkazish xonasida tartib saqlang. Laboratoriya ishini bajarish bilan bog‘liq bo‘lмаган ishlar bilan shug‘ullanmang.
3. O‘qituvchi yoki laborantning ruxsatisiz asbob - anjomlarga, mashinalarga va boshqa vositalarga tegmang. Mashg‘ulot xonasidagi barcha jihozlami ehtiyyotkorlik bilan ishlating.
4. Sodir bo‘lgan intizom buzilishlar va jihozlaming ishdan chiqishi haqida o‘qituvchi yoki laborantga tezda xabar bering.
5. Ish joyingizni bajarilayotgan ishga aloqador bo‘lмаган jihozlar bilan to‘s mang, bu holat baxtsiz hodisaga sabab bo‘lishi mumkin. Boshqa ish joyidagi jihozlarga tegmang, o‘qituvchi yoki laborantning ruxsatisiz ulami ishlatmang.
6. Elektr sxemalarini o‘qituvchi yoki laborant tekshirgandan so‘ng elektr manbaiga ulang. Qurol va mashinalami asosiy parametrlarini olishda va rostlashda tortqilar orasida va ostida boiishi man etiladi. Ko‘tarilgan jihozning ostiga kirmaslik kerak.
7. Aylanayotgan mexanizm, jihozlami, zanjirli uzatmalarni qo‘l yoki boshqa narsalar bilan tegmang.
8. Mashg‘ulot xonasida bir kishi qolishi mumkin emas. Ish paytida baxtsiz hodisa ro‘y bersa, jabrlanuvchiga yordam berish uchun ikkinchi kishi ham bo‘lishi shart.
9. Agar baxtsiz hodisa ro‘y bersa, jabrlanuvchiga tezda birinchi tibbiy yordam ko‘rsating va o‘qituvchi yoki laborantga xabar bering. Ishni tugatib, o‘z ish joyingizni tartibga keltiring. Mashg‘ulot xonasini o‘qituvchi ruxsati bilan tark eting.

1.1. Diskli o‘g‘itlash apparatini ekish meyoriga o‘rnatish

Ishning mazmuni: diskli o‘g‘itlash apparatini ekish meyoriga o‘rnatish, apparatning konstruksiyasi, rostlashni, ishini baholashni talabalarga o‘rgatish, ularda ko‘nikmalar shakllantirish.

Kerakli uskuna va jihozlar: o‘g‘itlash apparatlarini ishjarayoni demonstratsiya qilish stendi, O‘K-4 chopiq kultivatori, diskli mineral

o‘g‘itlash apparati, ishchi detallari, 5g gacha aniqlikda ishlaydigan tarozi, 5kg mineral o‘g‘it, xaltachalar yoki qutichalar, plakatlar, chizmalar, o‘lchash asboblari to‘plami.

Ish hajmi: laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtini va Isoat mustaqil ishlashga mo‘ljallangan.

Umumiy ma’lumotlar

Agrotexnik qoidalarda ekinlarga organik va mineral o‘g‘it berishning turli muddatlari va usuliari ko‘rsatilgan. Dehqonchiilcda olinadigan hosil, ekining tarkibidagi harxil moddalarni o‘zlashtirib, so‘rib olishi hisobiga boiadi. Tuproqqa solinadigan o‘g‘itlar tarkibida o‘simlikning rivojlanishi uchun kerak boiadigan fosfor, kaliy, azot, uglerod va boshqa moddalar bo‘lishi kerak.

0‘g‘itlash usuliari. Yerga o‘g‘itlar ekishdan oldin (asosiy), ekish vaqtida, ekishdan keyin (oziqrantirishda) solinadi.

Agrotexnik talablar. Yerga solinayotgan mineral o‘g‘itning bir-biriga yopishib qolgan bo‘laklari 1-5 mm zarrachalarga aylantirib maydalangan bo‘lishi, namligi 15% dan ortiq boimasligi kerak. Mashinalar mineral o‘g‘itni 50-1000 kg/ga, organik o‘g‘itni esa 5-60 t/ga sepa oladigan bo‘lishi kerak. Mashina o‘g‘itni tayinlangan chuqurlikka ko‘mishni (farqi \pm 15%) ta’minlashi kerak. Foydali elementlari parchalanmasligi uchun mineral o‘g‘it sepilganidan so‘ng 12 soat, organik o‘g‘it esa 2 soat ichida tuproqqa ko‘milishi lozim.


“Har qanday o‘g‘itlash mashinasiga qo‘yiladigan talablarning eng muhimi, maydonga tayinlangan miqdordagi o‘g‘it solinishini ta’minlashdir. Bu ishni mineral o‘g‘it sepish apparatlari bajaradi. Sepiladigan mineral o‘g‘it turiga qarab, apparatlari mexanik, pnevmatik va gidravlik turlarga boiinadi.”³

Mexanik apparatlarning tarelkasimon, shtift (tish)li-g‘altakli, diskli va transportyorli turlari keng tarqalgan. Ular oz ko‘lamdagi o‘g‘itlarni me’yorlab berish uchun qo‘llaniladi.

Diskli o‘g‘itlash apparati mashina ramasiga krönshteyn 9 (1.1.1-rasm) vositasida o‘rnatalidi. Disk harakatni shesternyalar 7 va juft konussimon shesternyalar orqali val 1 dan oladi. Tarelka

³ Se gun R. Bello. Agricultural machinery and mechanization, Published in USA by Createspace US in 2012

aylanganda o‘g‘it tarelkaning tubi bilan to‘sma qopqoq 5 orasidagi tirqishdan tashqariga chiqadi va uni yo‘naltirgich 10 ikkala diskka barobar taqsimlaydi. Tez aylanuvchi disklar 8 o‘g‘itni varonkalarga uzuksiz tushirib beradi. O‘g‘it sepish me’yori richag 3 yordamida zaslondan oz-ko‘p ochilishi orqali rostlanadi. Apparat kartoshka ekkichda va makkajo‘xori, lavlagi seyalkalarida qo’llaniladi. Chiqqan o‘g‘it o‘g‘it o‘tkazgichlarga yo‘naltiriladi; tuproqqa ko‘mish uchun kultivator gryadillariga ikkitadan o‘g‘it ko‘mgich o‘matiladi.



1.1.1-rasm. Tarelkali-diskli o‘g‘itlaish apparati:

1,8,14 - shestemyalar; 2 - kronshteyn; 3 - qopqoq; 4 - silindrik bunker; 5 - g‘ilof; 6 - diskli tushirgich; 7 - tarelka; 8 - disk; 9 - bo‘lish voronkasi; 10- ekish rostlagichi; 11 - to‘smaqopqoq; 12 - val; 13 - tushirgichlar vali; 15; 17 - tozalagich; 16 - yo‘naltirgich.

Kultivatorga o‘rnatalgan o‘g‘itlash apparatlari belgilangan miqdordagi mineral o‘g‘itni yerga solishga sozlanadi.

Apparatdan o‘g‘itlarni sekundda chiqishi q , kg/sek quyidagicha aniqlanadi:

(1.1)

$$q = p \cdot F \cdot v_0$$

bu yerda: p - o‘g‘itning zichligi, kg/m³;

F - me’yorlash darchaning yuzasi, m²;

v_0 — o‘g‘itlaming me’yorlash darchasidan o‘tganida o‘rtacha harakat tezligi, m/s.

Diskli apparatlar uchun (1.1.1—rasm)

$$F = f v (R - r); \quad (1.2)$$

$$V_0 = 0,5 a > (R + r); \quad (1.3)$$

$$q = 0,5 p a \cdot h \cdot (R^2 - r^2). \quad (1.4)$$

O‘g‘itlash apparatlariga qo‘yilgan ATT ga binoan

$$q = Q B \cdot v / k, \quad (1.5)$$

bu yerda Q - o‘g‘itni sepish me’yori, kg/m²;

B - kultivator, yoki seyalkanining qamrash kengligi, m;

v - agregatning harakat tezligi, m/s;

k - kultivator, yoki seyalkadagi hamma apparatlarning me’yorlash darchalarining soni.

O‘g‘itni sepish me’yori konstruktiv va rejim parametrlariga bog‘liqligi:

$$Q = 0,5 kp \cdot co \cdot h \cdot (R^2 - r^2) / B v \quad (1.6)$$

Demak, o‘g‘itni sepish me’yorini diskning burchak tezligi co , diskning markazidan qirg‘ichning oxirgi chekkasigacha masofasi r , me’yorlash darchanining balandligi h qiymatlarini o‘zgartirib rostlash mumkun.

O‘g‘itni sepish me’yori to‘g‘ri rostlanganligini tekshirish uchun og‘itni uzatish jadalligini aniqlash kerak:

$$q_i = n \cdot Q \cdot n \cdot D g' u B (1 + S) / k \quad (1.7)$$

bu yerda: q_i - di sk bir marta aylanganda bitta darchadan o‘g‘itlar sepish me’yori, kg;

disk bir marta aylanganda yuritish g‘ildiragining aylanishlar soni


$$n = 1 / i = co \cdot g' \cdot n / a_3, \quad (1.8)$$

$D g'$ -yuritish g‘ildiragining diametri, m;

a - g‘ildiragining sirpanma koefitsiyenti, $a = 0,1$

Diskli mineral o‘g‘it!ash apparatini ekish me’yoriga o‘matish, apparatning konstruksiyasi, rostlash, texnologik ish jarayoni, ishini baholashni o‘g‘itlash apparatlarini demonstratsiya qilish stendida ko‘rish mumkun (1.1.2-rasm). Stend diskli mineral o‘g‘itlash apparati va uning yuritmasidan iborat. Apparat elektrdvigatel, reduktor,

zanjirli yuritmalar orqali harakatlanadi. O‘g‘it sepish diskning ish jarayoni ketma-ket bajariladigan to‘rt bosqichdan iborat: bunkerdag‘i o‘g‘itni diskning tashqi qismiga chiqarish; o‘g‘itlarni ekish tirqi-shidan tushirish joyiga (qirg‘ichlar oldiga) keltirish; diskdag‘i o‘g‘itlarni majburiy tushirish, diskdantushgan o‘g‘itlami dalagatekis taqsimlash.



1.1.2-rasm. O‘g‘itlash apparatlarini ish jarayoni demonstratsiya qilish stendi:

1 - bunker; 2 - rostlash richagi; 3 - qirg‘ich; 4 - disk; 5 - zanjirli yuritma; 6 - rama; 7 - chervyakli reduktor; 8 - mufta; 9 - elektrdvigatel.

Laboratoriya ishida disk bir marta aiyanganida barcha holatda o‘matilgan qirg‘ich yo‘rdamida bitta ekish darchasidan tushgan o‘g‘itning haqiqiy miqdori aniqlanadi. Diskli mineral o‘g‘itlash apparati quyidagi parametrlerga ega:

Disk radiusi $i=150$ mm, ekish darchanining balandligi $h=21$ mm, diskning markazidan qirg‘ichning oxirgi chekkasigacha masofa r qabul qilinadi:

rostlagichning pozitsiyasi 1; 2; 3; 4; 5.

r , mm 137; 126; 115; 103; 92.

0‘g‘it solinish miqdori texnologik operatsiya turiga asoslanib
1.1-jadvaldan tanlab olinadi.

0‘g‘it miqdori

1.1.1-jadval

Variant raqami	Texnologik operatsiya	0‘g‘it solinish mildori		0‘g‘itlarning zichligi, kg /m ³
		kg/ga	kg /m ²	
Lavlagi				
1	Ekish	130	0,013	1000
2		120	0,012	1000
3		140	0,014	1200
4	Oziqlantirish	150	0,015	1200
Makkajo‘xori				
5	Ekish	140	0,014	900
6		160	0,016	900
7		140	0,014	1100
8	Oziqlantirish	170	0,017	1100

Ishni bajarish tartibi

1. Mineral o‘g‘itlash apparatining konstruksiyasi va qo‘llanilishi o‘rganiladi.

2. Mineral o‘g‘itlash apparatning sxemasi chiziladi, parametriari ko‘rsatiladi, 1.1.2-jadval to‘ldiriladi. Ekish darchasining rostlash richagini 1; 2; 3; 4; 5 holatlariga o‘rnataladi va har bir holatda disk bir martta aylanganda o‘g‘it solinish miqdori aniqlanadi. Tajriba uch martta takrorlanadi. Disk 10 martta aylanganda chap va o‘ng tomondagi ekish darchalaridan ekilgan o‘g‘it alohida o‘lchanadi, natijalari 1.1.3-jadvalga yoziladi.

Mineral o‘g‘it sepish apparatining parametrlari

1.1.2-jadval

$Dg'ti, \text{mm}$	B, m	κ	n

Disk bir martta aylanganda o‘g‘it solinish miqdori aniqlanadi va bog‘liqlik grafigi chiziladi $qj = f(L)$,

bunda L - rostlagich richagining pozitsiyasi.

2. (1.7) ifoda yordamida belgilangan shartlar uchun disk bir marta aylanganda o‘g‘it solinish miqdori aniqlanadi.

3. $qi=f(L)$ grafigidan hisoblangan o‘g‘it solinish miqdoriga tegishli rostlagich richagining pozitsiyasi topiladi.

4. Topilgan rostlagich richagining pozitsiyasiga ikkita darcha uchun rostlagich o‘matiladi va haqiqiy o‘g‘it solinish miqdori tekshiriladi. Olingan natija hisoblangan natija bilan taqqoslanadi.

5. Disk bir marta ailanganda qanday ish hajmiga egaligi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi, m^3

$$Vo = q_i / p \quad (1.9)$$

Disk bir martta aylanganda o‘g‘it sepish miqdori, kg

1.1.3-jadval

Richag-ning pozitsiyasi	0‘ng o‘git o‘tkazgich		Chap o‘git o‘tkazgich		0‘rtacha umumiy qiymat
	Tak-ror	0‘rtacha qiymat	Tak-ror	0‘rtacha qiymat	
1					
2					
3					
4					
5					

6. Ekish darchasidan ekiladigan o‘g‘it qatlamining qalnligi aniqlanadi. (1.4) ifodadan foydalanib qabul qilamiz $co = lie$ (rad/s), $q = q_i = Vo p$

$$h = \frac{V_0}{\gamma (\Delta^2 - \Gamma^2)}$$

Aniqlangan /zyning qiymati ekish darchasining konstruktiv balandligi h bilan solishtiriladi. Agarda $h \approx h$ bo'lsa, diskning aylanish burchak tezligi kritik c_{oh} - qiymatidan kichik bo'ladi va ekish darchasi butun balandligida ishlaydi. Agarda $h < h$ boisa, ekish darchadan ekiladigan o'g'it tezligi diskning aylanish burchak tezligi qiymatidan kichik bo'ladi va o'g'it ekish darchasi butun balandligida ishlamaydi. Demak, disk tezligini yanada kattalashtirish o'g'it ekish normasini ko'paytirmaydi.

7. Xulosa yo'ziladi.

Bajarilgan ish bo'yicha hisobot mazmuni

1. Mineral o'g'itlash apparatlarining ta'rifi va tasniflanishning qisqa bayoni.
2. Mineral o'g'itlash apparatlarini rostlash bayoni.
3. Diskli o'g'itlash apparati sxemasi.
4. O'g'itlash apparatlarini ish jarayoni demonstratsiya qilish stendi sxemasi.
5. Tajriba yo'li bilan olingan va hisoblab chiqilgan qiymatlar jaavallari.
6. Disk bir marta aylanganda o'g'it solinish miqdori bog'liqlik grafigi.
7. Xulosa.

Masala.⁴ Diskli o'g'itlash apparati o'g'itni sepish me'yori 0,015 kg/m² bo'lsa; diskni bir marta aylanganda yurituvchi gildirakning aylanishlar soni 3,1 min⁻¹; yurituvchi gildirakning diametri 1,200 m; yurituvchi gildirakning sirpanma koeffitsiyenti 0,1 bolganda, bitta darchadan o'g'it solinish miqdori aniqlansin.

Berilgam $Q = 0,015 \text{ kg/m}^2$; $\omega = 3,1 \text{ min}^{-1}$; $f = 1,200 \text{ m}$; $S = 0,1$.

Masalaning yechilishi: disk bir marta aylanganda bitta darchadan o'g'it solinish miqdori quyidagicha aniqlanadi:

⁴ Engineering principles of agricultural machines 2nd Edition. Ajit K.Srivastava. Michigan State University and others. Copyright © 2012 by the American Society of Agricultural and Biological Engineers.

$$qi = n \cdot Q \cdot z \cdot Dgu \cdot B / (l+S) / k = 3,1 \cdot 0,015 \cdot 3,14 \cdot 1,2 \cdot 3,6 (1+0,1) / 4 = \\ 0,1735 \text{ kg.}$$

Javob: disk bir martta aylanganda bitta darchadan o‘g‘it solinish miqdori 0,1735 kg ga teng.

Nazorat savollari

1. 0‘g‘itlash apparatlari qanday tasniflanadi?
2. Apparatlamaing ish jarayonini aytib bering.
3. 0‘g‘itlash apparatlari qanday rostlanadi?

1.2. Don seyalkasini belgilangan ekish me’yoriga sozlash

Ishning mazmimi: don seyalkasining konstruksiyasi, texnologik ish jarayonini o‘rganish va uni belgilangan ekish me’yoriga sozlashni talabalarga o‘rgatish, ularda ko‘nikmalar shakllantirish.

Kerakli uskunalar va jihozlar: don seyalkasi, ishchi organlari, plakatlar, chizmalar, o‘quv adabiyotlari, oichash asboblari to‘plami.

Ish hajmi: laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtiga va lsoat mustaqil ishslashga moljallangan.


Umumiy ma’lumotlar

“Seyalkalar (ekkichlar) vazifasiga, ya’ni ekiladigan ekin turiga qarab don, makkajo‘xori, lavlagi, chigit, sabzavot, piyozi va h.k. ekkichlarga ajraladi. Don ekkichlar urug‘ni ekish usuliga qarab: qatorli va tor qatorli ekishga moijallangan bo‘ladi.”⁵ Don ekkichlarning qamrash kengligi 3,6 m va qatorlar orasi 15 sm bo‘lgani uchun 24 ta g‘altakli ekish apparati, 24 ta soshnik bilan jihozlanadi.

Chopiq qilinadigan ekinlar (makkajo‘xori, lavlagi va chigit) ekadigan ekkichlar qatorli, punktirla (donalab) va uyali ekkichlarga bo‘linadi. C3-3,6 don seyalkasi texnologik sxemasi (1.2.1-rasm) da tasvirlangan. Ekkichning old qismidagi bunker 4 urug‘ga, orqadagi bunker 5 esa mineral o‘g‘itga mo‘ljallangan. Ekish vaqtida o‘g‘it

⁵ Ch. Boyli, I. Jntras. Designing a small scale grain harvester: a tool for urban and peri-urban growers. USA, National Center for Appropriate Technology, 2012

ishlatilmasa, ikkala bunkerlarni urug'ga to'latish mumkin. Bunkerlaming tag qismida novli g'altakli ekish apparatlari biriktirilgan, urug' o'tkazgichlar 7 ekish apparatlari 3 va 6 dan uzatilgan urug' va o'g'itlami aralash holatda soshniklar 10 va 11 ga tushirib beradi. Diskli soshniklar rama 13 ga tortqilar vositasida sharnirli birlashtirilgan, soshniklar salt holatga gidrostilindrlar 2 yordamida ko'tariladi. Shtangalarga kiygizilgan prujinalarning tarangligi tuproq sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgartiriladi. Ekish apparatlarining g'altaklari aylanma harakatni ekkichning yurish g'ildiragidan tishli va zanjirli uzatmalar vositasida oladi. Kontryuritmaning chap va o'ng vallari o'rtadagi valga mufitalar orqali birlashtirilgan. Chap va o'ng seksiya apparatlari mos holda chap va o'ng g'ildiraklardan harakat oladi.



1.2.1-rasm. C3 - 3,6 don seyalkasining texnologik sxemasi:

1 - vintli mexanizm; 2 - gidrosilindr; 3 - ekish apparatining novli g'altagi;
4 - urug' bunkeri; 5 - o'g'it bunkeri; 6 - o'g'it apparatining tishli g'altagi; 7 - urug'
o'tkazgich; 8 - turish taxtasi; 9 - ko'mgich;..... 1 Ova. 11 - ikki diskli soshniklar;
12 - g'ildirak; 13 - rama

O'rtadagi valga ajratgich va yulduzcha o'matilgan. Soshniklar salt holatga ko'tarilganda ajratgich harakatni uzib qo'yadi va yulduzcha aylanmaydi. Bunkerlar 4 va 5 ga solingenan urug' va o'g'itlar pastga o'zi oqib, ekish apparatlarining qabul kameralarini


to'latadi. Ekish apparatlarining g'altaklari aylanib, urug' va o'g'it donalarini tashqariga chiqarib, varonkaga tashlaydi. Urug' va o'g'it urug' o'tkazgichlar 7 orqali soshnik disklarining o'rtasidagi bo'shliqqa va yo'naltirish plastinalari bo'ylab egatcha tubiga tushadi, egatchalarning devoridan tushgan tuproq bilan ko'miladi; tishsimon ko'mgichlar 9 tuproqni yon tomonga siljitim, urug' qatorini qo'shimcha ko'madi. Ekish chuqurligi vintli mexanizm 1 yordamida rostlanadi. Vint 1 burab kiritilganda ekish chuqurligi oshadi. Chap va o'ng seksiya soshniklari ikkita vintli mexanizm 14 yordamida bir satnga keltiriadi.

C3 - 3,6 don seyalkasining asosiy texnikaviy tavsiflari

- qamrash kengligi — 3,6 m
- ishchi tezligi - 14 km/soat gacha
- qatorlar orasi - 150 mm
 - » diskli soshniklarning soni (ishlov berish chuqurligi - 24) 40-80 sm
 - novli-g'altakli ekish apparatlarining soni - 24
 - shtiftli-g'altakli ekish apparatlarining soni - 24
 - uzatma mexanizmlar soni - 2
- ⑧ urug' va o'g'it bunkerlarining sig'imi - 453/212 dm³

Novli-g'altakli ekish apparati (1,2.2-rasm) novli g'altak 2, rozetka 3, klapan J, korpus 4 va aylanmaydigan mufta 5 dan tuzilgan. G'altak ($d= 51$ mm, $l=39$ mm, novlar soni $Z_{\text{v}} = 8 \dots 12$) korpus 4 ichida valik 6 ga shtift bilan mahkamlangan. Korpus 4 urug' bunkerining tubiga urug' chiqadigan teshik qarshisida biriktirilgan. Bunker sig'imi ekkichning 1 - 1,5 soat uzliksiz ishlashi uchun yetarli urug'ga mo'ljallangan bo'ladi. Korpus 4 ning yon devoridagi teshiklar chapda rozetka 3, o'ng tomonda esa mufta 5 bilan yopilgan. Rozetka korpusning yon devoridagi aylana ariqcha ichiga kiritilgan; rozetkaning kesik joylariga novli g'altakning qovurg'alari kirib turadi va ular birga aylanadi. Mufta 5 g'altakning quyruq qismiga kiy-gizilgan bo'lib, uning chiqiqlari korpusning o'ng devoridagi kesik-larga kirkizilgan. Muftaning val bo'ylab siljimasligi uchun shayba va

shplint bilan tutib turiladi. Korpusning tagi klapani 1 bilan berkitilgan. Klapan valik 7 ga kiygizilib, bolt 8 bilan qotirilgan. Valikni richag bilan buraganda klapan pastga ochilib korpus ichidagi urugiar to'kiladi. Klapanning orqa cheti og'dirilgan bo'lib, g'altakning novlari klapanning bu chetidan butun uzunligi bo'yicha bordaniga emas, balki birin-ketin ravon o'tadi va urug'lar oqimi uzliksiz bo'ladi. G'altak novlaridan biri klapanning chetidan o'tayotgan paytda navbatdagi nov klapanning ustiga chiqqan bo'ladi. Klapan bilan g'altakning qovurg'asi orasida urug' chiqadigan tirkish bor. Tirkishni rostlash uchun bolt 9 ni burab, prujina ko'p yoki kam siqiladi. Boshqoli ekinlar urug'i uchun bu tirkish 1-2 mm, dukkakli ekinlar urug'i uchun esa 8-10 mm qilib rostlanadi. Buning uchun valik 7 ni richag yordamida biroz burish lozim bo'ladi. Ekkichdag'i urug' ekadigan barcha g'altaklar umumiy valga o'rnatilgan bo'lib, ular val bilan birga aylanadi va maxsus richag yordamida chap yoki o'ng tomonga siljilib, korpus ichidan chiqarish yoki kiritish mumkin.



1.2.2-rasm. Novli-g'altakli ekish apparati:

a-qismlarga ajratilgan holda; fe-yigilgan holda; 7-apparat klapani;

2-novli g'altak; 3-rozetka; 4-apparat korpusi; 5/aylanmaydigan mufta;

6-apparatlar vali; 7-klapanni ochish valiki; 5-mahkamlash bolti; 9-rostlash bolti;
/0-prujina

Urug' ekish me'yori (bir gektar maydonga ekiladigan urug' miqdori, kg/ga) g'altaklarning korpus ichidagi ish uzunligini va aylanish chastotasini o'zgartirib rostlanadi. G'altakning ish uzunligi apparatlar valini umumiy richagi yordamida siljiti o'zgartiriladi.

G‘altakning aylanish chastotasi (min¹) ekkichning g‘ildiragi 12 dan apparatlar valiga harakat uzatish nisbati (*i*) ni o‘zgartirib rostlanadi. Buning uchun shesternya yoki yulduzchalar almashtiriladi.

Ishni bajarish tartibi

1. C3 - 3,6 don seyalkasining konstruksiyasi, ish jarayoni o‘rganiladi.

2. Seyalkaning rostlash prinsiplari va mexanizmlari bilan tanishib chiqiladi.

3. Seyalka belgilangan ekish me’yoriga moslab rostlanadi.

Buning uchun sozlovchi tutkich yordamida hamma g‘altaklar 2 (1.2.3-rasm) korpus 4 ichiga maksimal kiritiladi. Ularning cheti rozetka 3 bilan bir tekislikda yotishi kerak. Agar birorta g‘altak rozetkadan 1,0 mm farq qilsa, shu apparatning korpusi bunkerga nisbatan tegishli tomonga surib mahkamlanadi. Mufta 5 ning qovurg‘asi bilan klapan 1. orasidagi tirqish tekshiriladi va sozlanadi (don ekinlari urug‘lari uchun 1-2 mm; no‘xat kabi yirik urug‘lar uchun 8-12 mm). Seyalka g‘ildiragi yerdan birmuncha ko‘tarib qo‘yiladi, bunkerning ichiga urug‘ solinib, urug‘ o‘tkazgichlarni har biriga xaltachalar kiydiriladi. Shundan so‘ng g‘ildirakni qo‘l bilan 20 marta aylantirib to‘xtatiladi. Har bir ekish apparati me’yorlab bergen urug‘ massasi m_1, m_2, \dots, m_n ($n = 1, 2, 3, \dots$) tarozida 1 g gacha aniqlikda o‘lchanib, ularning o‘rtacha arifmetik qiymati m_Q quyidagicha aniqlanadi:

$$m'_0 = (m_1 + m_2 + m_3 + \dots + m_n) / n \quad (2.1)$$

bu yerda: n - apparatlar soni; m_r mos holda tartib raqamli apparatdan ekilgan urug‘lar massasi ($=1; 2; 3 \dots n$).

Bir apparatdan ekilgan urug‘lar o‘rtacha massaning o‘rtacha og‘ishi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_0' = [(m_0 - m_1) + (m_0 - m_2) + \dots + (m_0 - m_n)] / n$$

Apparatlaming urug‘ni me’yorlashdagi farqlanishi notejisik ekish darajasi:

$$F = 100 \cdot d_0 V m_0. \quad (2.2)$$

Don ekinlari uchun $F < 6\%$ boiishi lozim.

4. Seyalkaning g'ildiragip marta aylantirilganda berilgan me'yor bo'yicha ekishi lozim bo'lgan urug' miqdori M_x hisobianadi:

$$M_x = x \cdot D \cdot p \cdot B_i \cdot Q / 10^* \cdot e, \text{kg} \quad (2.3)$$

bu yerda: Q - agrotexnika bo'yicha belgilangan urug' ekish me'yori, kg/ga; D - seyalka g'ildiragini diametri, m; B_i - seyalkaning ishchi qamrash kengligi, m; p - g'ildirakning aylantirish soni (20...30); e - seyalka g'ildiragini sirpanish koeffitsiyenti, $e = 0,05 \dots 0,95$

5. Seyalkaning ishchi tezligiga g'ildirakning aylanish tezligini moslab, seyalkaning g'ildiragini dalada ishlagandagi tezlikda aylantirish kerak

$$P_g = v_m / (j t D), \text{s}^{-1} \quad (2.4)$$

bu yerda: v_m - ekish aggregatining harakat tezligi, m/s.

6. Xaltachalarga tushgan urug'larining massasi M_a aniqlanadi va hisoblangan massa M_x bilan solishtiriladi. Agar $(M_a - M_x) / M_x \cdot 100 \leq \pm 3\%$ bo'lsa, seyalkadan foydalanish mumkin, aks holda, seyalka qayta sozlaniladi.


7. Tajriba 3 marta takrorlanadi va urug'lar massasi $m^1, m^{1/}, m^{1/1}$... $m^{1/1}$ 1.2.1 -jadvalga yoziladi, y- tajribatakrori, m_0' ning qiymati (2.1) formula, Fning qiymati esa (2.2) formula bo'yicha hisobianadi.

Hisoblangan parametrlar

1.2.1-jadval

Apparat tartib raqami, i	Apparatdan ekilgan urug'lar massasi, g				Apparatlarning notekis ekish darajasi, $\pm F, \%$
	m_1^1	m_P	$m^{1/1}$	$0^{\circ}\text{rtacha og'ish, do'}$	

Jadval ma'lumotlari asosida notekis ekish grafigi tuziladi (1.2.3-rasffi)



1.2.3-rasm. G‘altakli apparatlarning notekis ekish grafigi

Bajarilgan ish bo‘yicha hisobot mazmuni

1. C3 - 3,6 don seyalkasining ta’rifi va texnologik ish jarayonining sxemasi.
2. C3 - 3,6 don seyalkasining ekish me’yorini rostlash haqida qisqacha ma’lumot.
3. Tajriba yoii bilan olingan va hisoblab chiqilgan qiymatlar jadvali.
4. G‘altakli apparatlarning notekis ekish grafigi.
5. Xulosa.

Masala.⁶ Seyalkaning g‘ildiragi 20-30 marta aylantirilganda, urug‘ ekish me’yori 140kg/ga, seyalka g‘ildiragining diametri 1,18 m, seyalkaning ishchi qamrash kengligi 3,6 m, seyalka g‘ildiragining sirpanish koeffitsiyenti 0,90-0,95 uchun ekishi lozim bo‘lgan urug‘ miqdori hisoblansin.

Berilgan: $Q = 140 \text{ kg/ga}$; $D = 1,18 \text{ m}$; $\Delta = 3,6 \text{ m}$; $p = 20-30$; $s = 0, -0,95$.

Masalaning yechilishi: Seyalka ekishi lozim bo‘lgan urug‘ miqdori quyidagicha hisoblanadi:

⁶ Engineering principles of agricultural machines 2nd Edition. Ajit K.Srivastava. Michigan State University and others. Copyright © 2012 by the American Society of Agricultural and Biological Engineers.

$$M^* = \kappa - D - p \cdot B \cdot i \cdot Q / 10^4 \quad ■ s = 3,14 \quad ■ 1,18-20-$$

$$3,6 \cdot 140 / 10^4 - 0,90 = 4,150 \text{ kg}$$

Javob: Seyalkaning ekishi lozim bo'lgan urug' miqdori 4,150 kg

Nazorat savollari

1. C3 - 3,6 don seyalkasi zaminida qanday seyalkalar yaratilgan?
2. C3 - 3,6 don seyalkasida don va o'g'it sepish me'yori qanday rostlanadi?
3. Ekish apparatining ish hajmi deb nimaga aytildi?
4. G'altakli apparat bir aylanganda ajratib beradigan urug' miqdori qanday omillarga bog'liq?
5. G'altakli apparatlarning notekis ekish grafigi qanday tuziladi va bu grafikk qarab qanday xulosalar chiqariladi?
6. Qanday sharoitda g'altakli yecish apparatidan foydalanish ma'qul bo'ladi?

1.3. Tishli-g'altakli va diskli mexanikaviy chigit ekish apparatlarini belgilangan ekish usullariga o'rnatish

Ishning mazmuni: mexanikaviy chigit seyalkasi tishli-g'altakli va diskli apparatlarining konstruksiyasi, texnologik ish jarayoni va ularni rostlashni o'rganish, apparatlarini belgilangan ekish usuliga o'rnatishni talabalarga o'rgatish, ularda ko'nikmalar shakllantirish.

Kerakli uskunalar va jihozlar: СЧХ-4А mexanikaviy chigit seyalkasining tishli-g'altakli va diskli apparatlari, seyalkaning ishchi organlari, plakatlar, chizmalar, o'quv adabiyotlari, oichash asboblari to'plami.

Ish hajmi: laboratoriya ishi 3 soat auditoriya vaqtiga va 2soat mustaqil ishslashga mo'ljallangan.

Umumiy ma'tumotlar

Biryo'la to'rt qatorga seriyalab chigit ckuvchi СЧХ-4А seyalkasi tukli va tuksizlantirilgan chigitlarni qator oralarining kengligini 90 sm va uyalarining orasini 20-30 sm qilib ckishga mo'ljallangan.

CЧХ-4A seyalkasining asosiy texnikaviy tavsiflari

- ⑧ qamrash kengligi - 3,6 m
- ⑧ ishchi tezligi - 7 km/s gacha
- ⑧ qatorlar orasi - 90 sm
- * ekish sxemasi - 90x20, 90x30
- ⑧ bir uyadagi urug‘lar soni: tukli/tuksizlangan - 3-10/3-4
- ⑧ sir pang‘ichli soshniklaming soni - 4
 - » soshniklaming ishlov berish chiqurligi — 3-8 sm
- uzatma mexanizmlar soni - 2
- ⑧ urug‘ bunkerining sig‘imi - 80 dm³
- ⑧ gabarit o‘lchamlari - 1500x3720x2050

Seyalka 0,9 yoki 1,4 klass traktorlariga o‘matib ishlatiladi. Ekish agregatiga qo‘sishimcha ravishda kultivator-o‘simlik oziqlantirgichdan yechib olingan o‘g‘itlash apparatlari va maxsus tayyorlanadigan ПГС-2,4В yoki Г1ГХ-4 gerbitsid sepish moslamalari o‘rnataladi. СЧХ-4А mexanikaviy chigit seyalkalarida g‘altakli va diskli ekish apparatlari ishlatiladi.


Tukli chigitlar tishli-g‘altakli apparatlar bilan ekiladi. Apparatning asosiy qismlari (1.3.1-rasm.) tub 5, ekuvchi tishli g‘altaklar 6 va 24, val 22, yetakchi 23 va yetaklanuvchi 11 konusaviy shesternyalar, aylanadigan to‘zitgich-ta’milagich 12, to‘zituvchi sterjen 16 va chigit bankasi 19 dan iborat. Apparatning tubi cho‘yandan quyilgan. Apparat tubining markazida rezbali teshik, doiraviy chuqurcha va doiraviy chiqiq bor. Apparat tubining ish sirtida doiraviy chiqiqning diametral qarama-qarshi tomonlarida ekish darchasi deb ataladigan ikkita cho‘zinchoq teshik bor. Ekish g‘altaklarining yuqori qismi ana shu ekish darchalariga pastdan qisman kirib turadi. G‘altak tishlarining apparatdan chiqish (chigitni olib chiqish) tomonida ekish darchasi kengaytirilgan. Ekish darchasining keng qismi to‘smaqopqoq 7 bilan ochilib, yopiladi. Ekish me’yorini oshirish uchun to‘smaqopqoq tashqariga tortilib, darcha ko‘proq ochiladi.

Yetaklanuvchi shestemya 11, barmoqli gardish 12 va sterjen 16 yig‘iq holda to‘zitkich-ta’milagichni hosil qiladi. To‘zitkich-ta’milagich apparat tubining aylana chiqiq‘iga qo‘yiladi va unga

maxsus o‘q 15 bilan biriktiriladi. To‘zitkich-ta’minlagichning barmoqlari bilan ekish apparati tubining ish sirti orasidagi aylana bo‘slik ta’minalash kamerasi deb ataladi.

Apparatning ishlash jarayoni. To‘zitkich-ta’minlagich 3 vertikal o‘q 1 atrofida aylanganda bunkeming pastki qismidagi tukli chigitlami to‘zitadi. Ustki qatlamdagi chigitlar o‘zaro ilashish va ishqalanish kuchi ta’sirida harakatga keladi. Chigitlar yoysimon chiviq (to‘zitqich)dan uzoqlashgani sari sekin aylana boradi va ma’lum oraliqda mutlaqo aylanmaydi. Chigitlar bunkerda aylanganda to‘zib, bir-biriga yopishib qolmaydi, ta’minalashning barmoqlari orasidan oson o‘tadi. Ta’minalashning barmoqlari chigitlami qo‘srimcha ravishda to‘zitadi, zarur miqdordagi chigitni pastga, ta’minalash kamerasiga o‘tqazib turadi va ekish g‘altaklarining chigitlami belgilangan me’yorda uzuksiz oqim bilan ekishini ta’minalaydi. Chigit g‘altaklar yordamida ekilgaxida bunkerdagи chigitlar sathi pasaya boradi va to‘zitkichlar ta’sirida uyurma harakatga kelib to‘ziydi va barmoqlar orasidan o‘tib, ta’minalash kamerasiga tushadi.


Bunkerdagи chigitlar aylanganda chigitlarning pastki qatlami qo‘zg‘almas shtir 4 ga duch kelib, yuqoriga va pastga yo‘naladi. Yuqoriga yo‘nalgan chigitlar ustki qatlamdagi chigitlarning to‘zishiga yordam beradi, pastga yo‘nalgan chigitlar esa ta’minalash kamerasiga, bevosita ekish g‘altaklarining ustiga tushadi. Ekish g‘altagi aylanganda uning ta’minalash kamerasiga kiruvchi tishlari chigitlami qamrab olib, tashqariga chiqaradi. Tishlar orasidagi har qaysi katakka, yirikligiga qarab 1-3 donadan chigit joylashadi. Ekish g‘altaklarining ish unumi, ya’ni apparatning ichidan vaqt birligida olib chiqadigan chigitlarning massaviy miqdori to‘smaqopqoqni ochib-yopish, g‘altakka harakatni uzatish nisbatini o‘zgartirish va g‘altakni qalinlashtirish yo‘li bilan rostlanadi. Ish unumini to‘smaqopqoq yordamida rostlash usuli juda oddiy, ammo u chigitlarning bir me’yorda ekilishini ta’minalaydi. Bunga sabab shuki, ekish darchasi to‘smaqopqoq bilan kengaytirilganda chigitlar g‘altakning tishlaridan faqat qisman ekiladi, ulaming asosiy qismi esa o‘z og‘irligi ta’sirida darchadan pastga to‘kiladi.



1.3.1-rasm. Tishli-g'altakli ekish apparati (qismlarga ajratilgan holda):

1; 3; 9; 10 - bolt; 2; 25 - shtir; 4 - moydon; 5 - tub; 6; 24 - g'a!tak;
 7 - to'smaqopqoq; 8 - prujina; 9 - quloqli boit; 11 - yetaklanuvchi konus
 shestemyasi; 12 - barmoqli gardish; 13 - disk; 14 - vint; 15 - maxsus o'q;
 16- tcržituvchi sterjen; 17; 21; 26 - shpilka; 18 - qopqoq; 19 - bunker;
 20 - podshipnik; 22 - val; 23 - yetakchi konus shestemyasi; 27 - kronshteyn.

Apparatlar yuritmasi chap va o'ng g'ildiraklardan harakatni uzatuvchi yuritmalardan iborat. Seyalka dalada harakatlangunda (1.3.2-rasm) chap g'ildirak 9, yulduzcha $Z_1 = 45$ va almashtiriladigan yulduzchalar bloki $Z_2=12$ (yoki 16, 18, 25) vositasida chap valni aylantiradi. Yulduzchalarining zanjiri qo'sh yelkali richag 7 ning roliklari 8 va prujina 6 bilan tarangiashadi. O'ng g'ildirak ham o'ng valni xuddi shunday uzatma vositasida aylantiradi. Har qaysi val 4 ikkitadan ekish va uya hosil qilish apparatlarini harakatga keltiradi.



1.3.2-rasm. Tukli chigitni seriyalab ekuvchi СЧХ-4А seyalkasi chap yuritmasining kinematik sxemasi:

1 - uya hosil qiluvchi apparat; 2 - vertikal valik; 3 - reduktor; 4 - val; 5 - g'altakli ekish apparati; 6 - prujina; 7 - qo'sh elkali richag; 8 - rolik; 9 - chap g'ildirak; 10 - urug[«] o'tkazgich; 11 - soshnik; 12 - uya hosil qiluvchi disk; 13 - parrak

Yakka g'altakli ekish apparati 5 harakatni val 4 dan individual zanjirli uzatma orqali oladi. Buning uchun har qaysi apparat qarshisida umumiylor qurilishi mumkin. Buning uchun har qaysi apparat qarshisida umumiylor qurilishi mumkin. Buning uchun har qaysi apparat qarshisida umumiylor qurilishi mumkin. Buning uchun har qaysi apparat qarshisida umumiylor qurilishi mumkin.

Bunkerdagidan chigitlar aylanganda chigitlarning pastki qatlami qo'zg'almas shtir 4 ga duch kelib, yuqoriga va pastga yo'naladi. Yuqoriga yo'nalgan chigitlar ustki qatlamdagini chigitlarning


to‘zishiga yordam beradi, pastga yo‘nalgan chigitlar esa ta’minalash kamerasiga, bevosita ekish g‘altaklarining ustiga tushadi. Ekish g‘altagi aylanganda uning ta’minalash kamerasiga kiruvchi tishlari chigitlarni qamrab olib, tashqariga chiqaradi. Tishlar orasidagi har qaysi katakka, yirikligiga qarab 1-3 donadan chigit joylashadi. Ekish g‘altaklarining ish unumi, ya’ni apparatning ichidan vaqt birligida olib chiqadigan chigitlarning massaviy miqdori to‘smaqopqoqni ochib-yopish, g‘altakka harakatni uzatish nisbatini o‘zgartirish va g‘altakni qalinlashtirish yo‘li bilan rostlanadi. Ish unumini to‘smaqopqoq yordamida rostlash usuli juda oddiy, ammo u chigitlarning bir me’yorda ekilishini ta’minalamaydi. Bunga sabab shuki, ekish darchasi to‘smaqopqoq bilan kengaytirilganda chigitlar g‘altakning tishlaridan faqat qisman ekiladi, ularning asosiy qismi esa o‘z og‘irligi ta’sirida darchadan pastga to‘kiladi.

Ekish me’yorini va uyalar orasidagi masofani rostlash uchun zarur bo‘lgan yulduzcha va shesternya tishlamining soni hamda uya hosil qiluvchi parrak kurakchalarining soni tanlanadi. Ekish me’yori g‘altakli apparatning konstruksiyasiga qarab yoki Z₂ va Z₄ yulduzchalarni mos ravishda tanlash yo‘li bilan yoki to‘smaqopqoq yordamida o‘zgartiriladi. Ekish me’yorini ko‘paytirish uchun uzatish soni katta bo‘lgan yulduzchalar tanlanadi. Seyalka bilan ekiladigan chigit uyalarining orasi uya hosil qiluvchi disk 12 ning aylanish tezligini o‘zgartirib rostlanadi. Qatorlab ekishda parrak 13 ga harakat uzatilmaydi va chigitlar urug‘ o‘tkazgichdan bevosita soshnik 11 ga tushadi.

Diskli ekish apparati (1,3.3-rasm) tuksizlantirilgan, og‘irligi va o‘lchamlari bo‘yicha saralangan quruq chigitlarni uyalarga aniq belgilangan miqdorda tashlab ekadi. Chigit seyalkalarining diskli ekish apparatlari ayni vaqtida ikki vazifani bajaradi: bankadan zarur miqdordagi chigitlarni ajratib (mexanikaviy usulda sanab) oladi va seyalka awaldan belgilangan masofani o‘tgandan keyin apparat ajratib olgan chigitlarni soshnik ochgan egatchaga tashlab, uya hosil qiladi. Birinchi vazifani apparatning katakchali diskni, ikkinchi vazifani esa parragi bajaradi. Disk va parrak apparat ichida joylashgan bo‘lib, o‘zaro bog‘langan holda ishlaydi.

Aniq ekuvchi apparatlar chigit ekishga mo‘ljallangan 40 ta katakchali diskdan tashqari, qo‘srimcha ravishda makkajo‘xori

ekuvchi va oq jo‘xori ekuvchi disklar bilan jihozlanadi. Disklar urug‘lik materialga, urug‘ning mayda-yirikligiga, bir uyaga ekiladigan urug‘lar soniga, chigit ekuvchi disklar esa, bulardan tashqari, agregatning harakat tezligiga qarab ham tanlanadi.



1.3.3-rasm. СЧХ-4А -III seyalkaninng tuksizlantirilgan chigitlamini aniq ekuvchi diskli apparat:

1 - qalpoq; 2 - yengillashtiruvchi to‘sinq; 3 - sharniiii valik; 4 - katakchali ekish disk; 5 - flanets; 6 - oraliq korpus; 7 - shestemyalar bloki; 8 - kurakchali parrak; 9 - apparat tubi; 10 - valik; 11 - qaytargich korpusi; 12 - vint


Apparatning ishslash jarayoni. Bunkerdag'i chigitlar to‘sinq 2 ning yumaloq teshiklaridan pastga o‘tib, katakchali disk 4 ning ustidagi 50 mm balandlikdagi bo‘shliqni to‘ldiradi. Bu to‘sinq chigitlarning diskka ko‘rsatilayotgan bosimini pasaytirib, latakchalarning chigitga to‘lishi«i» yaxshilaydi, bunkerdag'i urug‘lar miqdorining ekish

jarayoniga bo‘lgan ta’sirini kamaytiradi, urug‘laming maydalanishi va kardanli vertikal valikni aylantirishga sarflanadigan kuchni kamaytiradi. Ekish diskı 4 aylanganda chigitlar katakchalami to‘ldiradi va ular bilan birga aylanib qaytargich 11 ga duch keladi. Bir donalab ekuvchi diskning katakchalariga bir donadan, guruhlab ekuvchi diskning katakchalariga esa, katakchaning o‘lchamlariga qarab, 3 yoki 4 donadan chigit kiradi. Qaytargich katakchalariga kirmagan chigitlami chetga sidirib tashlaydi. Katakchalarda qolgan chigitlar qo‘zg‘almas plastinkasimon tushirgichga urilib, apparatning oraliq korpusi 6 dagi ekish darchasi orqali apparatning tubigatushadi.

Chigitlaming maydalanmasligi va shikastlanmasligi uchun qaytargich 12 ning tumshug‘i bilan diskning orasida kamida 0,5 mm li, korpusning tagiga “ikkinch” chigitlaming o‘tib ketmasligi uchun esa ko‘pi bilan 1,2 mm li tirqish boMishi kerak. Bu tirqish qaytargichni apparatga o‘matish oldidan kontrgaykali vintni burish yo‘li bilan rostlanadi. Bu holda tirqish qaytargich tumshug‘ining pastki chetidan korpus 6 ning pastki qirrasigacha o‘lchanadi. Qaytargich korpusi 11 ning ichida yulduzcha bor. U qaytargich bilan umumiy o‘qda tebranuvchi ikki yelkali richagga erkin aylanadigan qilib o‘rnatilgan. Yulduzcha tishlarining qadamini ekish diskı katakchalarining qadamiga teng bo‘lib, katakchalarga kirib turadi va ekish diskı aylanganda yulduzcha ham o‘z o‘qi atrofida erkin aylanadi. Qaytargichni apparatga o‘rnatish oldidan yulduzchaning pastki tishi bilan korpus 6 devorining pastki chetigacha 6 mm o‘lchiim hosil qilish kerak. Bu o‘lcham vint kontrgaykasi bilan quotiriladi. Tushirgich orqali pastga tushgan chigit oraliq korpusning tubidagi ekish darchasidan o‘tib, uya hosil qiluvchi apparatning tubi 9 ga tushadi. Uya hosil qiluvchi parrak 8 ning kurakchalari chigitlarni to‘plab, ostki korpusning darchasi orqali soshnik hosil qilgan egatchaga tashlaydi.

СЧХ-4А -III seyalkasining diskli apparatlarini seruyalab ekishga moslashda uya hosil qiluvchi parrak kurakchalarining biri va ekish diskı 4 ning katakchalaridan biri ekish darchasining old chetiga ro‘para keltirib qo‘yiladi. Apparatni rostlashdan oldin parraklar tanlanadi. Uyaga uchtadan chigit ekish uchun to‘rt kurakchali parrak, to‘rttadan chigit ekish uchun esa sakkiz kurakchali parrak ishlataladi. Mar uyaga ikkitadan chigit tashlab, ulaming orasini 10 sm qilib ekish

uchun sakkiz kurakchali parrak ishlatalidi. Seyalkada apparatlarni harakatga keltiruvchi chap (1.3.4-rasm) va o'ng yuritmalar bor. Bu yuritmalarning yetakchi zvenosi mos ravishda o'ng va chap g'ildirakdan iborat. Ikkala yuritma bir xil tuzilgan. Seyalka harakatlanganda uning chap g'ildiragi yetakchi yulduzcha $Z_j = 45$ va almashtiriladigan yulduzchalar bloki $Z_j = 12$ (yoki 16; 18; 25) orqali yuritmaning chap vali 4 ni aylantiradi.



1.3.4-rasm. СЧХ-4А -III seyalkasi chap yuritmasining kinematik sxemasi:

- 1 - ekish apparati;
- 2 - teleskopik kardanli valik;
- 3 - konusaviy reduktor;
- 4 - yuritmaning chap vali;
- 5 - prujina;
- 6 - qo'sh yelkali richag;
- 7 - rolik;
- 8 - tayanch-harakat uzatuvchi chap g'ildirak.

Yulduzchalar zanjiri qo'sh yelkali richag 6 ning roliklari 7 va prujina 5 bilan taranglashtiriladi. Har qaysi val konusaviy reduktorlar 3 ($Z_3=22$; $Z^*=22$) va teleskopik kardanli val 2 vositasida ikkita ekish apparatini harakatga keltiradi. Ekiladigan chigit uyalarining orasi parrak kurakchalarining va yulduzcha Z_2 tishlarining soniga bog'liq. Apparat ichidagi shesternyalar blokining uzatish soni $Z_j = Z_7/Z_e = Z_s = 1/4$ boiganidan, kurakchalar soni 2, 3, 4, 6 tanlanganda, uyalar orasining qanchaligidan qat'iy nazar, har qaysi uyaga mos ravishda 6, 4, 3, 2 dona chigit tashlanadi.

Ishni bajarish tartibi

1. СЧХ-4А chigit seyalkasi tishli-g‘altakli va diskli apparat-laming konstruksiyasi, ish jarayoni o‘rganiladi.

2. Apparatlarni rostlash prinsiplari va mexanizmlari bilan tanishib chiqiladi.

3. Tishli-g‘altakli apparat belgilangan ekish me’yoriga moslab rostlanadi. Buning uchun ekish darchasini (1.3.1-rasm) ochib-yopadigan plastinaviy to‘smaqopqoq 7 da har 2 mm oraliqda chiziqiar bor va to‘smaqopqoq ana shu chiziqlarga qarab ochiladi yoki kirgiziladi. To‘smaqopqoq to‘la ochilganda plastinadagi oltita chiziqning hammasi ko‘rinib turadi, apparat chigitlami eng katta me’yorda ekadi. Quloqli bolt 9 bolt 10 ning kallagiga burab kirgizilganda to‘smaqopqoq apparatning ichiga kirib, ekish darchasini yopadi va ish unumini kamaytiradi. Prujina 8 to‘smaqopqoqning qayrilgan uchini bolt 10 ning kallagiga qisib, quloqli boltni o‘z-o‘zidan buralib bo‘sashdan saqlaydi va to‘smaqopqoqni belgilangan vaziyatda tutib turadi.

4. Ish unumi harakat uzatish nisbatini o‘zgartirish yo‘li bilan rostlanadigan tishli-g‘altakli apparatlar uchun *i* ning qiymati minimal va maksimal ekish me’yorlari uchun hisoblab topiladi va shularga qarab uzatmadagi almashtiriladigan yulduzchalar Z[^]tanlanadi.

5. Diskli apparatda (1.3.3-rasm) belgilangan ekish me’yoriga moslab aniq ekish uchun va chigitlarning maydalanmasligi va shikastlanmasligi uchun qaytargich holati rostlanadi. Buning uchun qaytargich 11 ning tumshug‘i bilan disk 4 ning orasida 0,5-1,2 mm tirqish bo‘lishi kerak. Bu tirqish qaytargichni apparatga o‘rnalish oldidan kontrgaykali boltni burish yo‘li bilan rostlanadi. Qaytargich 11 korpusining ichida erkin aylanadigan yulduzcha 12 bor, u chigitlar kelayotgan tomonga aylanib, katakchalarga tiqilib qolgan chigitlami pastga ekish darchasi orqali parrak 8 ga tushiradi.

6. Kurakcha va disk katakchalarining o‘zaro joylashuvi apparatlarni soshniklarga o‘matish oldidan rostlanadi. Buning uchun valik 10 ning (1.3.3-rasm) shestemyasi katta shestemyadan ajratiladi, kurakcha ekish darchasining oldingi chetiga ro‘para keltiriladi, oxirgi katakcha esa shundan $20\pm2,0$ mm oldinda joylashtiriladi. Disk 4 ning katakchasi va parrak 8 ning kurakchasi o‘zaro joylashtirilgach, valik

10 ning shestemyasi katta shestemya bilan qayta ilashtiriladi, so'ngra valikning o'zi sharnir 3 ning vilkasiga mahkamlanadi. Oralig korpus 6 apparatning tubiga shunday o'matilishi kerakki, bunda ekish darchasi tashlash darchasiga nisbatan diametral qarama-qarshi tomonda joylashsin.

7. G'altaklarning talab etilgan ish unumi Q_g - ,kg/s quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$Q_g = b v_m N / 10^4, \text{ kg/s},$$

bunda b - qatorlar orasining kengligi, m;

v_m — seyalkaning harakat tezligi, m/s;

N — berilgan ekish me'yori, kg/ga.

Ekish g'altagini konstruktiv ish unumi talab etilgan ish unumiga teng boiishi kerak:

$$Q_g = R n_s \cdot 60 \cdot 10^{-3} - \text{kg/s},$$

bunda n_s - ekish g'altagini aylanish chastotasi, ayl/min;

q — mazkur konstruksiyali g'altak bir marta aylanganda apparatdan olib chiqilgan chigitlar massasi, quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$q = V_g p_n a Z_t, \text{ g/ayl},$$

bunda V_g — g'altakning ikki.tishi orasidagi bo'shliq hajmi, m³;

p_n -chigitning nisbiy zichligi, kg/m³, $p_n = 0,85-0,96 \text{ g/sm}^3$;

Z_t — ekish g'altagi tishlarining soni;

a - tishlar orasidagi bo'shliqlarni chigitlar bilan to'ldirish darajasini hisobga oluvchi koefitsiyent; $a=0,8-0,85$.

Seyalka g'ildiragidan g'altakka harakat beradigan yuritmaning uzatish nisbati quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$i_g = n_g / n, ■$$

bunda n - seyalka g'ildiragining aylanish chastotasi, ayl/min;

n_g — g'altakning aylanish chastotasi, ay/min.

$$i_g = 0,17 C D b N / q^1 (1-s)$$

bunda D - g'ildirak diametri, m;

N -har bir gektarga ekiladigan urug'lar me'yori, kg/ga;

q^1 — amalda 5-6 g/ayl;

$e-m$ seyalka g'ildiragining (apparatga harakat uzatuvchi) sirpanish koefitsiyenti, $s = 0,15-0,30$;

Agarda apparatni tajriba o'tkazish stendiga o'rnatsak unda g'altak stend elektr dvigatelidan harakat oladi. Bu holda

$i_g = \pi dv / n_g$,
 bunda $rich$ - stend elektr dvigatelidan chiqqan valning aylanish chastotasi, $n dv = 46 \text{ min}^{-1}$

n_g — g'altakning aylanish chastotasi, ayl/min.

$$n_g = 6v_m b N / q \quad (1 - f), \text{ ayl/min}$$

8. Zarur o'lchamlar olinib va hisoblanib 1.3.1-jadvalga yoziladi.

0'lchangان va hisoblangan parametrлar

1.3.1-jadval

b , м	v_m , м/с	N , кг/га	$Qg'y$ г/с	Zt , дона	$q >$ г/аул.	n_g , мин ⁻¹	ig
0,6	0,76	40					
0,7	1,05	60					
0,8	1,4	65					
0,9	1,8	80					

Bajarilgan ish bo'yicha hisobot mazmuni

1. СЧХ-4А chigit seyalkasi tishli-g'altakli va diskli apparat larning ta'rifi va tasniflanishining qisqa bayoni.
2. Apparatlarni rostlash bayoni.
3. СЧХ-4А chigit seyalkasi tishli-g'altakli va diskli apparatiar sxemalari, ularning geometrik o'lchamlari.
4. СЧХ-4Л ва СЧХ-4А -III seyalkalar yuritmalarining kinematik sxemalari.
5. Tajriba yo'li bilan olingan va hisoblangan parametrлar jadvali.
6. Xulosa.

Masala. Tukli chigit ekishda ekish me'yori 80 кг/га; seyalkaning harakat tezligi 2,2 м/с; qatorlar orasining kengligi 0,6м. Ekish apparati g'altaklarining talab etilgan ish unumi hisoblab topilsin.

Berilgan: $N = 80 \text{ kg/га}$; $v_m = 2,2 \text{ м/с}$; $b = 0,6\text{м}$.

Masalaning yechilishi: G'altaklarning talab etilgan ish unumi Q_g , кг/с quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$Q_g = b v_m N / 10^4 = 0,6 \cdot 2,2 \cdot 80 / 10^4 = 0,011 \text{ кг/с.}$$

Javob: Tukli chigit ekishda g‘altaklaming taiab etiigan ish unumi 0,011 kg/s.

Nazorat savollari

1. Chigit seyalkalari qanday tasniflanadi?
2. Tukli chigit ekish apparatining konstruksiyasi va texnologik ish jarayoni.
3. Aniq ekuvchi diskli apparatlar konstruksiyasi va ularni rostlash tartibini tushuntiring.
4. Ekish apparatini rostlashda qanday parametrlar hisoblanadi va o‘lchanadi?

1.4. CASE-1200 pnevmatik seyalkasining belgilangan ekin turiga mos uyali diskini tanlash va o‘rnatish

Ishning mazmuni: CASE-1200 pnevmatik seyalkasining konstruksiyasi, texnologik ish jarayonini o‘rganish va belgilangan ekin turiga mos uyali diskini tanlash va o‘matish.

Kerakli uskunalar va jihozlar: CASE-1200 pnevmatik seyalkastend, pnevmatik ekish apparatlari, ularning ishchi organlari, plakatlar, chizmalar, o‘quv adabiyotlari, o‘lhash asboblari to‘plami.

Ish hajmi: laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtiga ya 1 soat mustaqil ishslashga mo‘ljallangan.

Umumiy ma’lumotlar

“Universal pnevmatik aniq ekadigan CASE-1200 seyalkasi kalibrlangan tuksizlantirilgan chigit, makkajo‘xori, jo‘xori, qand lavlagi, kungaboqar, yeryong‘oq va don dukkakli ekinlarni aniq belgilangan sonda uyalarga (60 sm, 90 sm, 100 sm va undan ortiq) qator oralariga ekish va yerga kerakli miqdorda mineral o‘g‘itlarni solishga moijallangan. Seyalka uch nuqtali osish tizimi bilan jihozlangan bo‘lib MX Magnum, STX Steiger, NEW HOLLAND traktorlar bilan agregatlanadi.”⁷

⁷ CASE 1H hanging seeder series 1200. Operation text-book. © 2003 Case, LLC Rac 6-3505

CASE-1200 seyalkasining asosiy texnikaviy tavsiflari

- ◆ ishchi tezlik - 6,8-12,8 km/soat
- ◆ ekiladigan qatorlamaing oralig'i - 600, 914, 965, 1016 mm
- * ekish chuqurligi - 0-102 mm
- Φ ekish me'yori (chigit uchun) - 4200 - 6300 dona / ga
- ekish apparatlari/o'g'itlash apparatlari soni - 8/8
- ◆ pnevmotizimdagи siyraklik - 16-25 mm suv ustuni
- * massa - 2942 kg


CASE-1200 pnevmatik seyalkasi (1.4.1-rasm) resurs tejamkor (nolinchi, minimal) texnologiyada ishlataladigan mashinalar tizimiga kiradi. Bu texnologiyaning asosiy ko'rsatkichi - tuproqqa ishlov berishda plugdan har yili foydalanmaslikdir.

"Shu sababli bir nechta texnologik operatsiyalarni agregatning bir yurishida bajarib, tuproq zichlanishining oldini olish maqsadga muvofiqdir. Nolinchi texnologiya - shudgorlamasdan ekish yoki bevosita ekish ham deyiladi. Bu usulda dalaga 25% gagina mexanik ishlov beriladi, qolgan joydagi begona o'tlar gerbitsid yordamida yo'qotiladi, natijada tuproqni ekinlar ekish uchun tayyorlashga sarflanadigan katta mablag'lar tejaladi, yer unumдорligi ortadi va hosildorlik oshadi."⁸

Universal display AFS yoki qadash kontrollyoriga ega bo'lgan Early Riser II markyor tekshirish tizimi, urug'larning ekish qalinligi va tigizligini boshqaradi hamda ekish chuqurligini (yuqori yoki pastligini) nazorat qiladi. Tanlangan display orqali diskning nisbiy tezligi, qator bloklariga urug'lar yetkazilishi va ekish apparati bunkerining to'lish darajasi boshqariladi.

So'ruvchi ventilatorning havo oqimi tezligini ekiladigan urug'larning turiga qarab o'zgartirish mumkin. Ventilator havo oqimi tezligini cheklash uchun (13 gallon/minut dan oshmasligi kerak) integral cheklagich bilan va erkin harakat klapani bilan jihozlangan.

⁸ G. Crutz. Design of agricultural machinery. . Published in New York by Willey, 2004




1.4.1-rasm. CASE-1200 pnevmatik seyalkaning ekish seksiysi sxemasi:

/-cheklovchi g'ildirak; 2-bunker; 3-paralellogrammlki osish mexanizmi; 4-ekish apparati; J-chuqurlikni rostlash richagi; 6-urug' kamerasi; 7-kronshteyn; 5-skoba; 9-gryadil; 10-soshnik; /Y-diskli pichoq; 12-rama; 13-quvurcha; 14-zichlash g'ildiragi; 15-ko'mgichlar

Uryg' qardash qalinligi va tigizligi, granullangan ximikatlarning sepilishi nazorat qilinadi va yuritmalar bilan boshqariladi. Seyalka ish va salt holati traktorning uch nuqtali o'rnatish tizimi orqali boshqariladi. Seyalkaga yordamchi gildiraklar o'rnatilgan va ularning ko'tarilishi uchta nuqtada mahkamlangan qurilma orqali gidravlik tarzda traktor kabinasidan boshqariladi. Urug'larni me'yorlash vakuum tizimi va seyalka markerini ko'tarish-tushirish gidravlik tizimi orqali traktordan boshqariladi. Traktor bilan agregatlash uchun seyalka komplekti gidravlik tirkash mexanizmi bor.

Seyalkaning ish jarayoni. "Pog'ona bo'lib (shaxmat tartibida) joylashgan (356 mm)li ikki diskli yer keskich-yumshatkich (1.4.2-rasm)tor egatni ochadi. Yetaklovchi disk begona o'tlarni ustidan egat oson kesadi. Diskli yer keskich-yumshatkichlar nam tuproqni yuzaga tortganligi bois, o'lchov g'ildiraklari ushbu tuproqni yig'adi va uni egatning har bir tomoni chetiga tashlaydi. Pog'onali joylashgan disklar urug'lar uchun ma'lumi chuqurlikda V simon egat ochib

beradi, bunday turdag'i egatlar urug'ni yaxshi saqlaydi hamda namlik bilan ta'minlaydi.⁹



1.4.2-rasm. CASE-1200 pnevmatik seyalkaning texnologik ish jarayoni sxemasi:


- 1 - yerni kesish va tor egat ochish; 2 - egat ochish; 3 - egat tubini zichlash;
- 4 - urug' o'tkazish; 5 - urug'lami ko'mish; 6 - tuproqni zichlash.

Egat chuqurligi o'lchash gildiragining o'matish richagi bilan o'zgartiriladi. Urug' qadaladigan chuqurlikni o'zgartirishda qator bloki uchun faqat bitta to'g'rilash talab etiladi. Urug'lar egat tubiga urug' kolodkasi orqali ekiladi. Ekilgan urug'lar shaxmat tartibida joylashgan diskli soshniklar yordamida tuproq bilan ko'miladi. Mayjud konstruksiyali soshnik ishlov berilmagan va minimal ishlov berilgan tuproqlarda ochadigan egatning devorlarini ag'darmaslik uchun va tuproqning namligini yo'qotmaslik uchun ham foydalaniлади. Disklar prujinalar bilan bostirilgan. Namlikni yo'qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun markaziy tig'ga ega bo'lgan molacha o'rnatilgan. Urug'lar egat tubiga maxsus urug' kolodka yordamida ekiladi. Disklar tuproqqa kam ishlov berilgan sharoitlarda, toshli va ishlov berilmagan yerdarda tiqilib qolishga yo'l qo'ymasligi uchun pog'ona (shaxmat) tartibida joylashgan. Qishloq xo'jaligi ekinining luriga qarab urug' saralash diskini tanlanadi.

Ekish diskini tanlash uchun urug'lar dozatorini o'rnatish sxemasi, urug'lar orasidagi masofa va urug'larning parametrlarini e'tiborga ol ish kerak. Ekish diskining belgisi teshiklar soni va teshik diametrini ko'rsatadi. Masalan, 4855 diskda 48 ta teshik mavjud va har bir

⁹ CASI: III hanging seeder series 1200. Operation text-book. © 2003 Case, LLC Rac 6-3505

teshikning diametri 5,5 mm ga teng. Ortiqcha urug'ning o'tib ketishiga va ezilishiga yoi qo'ymaslikni nazorat qilish uchun maxsus moslama (singulyator) 2 xizmat qiladi (1.4.3-rasm).



1.4.3-rasm. Ekish apparatining urug' kamerasi sxemasi:

- 1 - to'zitkich; 2 - singulator; 3 - urug'lar; 4 - apparat vali;
- 5 - o'rnatma kronshteyn; 6 - g'altak; 7 - ajratuvchi to'siq richagi;
- 8 - shkala; 9 - bukilgan cho'tka; 10 - to'g'ri cho'tka;
- 11 - korpus; 12 - yo'naltirgich; 13 - ajratuvchi to'siq.

"Uzatmalar qutisi harakatni asosiy yetakchi valdan ekish apparatining yetaklanuvchi valiga o'tkazadi. Uzatmalar qutisidagi yulduzchalami talab etilgan ekish me'yori bo'yicha rostlash uchun o'zgartirish mumkin. Barcha ekish me'yorlariga ko'ra yulduzchalarning turli kombinatsiyalari talab etiladi. i-raqainli yulduzchalar to'plami va zanjirli yuritma harakatni asosiy yetakchi valdan yetaklanuvchi disk valiga uzatadi. Yulduzchalar (shesternyalar) transmissiyaning chap tomonida joylashgan. 2-raqamli yulduzchalar yetaklanuvchi validan dozator yuritmasining valiga harakat uzatadi. Yulduzchalar transmissiyaning o'ng tomonida joylashgan."¹⁰

¹⁰ CASE III banging seeder series 1200. Operation text-book. © 2003 Case, LLC Rac 6-3505

CASE-1200 apparatning belgilangan ekish me'yoriga sozlash uchun parametrlari (makkajo'xori)

1.4.1-jadval

Var. raq.	Uzatma yulduzchalari tishlarining soni				Apparat yurit- masi uzatish nisbati	Qatorlar ekish me'yori, dona/ga		
	Ye- takchi g'il- dirak Ivalida	Yetak- lanuv- chi Ivalida	Yetak- chi 2valida	YetakJa- nuv- chi 2valida		60 sm	90 sm	100 sm
1	21	17				211506	138747	124872
2	21	17				162920	106951	96256
3	21	24				149745	98279	88451
4	21	24				137741	90417	81375
5	21	24				127616	83719	75347
6	21	24				12001	80729	72656
7	21	30				119818	78623	70761
8	21	30				110229	72333	65100
9	21	36				95675	62789	56511
10	21	36				91878	60278	54250

CASE-1200 rusumli pnevmatik seyalkani rostlash

1.Ekish miqdori ga rostlash. Buning uchun ekish apparatining diskini tanlanadi. Urug' ekish diskini tanlashda urug'larni sath ko'rsatkich o'lchash jihoziga va urug'lar orasidagi masofaga e'tibor berish kerak.

2.Seyalkaning ekish chuqurligini rostlash. Diskli soshniklar hosil qilgan egat chuqurligi - shtangadagi prujinalar tarangligini o'zgartirib rostlanadi. Prujinaning tarangligini rostlash uchun shtangadagi shaybalar siljitaladi. Hamma soshniklarning prujinalari bir meyorda siqladi.

3.Sirpanma soshniklarda sifangi soshnikning stoykasiga biriktiriladi. Stoyka rifellangan bo'lib, ekish chuqurligini rostlash imkonini beradi. Rostlash chegaralari - 3-6 sm.

4. Markyorlarni rostlash.
5. Yurituvchi zanjirlarning tarangligini rostlash.
6. Kimyoviy moddalami sepish jihozlarini rostlash.
7. Ekinlar va o‘g‘itlar qatorlari oralig‘ini rostlash.
8. O‘g‘it solish chuqurligini rostlash.
9. O‘g‘it solish miqdorini rostlash.
10. So‘rvuchi ventilyatorning havo oqimi tezligini ekiladigan urug‘laming turiga qarab rostlash.

Ishni bajarish tartibi

1. Ekish apparati bunkeri yechiladi.
2. Asosiy vakuum shlangi yechiladi va vakuummetr provodkasi vakuum kamerasidan ajratiladi.
3. Sirtmoqlar bo‘laklanadi va vakuum kamera korpusining kojuxi yechiladi. Vakuum kamera korpusining kojuxi orqa sirti yuzasida joylashgan yeyilish indikatorlari yeyilishga va deformasiyaga vizual ko‘rinishda tekshiriladi. Zarur holda kojux almashtiriladi.
4. Ekish diskii ilgakli shtir yordamida apparat korpusidan ajratiladi va diskning yuzasida joylashgan yeyilish indikatorlari yeyilishga, diskdagi teshiklari adgezion g‘adir-budurliklarga tekshiriladi. Zarur holda disk almashtiriladi.
5. Ortiqcha urug‘ning o‘tib ketishiga va ezilishiga yo‘l qo‘ymaslikni nazorat qilish uchun maxsus moslama (singulator) tekshiriladi. Singulatoming 3 ta g‘altaklari o‘rnatish richaglarida erkin aylana bo‘ylab harakatlanishi kerak. Singulatoming richaglari pastga va tepaga siljishi va disk yuzasi bilan doimiy kontaktda bo‘lganligi tekshiriladi.
6. O‘matish sxema bo‘yicha singulatoming shkalasi tavsiya etilgan holatga keltiriladi.
7. To‘zitkich yechiladi, yeyilishga va deformasiyaga tekshiriladi.
8. Egilgan va to‘g‘ri cho‘tkalaming holati va tutashganligi tekshiriladi.
9. To‘zitkich valga o‘rnatiladi va soat strelkasi aylanish yo‘nalishiga qarab aylantiriladi.

10. Zarur bo‘lgan disk valga o‘rnatiladi va uning teshiklari singulatorga nisbatan to‘g‘ri joylashganligi tekshiriladi. Ilgakli shtir yordamida disk apparat korpusiga qotiriladi.

11. Ajratuvchi to‘sinq richagi ekish me’yoriga moslab o‘matiladi.

12. Vakuum kamera korpusining kojuxi o‘matiladi va ilmoqlari biriktiriladi.

13. Bosh vakuum shlangi va vakuummetr provodkasi vakuum kameraga biriktiriladi.

14. Ekish apparatining bunkeri o‘rnatiladi.

15. Ekish diskining aylanish tezligi 1.4.1-jadval asosida va urug‘lar tavsifi asosida aniqlanadi (12-60 ayl/min).

16. Zarur o‘lehamlar olinadi va 1.4.2-jadval to‘ldiriladi

0‘lchangan va hisoblangan parametrlar

1.4.2-jadval

Ekinning turi	Ekilgan uruglar orasi, sm	Ekish chuqurligini rostlash shkaia bo‘linmasi	Ekish diskning nomeri	Singulyat or shkala bo‘linmasi	Ekish tezligi, km/soat	Ekish diskining parametrlari, sm

Bajarilgan ish bo'yicha hisobot mazmuni

1. CASE-1200 seyalkasining ta’rifi va texnologik ish jarayoni bayoni.

2. Ekish apparatining konstruksiyasi, prinsipial sxemasi, ish jarayoni bayoni.

3. CASE-1200 seyalkasini ekish me’yoriga rostlash ma’lumotlari bayoni.

4. Seyalka yuritmasining kinematik sxemasi.

5. Tajriba yo‘li bilan olingan va hisoblangan parametrlar jadvali.

6. Xulosa.

Nazorat savollari

1. Pnevmatik seyalkalar qanday tuzilgan va ular qanday ishlaydi?
2. Dalaga chiqishdan oldin qanday rostlash ishlari bajariladi?

3. Pnevmatik seyalkalaming asosiy parametrlari nimadan iborat?

1.5. Seyalkani belgilangan qatorlar oralig‘iga va soshniklarini belgilangan ekish chuqurligiga o‘rnatish

Ishning mazmuni: Seyalkani belgilangan qatorlar oralig‘iga va soshniklarini belgilangan ekish chuqurligiga o‘rnatish.

Kerakli uskunalar va jihozlar: pnevmatik seyalka, don seyalkasi, traktor, soshniklar va ko‘mgichlar mexanizmlarining demonstratsion stendi, o‘lhash taxtasi, plakatlar, o‘quv adabiyotlari, chilangarlik va o‘lhash asboblari to‘plami.

Ish hajmi: laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtiga va 1 soat mustaqil ishlashga mo‘ljallangan.

Umumiy ma’lumotlar

“Ishlayotgan seyalka urug‘lami oldindan belgilangan tartibda qatorlab ekib ketadi. Bu tartib qatordagi urugiar uyalari oralig‘i, yondosh qatorlar oralig‘ining kengligi va urag‘lami ko‘mish chuqurligi kabi ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq.”¹¹ Soshnik tayinlangan chuqurlikdagi egatchani qazib, urug‘o‘tkazgichdan tushayotgan urug‘larni egatcha tubiga yotqizadi va mayin tuproq bilan qisman ko‘madi. Bulardan tashqari, soshniklarning vazifasiga qarab qo‘sishma talablar qo‘yiladi. Ekish chuqurligini ravon rostlashga imkon berishi, tuproqqa solishtirma bozimi tufayli tuproq ortiqcha ezilmaydigan bo‘lishi, tuproq changimasligi lozim, shuningdek bu bosim tuproq holatiga qarab oson rostlanishi kerak. Soshnikning osish mehanizmi soshnik pichog‘ining tuproqqa botish burchagini bir xil saqlashi, uning dala mikroreleyefiga moslanib harakatlanishini ta’minlashi; soshnikning to‘gri chiziq bo‘ylab ekishini, vertikal hamda gorizontal tekisliklarda barqaror harakatlanishini ta’minlashi losim.

Soshniklar tuproqqa ta’sir etish usuliga qarab tuproqqa botish burchagi o‘tmas, to‘gri va o‘tkir burchakli soshniklarga bo‘linadi.

¹¹ Engineering principles of agricultural machines 2nd Edition. Ajit K.Srivastava. Michigan State University and others. Copyright © 2012 by the American Society of Agricultural and Biological Engineers.

Tuproqqa o'tmas burchak bilan botuvchi soshniklarga diskli, sirpanma va kilsimon soshniklar kiradi. Bular ishlaganda tuproqni yuqoridan pastga bosib, kesak va o'simlik qoldiqlarini qirqadi, tuproqni hamda egat tubini biroz zichlaydi. Tuproqqa to'g'ri burchak bilan botuvchi soshniklar (naralnikli trubalar) tuproqni ikki tomonga kerib, egat hosil qiladi. O'tkir burchaklilarga naralnikli, ankerli va panjali soshniklar kiradi. Bular egat hosil qilishda tuproqni pastdan yuqoriga siljitib, egatcha tubini yumshatadi va doim tuproqqa chuqurlanishga intiladi.

Markyor ekish aggregatini doim birinchi yo'liga parallel to'g'ri chiziq bo'ylab yo'naltirish, yondosh qatorlar orasining asosiy qatorlar orasiga teng yoki belgilangan kenglikda bo'lishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Agregatning borib-kelib yonma-yon o'tishida chetki soshnik hosil qilgan qatorlar orasi yondosh qatorlar orasi deyiladi. Ramaga osilgan soshniklar o'rtasidagi masofa asosiy qatorlar orasi deb ataladi. Odatda g'o'zalarga ishlov beradigan va hosilni yig'adigan mashinalar seyalka izidan yurishi lozim. Seyalka izini oson topish uchun yondosh qatorlar orasi asosiy qatorlar orasidan 5-7 sm kengroq yoki torroq qilinadi.

Markyor seyalka ramasiga shamirli biriktirilgan shtanga va uning uchiga podshipnikda o'rnatilgan diametri 250-300mm li sferik diskdan iborat. Disk harakat yo'nalishiga 15° - 20° burchak hosil qilib o'rnatiladi. To'rt g'ildirakli traktor bilan ishlaganda markyor izidan traktoming doim o'ng g'ildiragi yo'naltiriladi. To'rt g'ildirakli traktor ishlatilganda (1.5.1 ,rasm.) o'ng markyor qulochi:


$$= /o \cdot Bag \sim Cl \ k\sigma; m,$$

chap markyor qulochi:

$$= Ich \sim Bag \sim C2 \sim k_p TCI,$$

bunda Bag - aggregatning qamrash kengligi, m; cj — traktor bo'ylama o'qidan o'ng markyorgacha masofa, m; c_2 — traktor bo'ylama o'qidan chap markyorgacha masofa, m; k_p — tanlab olingan orientirdan traktor bo'ylama o'qigacha masofa, m.

Uch g'ildirakli traktor ishlatilganda o'ng va chap markyorlar qulochi bir-biriga teng, $/_0 = l_c h$ ■



1.5.1.-rasm. Seyalka markyorining qulochini aniqlash sxemasi:
 1; 2 - o'ng va chap markyorlar izi; 3 - markyor; 4 - seyalka;
 5 - traktor.


Markyor qulochi deb, chetki soshnik markazidan sferik diskning pastki tagigacha bo'lgan masofa aytildi. Markyor gidrotsilindr bilan ko'tariladi va ish holatiga tushiriladi. Gidrotsilindr shtokiga ta'sir etuvchi P kuchni aniqlash uchun markyor va ko'tarish mexanizmi masshtabda chiziladi (1.5.2.-rasm.).

Chizmadan gidrotsilindr shtokiga ta'sir etuvchi kuch aniqlanadi:

$$P = \frac{l^I M g}{l}, \text{ H,}$$

bunda M - markyor massasi, kg.

Seyalkani qatorlar oralig'iga va soshniklarini ekish chuqurligiga. O'rnatish vazifasiga soshniklami ramada belgilangan ekish shemasiga mos joylashtirish va markyor uzunligini hisoblash va o'rnatish kiradi.



1.5.2.-rasm. Markyorni ko‘tarishda gidrotsilindr shtokiga ta’sir etuvchi kuchni aniqlash sxemasi

Ishni bajarish tartibi

1. Diskli soshniklarni o‘matishdan oldin disk qotirilishini rostlaniadi, disk qo‘ldan 5kg kuch bilan aylantirilganda aylanishi kerak. Disk katta kuch bilan qotirilgan (aylanishi tarangiagan) bo‘lsa ichki va tashqi konuslari orasiga qo‘srimcha rostlash shaybasi qo‘yiladi, disk aylanishi erkin bo‘lsa, shaybalaming soni kamaytiriladi.

2. Seyalkada joylashtirilgan soshniklar soni aniqlanadi. Buning uchun ikkita chetda joylashgan soshniklarining mahkamlash skobalarini bo‘shatib, soshniklar o‘ng va chap tomoniga suriladi. Chetda joylashgan soshniklarning mahkamlash skobalari oralig‘i L_b o‘lchanadi va o‘lchanigan masofa qatorlar oralig‘i b ga bo‘linadi. Qatorlab va keng qatorlab ekish uchun:

$$\frac{L_b}{b} = m' + n,$$

bunda m' - qatorlar soni (butun son); n - bo‘lishning kasrli qismi. Soshniklarning soni: $m = m' + 1$.

Tasmasimon ekishda qatorlar soni m'' (tasmalar oralig‘i) quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\frac{L_b - (m_s - 1)b_s}{b_t} = m'' + \eta,$$

bunda m_s - tasmada satrlar soni; b_s - tasmada satrlar oralig‘i, sm; b_t - tasmalar oralig‘i, sm.

Tasmasimon ekishda brusga o‘rnatilgan soshniklar soni:

$$m = (m'' + 1)m_s$$

3. 0‘matma taxta chizib olinadi. Uzunligi $Lb+$ (5-10) sm b‘olgan taxtaning o‘rtacha chizig‘i chiziladi. Agarda soshniklar yo‘ki tasmalar soni juft bo‘lsa o‘rtacha chiziqdan chap va o‘ng tomonlariga qatorlar oralig‘i masofasidan /2 o‘lchami, tasmali ekishda tasmalar oralig‘ining V_2 o‘lchami belgilanadi, keyin esa belgilangan nuqtalardan yaxlit qatorlar oralig‘i masofasi belgilanadi. Soshniklar soni toq bo‘lsa, o‘rtacha chiziqdan chap va o‘ng tomonlariga qatorlar oralig‘i yaxlit masofasi belgilanadi. Tasmasimon ekishda hosil boigan chiziqlar tasmalaming oralig‘ini belgilaydi. Satrlarni chizish uchun (agarda tasmalar satrlari juft bo‘lsa) tasmalar o‘rtasidan chap va o‘ng tomonga Vi b_i , masofasiga chetga chiqiladi, agarda toq bo‘lsa b_i masofasiga chetga chiqiladi va satrlar chiziqlari chiziladi.

4. 0‘matish taxtasi chizib olingandan so‘ng, taxta seyalka g‘ildiraklari o‘rtasiga o‘matiladi, taxta o‘rtasi seyalka o‘rtasiga mos kelishi kerak. Soshniklar ish holatiga keltiriladi va belgilangan chiziqlar bo‘ylab joyiashtiriladi. Ortiqcha ekish apparatlari tiqin yordamida yopiladi. Urug‘ o‘tkazgichlar va soshniklarni ko‘tarish tortqlari yechiladi.

5. Berilgan va hisoblangan parametrlar asosida markyor uzunligini aniqlash sxemasi chiziladi. Markyor uzunligini aniqlash uchun:

a) traktordan orientir tanlab olinadi. Orientir sifatida g‘ildirakning rebordasi, yoki zanjiming tashqi qirg‘og‘i olinadi;

b) talab qilingan ekish agregati 3 ta yonma - yon o‘tishining (I ; II ; III) prinsipial sxemasi chiziladi (1.5.1-rasm.). Agregatning oldingi o‘tishdagi markyor chizig‘i aggregatning keyingi o‘tishda tanlab olingan orientirga mos kelishi kerak;

d) 1.5.1.-rasmda keltirilgan sxemaga oid o‘ng markyor uzunligini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$lo\pi ng Bag Cl ko, m,$$

bunda B_{ag} - aggregatning qamrash kengligi, m; ci - traktorning bo‘ylama o‘qidan o‘ng markyor o‘qigacha masifa, m; ko - traktorning bo‘ylama o‘qidan tanlab olingan orientirgacha masifa, m. Chap markyor uzunligini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$I chap Bag-C 2 ko, \Gamma\Pi,$$

bunda $C2$ — traktorning bo‘ylama o‘qidan chap markyor o‘qigacha masifa, m.

Markyor uzunligi berilgan yondosh qatorlar oralig‘iga teng bo‘lishi kerak, aks holda markyor uzunligi o‘zgariladi. Markyor uzunligi disk o‘qini shtanga bo‘ylab cho‘zib olish orqali o‘zgartiriladi.

Seyalkalarining berilgan va o‘lchangan parametrlari

1.5.1-jadval

Ekish usullari	Bagi III	b; ms/b _s /bi, sm	M, kg	c ₁ , m	c ₂ , m	k _O , m	L _b , sm	m	P, H
Qatorlab	3,6	15	•14,53						
		7,5							
Keng qatorlab	3,6-4,2	45	12,24						
		60							
		90							
Tasmasimon	4,2-5,4	2/8/ 62	11,44						
		3/32 /76							

6. Seyalka soshniklarini belgilangan ekish chuqurligiga o‘matish, Urugiarni joilashtirish va ko‘mish chuqurligi tuproqning fizik - mexanik xususiyatlaridan, tuproqning holatidan ekin urug‘larining xususiyatlaridan iborat. Don ekinlari urug‘larining ekish chuqurligi 2-15 sm gacha o‘zgariladi. Ekish sifati ravonligi urug‘lami ekish ravonligi bilan aniqlanadi. O‘lchangan o‘rtta arifmetik ko‘mish chuqurligining farqi ruxsat etiladi:

3-4 sm ko‘mish chuqurligida - ±0,5 sm;

4-5 sm ko‘mish chuqurligida - ± 0,7 sm;

6-8 sm ko‘mish chuqurligida - ± 1,0 sm.


Soshniklarni belgilangan ko‘mish chuqurligiga o‘matish uchun quyidagi operatsiyalar bajariladi:

a) soshniklar ishchi holatga tushiriladi;

b) soshniklar belgilangan ekish chuqurligiga rostlanadi.

7. Soshnik izining chuqurligi og‘irlik yukchalarining og‘irligini o‘zgartirish yo‘li bilan, ankerli soshniklarni tuproqqa botish

burchaklarini rostlash yoii bilan, diskli soshniklar tortqisi (5 - 6) da M-turli B tirygagining o'rnatish joyini ozgartirish bilan bir vaqtda ko'tarish - bosish mexanizmi shturvalining holatini o'zgartirish yo'li bilan rostlanadi (1.5.3.-rasm.). Dala relyefmi kopirlash uchun ikkita oxirgi rostlashlar shunday bajarilishi kerakki, belgilangan soshnik izining chuqurligi soshnik tortqisi 5-6 bilan ko'tarish - bosish vilkasi tiragi orasidagi tirkish 6-7 sm bo'lishi kerak.




1.5.3.-rasm. Seyalka diskli soshnigining ko'tarish-bosish mexanizmi sxemasi:

Y-2-avtomat krivoshipi; 2-5-shatun; 3-4-5-shatun richagi; 5-6-soshnik tortqisi; 6-7-soshnikni yetaklash tortqisi; JI-rostlagich maxovigi; 5-M-turli tirak.

Sabzavot seyalkalar cheklovchi rebordali ikki diskli soshnik bilan va zichlovchi g'altakchalar bilan jihozlangan (1.5.4.-rasm). G'altakchalar 1 diskga shamir yordamida biriktirilgan va tuproqqa prujina 2 bilan bosilib turilgan.

Berilgan urug'larning ko'mish chuqurligi ko'tarish-bosish mexanizmi va rebordalar diametrini o'zgartirish yo'li bilan o'matiladi. Soshnikni talab etilgan urug'larning ko'mish chuqurligiga o'rnatish uchun boltlar 4 tushiriladi, reborda kerakli diametrgacha tortiladi, ugolnik 3 ning teshiklariga boltlar kiritiladi va skoba 6 ga

qotirilndi. Tuproq zichligining darajasi prujina 2 ning tarangligi yordamida o'zgartiriladi.



1.5.3.-rasm. Sabzavot seyalkaning cheklovchi rebordali ikki diskli soshnik:

— 1 /iciliovchi g'altaklar; 2-bosish prujinasi; 3-burchakecha; 4-bolt; 5-cheklovchi reborda; 6-skoba; 7-tozalagich

8. Zarur o'lchamlar olinadi va 1.5.2-jadval to'ldiriladi

Hisoblangan parametrlar

1.5.2-jadval

<i>m</i>	<i>m¹</i>	<i>lo'ng, ГП</i>	<i>I chap, m</i>	<i>mⁿ</i>

Bajarilgan ish bo'yicha hisobot mazmuni

1. Seyalkalar markyorlarining vazifasi va konstruktsiyasi bayoni.
2. Soshniklarning konstruktiviyasi, prinsipial sxemasi, ish jarayoni bayoni.
3. Soshniklarni belgilangan ekish chuqurligiga o'rnatish ma'lumotlari bayoni.
4. Seyalkani belgilangan qatorlar oralig'iga rostlash bayoni.
5. Tajriba yo'li bilan olingan va hisoblangan parametrlar jadvali.
6. Markyor uzunligini aniqlash sxemasi.
7. Xulosa.

1.6. Qoshiqchali - diskli ekish apparati bilan o'tqazi!gan kartoshka tuganaklarining bir me'yorda taqsimlanishini baholash

Ishning mazmuni: qoshiqchali - diskli ekish apparati bilan o'tqazilgan kartoshka tuganaklarining bir me'yorda taqsimlanishini baholash.

Kerakli uskunalar va jihozlar: KC-2,4 kartoshka ekish mashinasi laboratoriya stendi, qoshiqchali - diskli ekish apparati maketi, diametri 30, 40, 50, 60 mm li yog'ochli shariklar, plakatlar, o'quv adabiyotlari, chilangarlik va oichash asboblari to'plami.

Ish hajmi: laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtiga va 1 soat mustaqil ishslashga moljallangan.

Umumiy ma'lumotlar

Qoshiqchali-diskli ekish apparatlarining texnologik ish jarayoni 3 ta ketma-ket fazalardan iborat:

qoshiqcha ta'minlovchi bunkerda joylashgan kartoshka qatlamiga kirgan paytda tuganaklami tutish;

tuganakni qoshiqchada qisqich yordamida fiksatsiya qilish va soshnikning qabul qiluvchi birikmasiga uzatish tuganakni qisqichdan bo'shatish, soshnik va ochilgan egatga transportlashtirish.

Bu texnologik ish jarayoni 3 ta fazalari disk bir marta aylanganda bajariladi. Qoshiqcha ta'minlovchi bunkerda joylashgan kartoshka qatlamiga kirgan paytda tuganaklarni tutish tuganaklaming o'lchamlaridan, diskli apparatning aylanish chastotasidan, ta'minlovchi bunkerda joylashgan kartoshka qatlaming qalinligidan, ta'minlovchi bunker yon devori bilan qoshiqchaning orasidagi tirkish masofasidan va h.k.


Qatorlab ekishda diskning aylanish chastotasi, min⁻¹,

$$n = 60Xv_m/sXz, \quad (1.6.1)$$

bunda v_m — mashina tezligi, m/s; s - tuganaklaming orasi, m; z - diskdagi qoshiqchalar soni.

Bu ifodadan mashinananing ilgarilanma tezligi oshirilganda diskning aylanish chastotasi oshirishini ko'rish mumkin. Bunday holat tuganaklarni ilib olish imkoniyatini yomonlanishiga va ularni

markazdan qochirma kuchi ta'sirida qoshiqcha dan tushib qolishiga keltiliradi. Agarda tuganak qoshiqchaning yon sirti bo'ylab joylashmasa, tuganaklar qoshiqchaning tashqi qirrasiga nisbatan tushib qolish imkoniyatiga ega (.A nuqta, 1.6.1 .-rasm.).



1.6.1.-rasm. Qoshiqchali - diskli apparatning burchak tezligini asoslab tanlash sxemasi

Tuganakga quyidagi kuchlar ta'sir etadi:

$\text{I}^2 m X a >^2 XR$ - markazdan qochirma inersiya kuchi;

N normal kuch;

I^2 qo.sliiqlialaming urunma reaksiyasi (ishqalanish kuchi).

I'tigannkiiing turg'unlik shaiti:

$$tnXf'Xli[m x o)l x h/XRi, \quad (1.6.2)$$

bunda m -tuganakning massasi, g.; h , hi - tuganak markazidan A nuqttagacha masofa, mm.; $\angle o$ - diskning burchak tezligi, s^{-1} ; Ri - qoshiqcha qirrasidan (A nuqta) diskning aylanish markazigacha masofa, mm.

Diskning chegaraviy burchak tezligi, s^{-1} ,

$$\omega_1 = \sqrt{\frac{g \times tg \mu_1}{R_1}} ; \quad (1.6.3)$$

bunda $t g \frac{1}{x} = h / hi$; $\alpha_r = 14^\circ - 20^\circ$ - keltirilgan to'ntarilish burchagi.

Qachonki tuganak qoshiqchaning chetiga (B nuqta) tushib qolsa, uning qaydlanishi (fiksatsiya) qilishi yuz beradi. Tuganakning qoshiqchada barqarorlik sharti quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi

$$mxgxh \leq rn X o | x/r_2 x R_2, \quad (1.6.4)$$

bundan

$$\omega_2 \geq \sqrt{\frac{g \times tg \mu_2}{R_2}}; \quad (1.6.5)$$

bunda $u_2 = Ht$, R_2 - qoshiqchaning qirrasidan diskning aylanish markazigacha masofa (B nuqta), mm.


Chegaraviy burchak tezligi sifatida burchak tezligining kichik qiymati olinadi. Agarda kartoshka tuganaklari ilib olish, transportlash va tushirish jarayonida qoshiqchaning yon sirti bo'ylab joylashgan bo'lsa, burchak tezligini oshirish mumkin. Bo'shab qolgan qoshiqchaning qisqichi ochilish jarayoni ma'lum bir vaqt davomida o'tadi, bu vaqt davomida disk ayrim yoy chizib oladi. Agar qoshiqchani ichida mayda tuganak joylashgan bo'lsa, u qisqichdan bu yoyning boshida bo'shaydi, agarda yirik tuganak joylashgan bo'lsa - yoyning oxirida (1.6.2.a-rasm.). Bu momentlarning yoy bo'ylab orasidagi masofa Ay burchak bilan tavsiflanadi (1.6.2.b-rasm.).

Mayda tuganaklarning tushish balandligi Hi va yirik tuganaklarning #2 ma'lum bo'lsa, tuganaklarning Hi balandligidan egatga tushish vaqt farqi At ni aniqlash mumkin. Mayda va yirik tuganaklarning egatga tushish vaqt, s,

$$t_1 = \frac{\sqrt{v_0^2 + 2gH_1} - v_0}{g} \quad (1.6.6)$$

$$t_2 = \frac{\sqrt{v_0^2 + 2gH_1} - v_0}{g} + \frac{H_1 + H_2}{v_0}, \quad (1.6.7)$$

bunda $v_0 = co x R_0$ - tuganaklarning boshlang'ich tezligi, qoshiqcha markaziy nuqtasining aylanish tezligi, m/s.



1.6.2.-rasm. Qoshiqcha qisqichning ochilish protsessi sxemasi:

a-tuganaklar qoshiqchalardan tushish sxemasi; 6-tuganaklar tushish balandligini aniqlash sxemasi; C-cheklagichdan qoshiqchani mahkamlash nuqtasigacha masofa; Δ; va Δ -cheklagichgacha urinish boshida va tuganak tushish momentilarida qisqich bilan gorizontal orasidagi burchakiar; ю-diskning aylanish burchak tezligi.

Bu ifodalarda quyidagi joizliklar qabul qilingan: tuganaklar qoshiqchaning o‘rtasidan R_0' radiusda joylashgan nuqtadan ajraladi. $R_0' = 0,5 (R_j + R_2)$, boshlang‘ich tezligining vektori vertikal pastga yonaltirilgan, chunki H_1 dan H_2 gacha g doira yoyining masofasi H_1 - H_2 ga teng.

Tuganak egatchaga tushish vaqtining farqi, s,

$$At = t_1 - t_2. \quad (1.6.8)$$

Bu vaqtning ichida mashina o‘tgan yolning masofasi, m,

$$AS = v_m At. \quad (1.6.9)$$

Bu masofa bitta tuganakni egatga tushgan nuqtasining tarqalish maydonini ko‘rsatadi:

$$AS = 6 c/, \quad (1.6.10)$$

bunda $<$ bitta tuganakning egatga tushgan nuqtasining o‘rta kvadratik joizligi, m.

Tuganaklarning orasidagi o‘rta kvadratik joizligi, or aniqlanadi

$$\alpha = 1,41 \alpha^1, \quad (1.6.11)$$

iutcrvullamining variatsiya koeffitsiyenti:

$$V = <r/S. \quad (1.6.12)$$

Agarda $V \leq 0,33$, intervallarning taqsimlanishi tasodifiy kattalik taqsimlanishi normal qonuniga bo‘ysunadi va agrotexnika talablariga javob beradi.

Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya stendi texnologik jarayoni organiladi va asosiy parametrlari 1.6.1-jadvalga yoziladi. Stend diskii qoshiqchalarining soni $z = 12$ ga teng. Laboratoriya stendidan diskning aylanish markazidan qoshiqchaning ichki va tashqi masofasi (R_j va I_h), mm aniqlanadi.

Berilgan va o‘lchangان parametrlar

1.6.1—jadval

Var. raqami	1	2	3	4	5	6	7	8
S , m	0,2	0,25	0,3	0,35	0,4	0,28	0,25	0,34
Vra ,	1,26	1,26	1,51	1,74	1,9	1,9	1,56	1,9
R_i , mm								
R_2 , mm								

2.(1.6.1) formula yordamida qoshiqchali - diskli apparatning aylanish chastotasi va burchak tezligi aniqlanadi.

3. (1.6.3) va (1.6.5)) formulalar yordamida tuganaklami ilib olish va fiksatsiya qilish uchun diskning chegaraviy burchak tezligi aniqlanadi.

4. Tuganaklar egatga tushish balandligi aniqlanadi. Buning uchun apparatga mayda yog‘ochli shariklar solinadi, disk aylantiriladi va tuganakyuksizlantirishjoyi aniqlanadi. Bundan keyin yirik yog‘ochli shariklar solinadi, disk aylantiriladi va tuganak yuksizlantirish joyi (nuqtasi) aniqlanadi. Bu nuqtalarning balandligi Hi va H_2 ni oichab olish sxemasi 1.6.3-rasmida ko‘rsatilgan. Hi va H_2 laming aniqlangan qiyatlari 1.6.2-jadvalga yoziladi. Ekish chuqurligi - 17 sm.

5.(1.6.6), (1.6.7) ifodalardan foydalanib egat tubidan Hi balandligida joylashgan nuqtagacha barcha tuganaklarning harakatlanish vaqtini aniqlanadi va 1,6.2-jadvalga yoziladi.

6.(1.6.8) ifodadan tuganak egatchaga tushib qolish vaqtining farqi At aniqlanadi va 1.6.2-jadvalga yoziladi.

Egatdagagi tuganaklar orasidagi hisoblangan intervallari tavsiflарining hisobi

1.6.2-jadval

Ko'rsatkich	Tuganaklarning olchamlari, mm			
	30	40	50	60
0'lcham raqami	1	2	3	4
Tushish balandligi, m				
Tuganaklar tushish vaqtisi, s				
Harakatda bo'lgan vaqtning farqi t_i ga nisbatan, s				
Egatga tushib qolish nuqtasining tarqalish maydoni, m				
Egatga tushib qolish nuqtasining o'rta kvadratik joizligi, m				
Intervallarning variatsiya koeffitsiyenti				

7.(1.6.9) ifoda yordamida egatga tushish nuqtasining tarqalish maydoni aniqlanadi va 1.6.2-jadvalga yoziladi.

S.Ifodalar yordamida bitta nuqtaning egatga tushish o'rta kvadratik joizligi a' , tuganaklarning orasidagi o'rta kvadratik joizligi a , variatsiya koeffitsiyenti V aniqlanadi va 1.6.2-jadvalga yoziladi.

9.1.6.2-jadvaldan ekish materiali kalibrlanganda birinchi o'l-eharndagi fraksiyasiga kirish imkoniyati bo'lgan tuganaklarning o'l-chami aniqlanadi. Intervallarning variatsiya koeffitsiyenti $V \leq 0,33$ tasodifiy kattalik taqsimlanishi normal qonuniga boysunishi kerak.

Bajarilgan ish bo'yicha hisobot mazmuni

1. KC-2,4 kartoshka ekish mashinasi laboratoriya stendi vazifasi va konstruksiysi bayoni.

2. Qoshiqchali - diskli ekish apparati konstruksiyasi va ish jarynyoni bayoni.

1. (Qoshiqchali - diskli apparatning burchak tezligini asoslab tansli sxemasi.

4. Tuganaklar qoshiqchadan tushib qolish sxemasi.
5. Tuganaklar qoshiqchadan tushib qolish balandligini aniqlash sxemasi.
6. Tajriba yo‘li bilan olingan va hisoblangan parametrlar jadvali.
7. Xulosa.

Nazorat savollari

1. Kartoshka ekadigan qoshiqchali - diskli ekish apparatining texnologik ish jarayoni qanday ketma-ket fazalardan iborat?
2. Kartoshka ekish mashinasi qanday vazifani bajaradi va qanday konstruksiyaga ega?
3. Qoshiqchali - diskli ekish apparatining aylanish tezligini chegaraviylash sababi nimadan iborat?

1.7. O‘K - 4 universal chopiq kuttivatorinmg‘ishchi organlariei sekxiyada berilgan sxema bo‘yicha joylashtirish

Ishning mazmuni: O‘K-4 universal chopiq kultivatori konstruksiyasi, texnologik jarayoni, uni rostlashni o‘rganish va ishchi organlarini sekxiyada berilgan sxema bo‘yicha joylashtirish.

Kerakli uskunalar va jihozlar: O‘K-4 universal chopiq kultivatori, kultivatorining ishchi organlari sekxiyasi, plakatlar, chizmalar, o‘quv adabiyotlari va o‘lchash asboblari to‘plami.


Ish hajmi: laboratoriya ishi 4 soat auditoriya vaqtiga va 2 soat mustaqil ishlashga moijallangan.

Umumiy ma’lumotlar

“Tuproqni ag‘darmasdan yumshatib, tabiiy namlikni saqlab qolish, begona o‘tlarga qarshi kurashish, ekilgan urug‘ning unib chiqishi uchun eng qulay sharoit yaratish kabi maqsadlarda yerga ishlov berish uchun kultivatorlardan keng foydalilaniladi. Kultivatorlar yerga yoppasiga ishlov beradigan, maxsus va chopiq qiluvchi turlarga bo‘linadi.”¹² Chopiq kultivatori sug‘oriladigan dehqonchilikda ekinlar qator oralig‘idagi tuproqqa ishlov berish, begona o‘tlarni

¹² Se gun R. Bello. Agricultural machinery and mechanization, Published in USA by Createspace US in 2012

yo‘qotish va o‘g‘itlash uchun ishlataladi (1.7.1-rasm). Kultivator bilan ishlov berishda quyidagi agrotexnik talablarga, tuproqning pastki nam qatlamini yer yuzasiga chiqarmaslik; eroziyani kuchaytiradigan changsimon zarrachalarni hosil qilmaslik; yumshatiladigan chuqurlik tayinlangandan \pm 1,0 sm dan ortiq farq qilmasligi va begona o‘sami 98 - 99% yo‘qotilishiga rioya qilinadi. Chopiq kultivatorlari 0,9 va 1,4 klass traktorlari bilan agregatlanadi.



1.7.1-rasm. O‘K-4 universal chopiq kultivatorining sxemasi:

1 - traktor g‘ildiragi; 2 - gidrotsilindr; 3 -yuqori tortqi; 4 - rama; 5 - o‘g‘itlash apparati; 6 - yulduzcha; 7 - taranglagich; 8 - o‘g‘ito‘kazgich; 9 - gryadil; 10 - yumshatish panga; 11 - egat ochgich; 12 - pastki tortqi; 13 - tayanch-yurituvchi g‘ildirak; 14 - tayanch g‘ildirakcha; 15 - oziqlantirish pichogi

O‘K-4 universal chopiq kultivatorining asosiy texnikaviy tavsiflari

- qatorlar oralig‘i - 60, 90 sm
- ishlov beriladiga qatorlari soni - 4
- qamrash kengligi - 2,4-3,6 m

- ishchi tezligi - 1,29-1,38 m/s
- 1 soat foydalanish vaqtidagi ish unumi - 0,82-1,37 ga/soat
- ishchi organlaming ishlov berish notekisligi - ±1sm
- begona o‘tlarni yo‘qotishi - 98%
- ishlov berish chuqurligi - 3-18 sm
- o‘g‘itlash apparatlarining bunkerlari sig‘imi - 300 dm³


Chopiq kultivatorning ishchi organlari maxsus chopiq traktorining orqa tomoniga o‘rnataladi (1.7.1-rasm). Rama 4 ga pasaytirgich orqaii seksiyaning to‘rt bo‘g‘inli (parallelogrammlı) osish mexanizmi biriktirilgan. Ularga gryadil 9 lar o‘matiladi. Gryadillarga ishchi organlar mahkamlanadi. Kultivatorga o‘g‘itlash apparatlari o‘rnataligan. Gidrotsilindr 2 ning ta’sirida ko‘tarish vali burilib, tortqi 3 va 12 lar orqaii ikki yelkali richag ko‘targich yordamida jilovdagи sirpangichni yuqoriga ko‘taradi. Sirpangich, jilovga mahkamlangan shaybaga tiralib, uni jilov bilan birlashtirilgan shaybagasi yuqoriga ko‘taradi. Jilov esa gryadil 9 ni va unga o‘rnataligan ishchi organlarini yuqoriga ko‘taradi. Ishlov berish chuqurligini me’yori da saqlash uchun tayanch g‘ildirakchalar xizmat qiladi.

Kultivatorning ishchi organlari bajaradigan ishiga qarab, asosan 4 turga bo‘linadi: yumshatuvchi tishlar, o‘toqlovchi yotiқ qirquvchi panja-pichoqlar, o‘qyoysimon panjalar va chuqur yumshatuvchi tishlar. Yumshatuvchi tishlar sirti iskanasimon, to‘ntarma va nayzasimon kabi turlarga bo‘linadi (1.7.2-rasm). Tish yumshatish burchagi *a* o‘zgaruvchan qilinadi (balandligi ortsa - *a* kattalashadi).

Iskanasimon tishning qamrash kengligi *b* = 20 mm bo‘lib, tuproqning pastki namroq qismini yuzaga chiqarmaydi. Bunday tish bikr ustunga *ao* = 40-45° ostida o‘matilib 25 sm chuqurlikkacha, prujinasimon ustunga esa *a* = 25-30° burchak ostida qotirilib, 12 sm chuqurlikkacha ishlov berishi mumkin. To‘ntarma tish uchining kengayish burchagi $2y = 60^\circ - 70^\circ$ bo‘lib, qamrash kengligi *b* = 35-65 mm gacha bo‘ladi. Ishlatilayotgan uchi o‘tmas!anib qolsa, tish 180° ga to‘ntarilib o‘rnataladi. Nayzasimon tish (1.5.2,f- rasm) ko‘p yillik begona o‘tlarni yo‘qotishda qo‘llaniladi.

O‘t ildizlarini yotiқ kesuvchi panja-pichoq (1.5.2,a-rasm) ekin qator oralig‘idagi begona o‘tlarni yo‘qotish maqsadida ishlatiladi. Shu sababli, uning yumshatish burchagi o‘ta oz (*a* = 9-10°) o‘rnataladi

va tuproqni maydalash deyarli kuzatilmaydi. Bunday tishning tig'i begona o'tlar ildizini kam kuch sarflab kesishi uchun y burchagining qiymati sirpanib kesishni ta'minlashi kerak. Shu sababli, o'toqlovchi yotiq qirquvchi panja pichoqning qamrash kengligi $b = 85-165$ mm, $y=28-32^\circ$ qabul qilinadi va $a=4-6$ sm chuqriliklarda ishlatiladi.



1.7.2 - rasm. Kultivatorning ishchi organlari:

- a)- o't ildizlarini yotiq kesuvchi panja-pichoq; b) - o'qyoysimon (universal) panja;
- d) - iskanasimon tish; e) - to'ntarma tish; f) - nayzasimon tish; g) - chuqr yumshatuvchi tish

O'qyoysimon (universal) panjalar (1.7.2,6-rasm) begona o't!arning ildizlarini kesib yo'qotish va tuproqni yetarli darajada yumshatish uchun ishlatiladi. Shu sababli, $y= 28-30^\circ$ bo'lib, $b = 220-385$ mm, ishlov berish chuqurligi $a < 12$ sm gacha yetadi.

Chuqr yumshatuvchi tish (1.7.2,g-rasm) tuproqni 30-40 sm chuqurlikkacha yumshatadi. Bunday tish shakli o'qyoysimon bo'lib,

boshmoq va unga o'rnatilgan iskanasimon tumshuq va ikkita lemexlardan tashkil topgan bo'ladi. Qamrash kengligi 80 sm va undan ko'p bo'lishini ta'minlash uchun $\gamma = 38-60^\circ$ qabul qilinadi. Iskana $a = 17-25^\circ$, lemex esa $a = 25^\circ$ burchak ostida gorizontal yo'nalishda egilgan bo'ladi. Tuproq palaxsasi lemex ta'sirida 10 sm gacha ko'tarilib, oldingi joyiga tushiriladi, natijada, tuproq ag'darilmasdan birmuncha yumshatilib, begona o't ildizlari kesiladi.

Kultivator panjasи tuproqqa a burchakli (ko'tarilish burchagi) ponaga o'xshab ta'sir etadi, natijada siqish va qo'zg'alish kuchlanishi hosil bo'ladi. O'qyoysimon panjaning $2y$ burchagi panja tig'larining ochilish kengligi burchagi deyiladi.

y burchagining qiymati begona o'tlamining qirqish darajasi bogianadi:

$$y < 90^\circ - \phi,$$

bunda (p - begona o'tning panja tig'i bo'ylab ishqalanish burchagi, $\phi = 26,5^\circ$)

Qumli tuproqlarda $2y = 75^\circ - 80^\circ$ qora tuproqlarda $2y = 55^\circ - 60^\circ$; yotiq keskichlar uchun $2y = 75^\circ - 120^\circ$. Agarda $y \geq 90^\circ - cp$ bo Isa qirqish jarayoni sirpanishsiz o'tadi. Ayrim holatlarda begona o'tlar tig yordamida to'liq kesilmaydi, bunga yo'l qo'yilmasligi uchun kultivator panjalarini ikki q'ator ma'lum bir darajada o'zaro iz qoplab, Ab, o'rnatish kerak

$$A b = Ltg S,$$

bunda L - oldingi va orqa panjalaming oralig'i; 5 - kultivator va yotiq keskichlar tog'ri yonalish chizig'idan tasodifiy og'ish burchagi, $S = 7^\circ - 9^\circ$.

O'qyoysirnⁿ panjalar va yotiq kesuvchi panjalaming minimal qamrash kengligi

$$b \min > 3A b$$


Maydalash burchagi /3 ning qiymati bo'yicha panjalaming quyidagi turlari standartlangan: 1-bir tomonlama yotiq kesuvchi, 2-yotiq kesuvchi o'qyoysimon quyruqsiz, 3- yotiq kesuvchi o'qyoysimon quyruqli, 4-universal o'qyoysimon quyruqsiz, 5-universal o'qyoysimon quyruqli.

Iva 2 turlaridagi panjalaming parametrlari: $/? = 10^\circ - 15^\circ$, ishlov berish chuqurligi -60 mm; 3 turdagи panjalaming parametrlari: $/? = 15^\circ - 18^\circ$; 4 va 5 panjalarining parametrlari: $(3 = 25 - 32^\circ)$.

Ko'tarilish burchagi *a* panja tig'larining ochilish kengligi burchagi va maydalash burchagi quyidagi ifoda bilan bog'lanadi:

$$\operatorname{tg} a = \operatorname{tg} f \sin y.$$

Panja harakatlanganda tuproq *mn* chizig'i bo'ylab parchalanadi (1.7.3-rasra).



1.7.3-rasm. Yumshatish panja bilan tuproq qatlami deformatsiyalanishi sxemasi

Parchalanish tekisligi trapetsiya shakliga ega. Tuproq yuzasidagi deformatsiyatasmasining eni quyidagichaga:

$$= B \cdot \frac{L \cdot I_{2+te/(e/2)}}{\cos(a+cp)},$$


bunda й-panjaning qamrash kengligi, mm; д-tuproqqa ishlov berish chuqurligi, mm; 0-tuproqning parchalanish burchagi, 0=50°.

Begona o'tlarni ildizini butunlay kesilishini ta'minlash va kesilgan o'tlarni panjalar orasida tiquilib qolmasligini oldini olish uchun panjalar ikki yoki uch qator o'matiladi. Agregat yonalishi bo'ylab panjalarning oralig'i quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$L \geq l_0 + a \operatorname{tg}(a + \varphi)$$

Chopiq kultivatorlarda ishchi organlarning o'vrnatish tartibi ekinlar qatorlari masofasi bilan muvofiqlashtirishi kerak (1.7.4-rasm). Chekkadagi ishchi organlami ekinlarga shikastlamasdan ishlov berish uchun (himoya zonasi) ekinlardan aniq masofada o'matish kerak. Ishchi organlarning seksiyada o'rnatish tartibi quyidagicha: *bi* va *b2* qamrash kengligiga ega bo'lgan uchta panjalar uchun

$$0,5 bi + 62 = 0,5 A - (e - Ab)$$



1.7.4-rasm. Chopiq kultivatorlarda ishchi organlarni joyiashtirish sxemalari:

a-begona o'tlarni yoqotish, yumshatish va sug'orish egatlarini olish; fe-begona o'tlami yoqotish va sug'orish egatlarini olish; e-begona o'tlarni yoqotish

Ikkita bir xil turli panjalar uchun

$$b! = 0,5(A+Ab)-e,$$

bunda *e* - himoya zonasi, mm (bir tomonlama panjalar uchun *e*=60-110 mm; o'qyoysimon panjalar uchun *e*=80-150 mm; yumshatuvchi panjalar uchun *e*=100-150 mm; oziqlantirish pichoq-panjalar uchun *e*=120-150 mm); *A*-qatorlar oraligi, m.; *Ab*-iz qoplash miqdori, mm.

$$A b = L \operatorname{tg} S,$$

bunda L - oldingi va orqa panjalaming orasidagi masofa, mm; 8 -kultivator va yotiq keskich to‘g‘ri yo‘fnalish chizig‘idan tasodifiy og‘ish burchagi.

Ishlov berish chuqurligini o‘zgartirish uchun ishchi organ ustunini gryadilga mahkamlaydigan qulflar yechilib, uning g‘ildirakchaga nisbatan balandiigi o‘zgartiriladi. Tirak 6 ning joyini jilov 5 bo‘ylab o‘zgartirib, prujina 7 ning siqilish darajasini o‘zgartirib, ishchi qismlarning tuproqqa botishi, tayinlangan ishlov berish chuqurligi kamayishining oldi olinadi. Kultivator ishchi organlarini bir yo‘la to‘g‘ri joylashtirish uchun maxsus shablondan foydalaniladi.

Shablon betonlanib tayyorlangan tekis maydonchada chiziladi, traktor shablon ustiga chiqarilib gryadil va ishchi organlar o‘matiladi.

Ishchi organlarni joylashtirish tartibi ular bajaradigan texnologik jarayonga qarab aniqlanadi. Qatordagi ko‘chatlarga zarar yet-kizmaslik uchun ularga nisbatan kultivator ishchi organlari birinchi kultivatsiyalashda $b_{xz}=8-12$ sm, keyingilarida $b_{xz}=14-15$ sm himoya zonasini qoldirilib joylashtiriladi.

Ishni bajarish tartibi

1.O‘K-4 universal chopiq kultivatori va ishchi organlarining konstruksiyasi, qo‘llanilishi o‘rganiladi.

2.Ekinlar qatorlari orasiga ishlov berish sxema bo‘yicha ishchi organlar tanlanadi (1.5.4.-rasm.), panjalarni o‘zaro iz qoplash (*Ab*) va himoya zonasini (*e*) masofalari hisoblanadi.

3. O‘K-4 universal chopiq kultivatori ishchi organlarining sxemalari chiziladi, parametrlari ko‘rsatiladi.

4.Ishchi organlarining zarur o‘lchamlari olinib 1.7.1-jadvalga yoziladi.

5. 1.7.2-jadvalda berilgan mustaqil ish variantlaridagi dastlabki qiymatlardan va keltirilgan ifodalardan foydalanib ishchi organlarini seksiyada joylashtirish parametrlari hisoblanadi va 1.7.3-jadvalga yoziladi.

6.Kultivatoming ishchi organlari topshiriqda berilgan sxema bo‘yicha joylashtiriladi. Ishchi organlarini to‘g‘ri joylashtirish uchun shablondan foydalanish kerak. Bunda ekinlar qatorlari, himoya zonalari, qatorlar orasining o‘rtacha chizig‘i chiziladi. Kultivatoming

simmetriya o‘qi shablonning o‘rta chizig‘iga moslashadi va rama brusining o‘qi chiziqlarga perpendikulyar moslashadi.

Kultivator ishchi organlarining parametrlari

1.7.1-jadval

Yotiq kesuvchi panja- pichoq	B , mm	H , mm	b , mm	bi , mm	γ , grad	S , mm
0‘qyoysim on panja	Δ mm	b , mm	bi , mm	2 y , grad	A grad	a , grad
Iskanasi- mon panja	B , mm	b , mm	N , mm	R , mm	a , grad	$2y$, grad

Mustaqil ish variantlari

1.7.2-jadval

Variantlar	1	2	3	4	5
bj , mm	220	270	60	110	120
$b2$, mm	75	165	85	150	80
V , m	0,7	0,45	0,6	0,9	1,0
a , mm	14	12	16	10	6
e , mm	80	100	120	70	150
S , grad	7	8	9	8	7
a , grad	12	13	14	15	13

7.Rama g‘ildiraklari va seksiya g‘ildiraklarining tagiga talab qilinadigan ishlov berish chuqurligidan 2-3 sm kam tagliklar o‘rnatalidi.

8.Parallelogrammli mexanizmning yuqori zveno siquvchi gaykasi aylantiriladi, seksiya gryadillari tekislanadi, kultivator panjalari qulflarda qotiriladi.

Ishchi organlarini seksiyada joylashtirish parametrlari

1.7.3- jadval

Ab, mm	bmin, mm	A, mm	L, mm	Дтш

9. Kultivatoming tayanch-yuritish g'ildiraklari qatorlar oralarining o'rtacha chizig'iga o'matiladi.

10. Kultivatoming ishini tavsiflovchi ishchi organlarini joylashtirishning texnologik sxemalari chiziladi va tavsiflanadi.

Bajarilgan ish bo'yicha hisobot mazmuni

1. Kultivatorlar ta'rifi va tasniflanishining qisqa bayoni.
2. Kultivatorlami rostlash bayoni.
3. Chiqiq kultivatori ishchi organlari kengligi 60; 70; 90 sm li qatorlar oralarida joylashtirish sxemalari va ularning tavsifi.
4. Chiqiq kultivatori ishchi organlarining sxemalari va parametrlari.
5. Tajriba yo'li bilan olingan va hisoblangan parametrlar jadvallari.
6. Xulosa.

Masala.¹³ Yumshatuvchi panjaning qamrash kengligi 50 mm, tuproqqa ishlov berish chuqurligi 15 sm, tuproqning parchalanish burchagi 50° bo'lsa, panja harakatlanganda parchalanish tuproq yuzasidagi deformatsiya tasmasining eni hisoblansin.

Berilgan: 6=50 mm; a=150 mm; 0=50°; cp = 26,5°; a = 17-25°.

Masalaning yechilishi: Panja harakatlanganda parchalanish tuproq yuzasidagi deformatsiya tasmasining eni quyidagicha aniqlanadi:

$$B = b + \frac{2a\theta/\Delta}{\cos(a+(p))} 50 + \frac{2 \cdot 150 \cdot \operatorname{tg}(50/2)}{\cos(20+26,5)} = 253,2 \text{ mm}$$

¹³ Engineering principles of agricultural machines 2nd Edition. Ajit K.Srivastava. Michigan State University and others. Copyright © 2012 by the American Society of Agricultural and Biological Engineers.

Javob: Panja harakatlanganda parchalanish tuproq yuzasidagi deformatsiya tasmasining eni 253,2 mm.

Nazorat savollari

1. Chopiq kultivatorlarining tasnifmi aytib bering.
2. Kultivatorlaming ishchi organlari qanday vazifalarni bajaradi?
3. Kultivatorlarni qanday agregatlash va rostlash usuliari bor?
4. G‘o‘za qatorlar oralig‘iga qanday ishlov berish mumkin?

1.8. OBX-600 o‘simliklarni kimyoviy himoyalash mashinasi uchliklarini sarflanadigan belgilangan ishchi sniyqligi miqdoriga sozlash

Ishning mazmuni: OBX-600 o‘simliklarni kimyoviy himoyalash mashinasining konstruksiyasi, texnologik ish jarayonini o‘rganish, ventilyator karnayini o‘matish va uchliklarni sarflanadigan ishchi suyqligi belgilangan miqdoriga rostlash.

Kerakli uskunaiar va jihozlar: OBX-600 mashinasining laboratoriya stendi, purkagichning ishchi organlari, plakatlar, chizmalar, o‘quv adabiyotlari, o‘lchash asboblari to‘plami.

Ish hajmi: laboratoriya ishi 3 soat auditoriya vaqtiga va 1 soat mustaqil ishslashga mo‘ljallangan.

Umumiy ma’lumotiar

O‘simliklarning kasalliklari, zararkunandalari, hasharotlar va begona o‘tlarga qarshi kurash quyidagi usullarda olib boriladi: agrotexnik, mexanikaviy, biologik, biofizik va kimyoviy. Kimyoviy usul oddiy va bevosita ta’sir etganidan keng ko‘lamda qo‘l!aniladi. “Purkagichlar - mevali daraxtlarga, tokzorlarga va dala ekiniariga zaharli dorilarни sepish uchun mo‘ljallangan. Ular o‘zining purkash qurilmasi ish prinsipiiga qarab, shtangali va ventilyatorli; ishchi suyuqlikning sarflash miqdoriga qarab, oddiy, oz miqdorda va ultra oz miqdorda sepadigan; traktor bilan agregatlanishi bo‘yicha - tirkalma, o‘rnatma, o‘ziyurar; bajaradigan ishi bo‘yicha - universal,

bog'bop, dalabop kabi turlarga bo'linadi.”¹⁴ Paxtachilikda ventilyatorli va shtangali purkagichlar ishlatiladi. Ular zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish bilan bir “aqtda g‘o‘zani defolyatsiyalash va desikatsiyalash uchun ham ishlatiladi.

Paxtachilikda ishlatiladigan ventilyatorli purkagich OBX-600 chopiq traktori lonjeronlariga o‘matilgan 2 ta rezervuar, ventilyatorli purkash qurilmasi, harakat yuritmasi, ventilyator, rotorli nasos va reduktorlardan iborat.

QBX-600 ventilyatorli purkagichning asosiy texnikaviy tavsiflari

- turi osma;
- 0,9; 1,4 klass traktorlari bilan agregatlanadi;
- 1 soat asosiy vaqt davomida ish unumi 4,5 - 22,2 ga/soat;
- qamrash kengligi - 30 m gacha;
- ishchi tezligi - 6,3 - 7,4 km/soat;
- suyuqlik sarflashi - 100 - 500 1/ga;
- rezervuarlarning sig'imi - 630 ± 20 l.


Paxtachilikda ishlatiladigan OBX-600 ventilyatorli purkagich (1.8.1-rasm) suyuq zaharli dorilar eritmasini juda mayda zarrachalarga (zarrachalaming diametri 125 - 250 mkm) parchalab purkash uchun xizmat qiladi.

Purkagichning texnologik ish jarayoni quyidagicha: nasos 2 rezervuarlar 9 va 10 dagi ishchi suyuqlikni so‘rish magistrali 12, uch yo‘lli kran 15 va filtr 14 orqaii so‘rib olib, filtr 5 va uzuvchi klapan 3 orqaii pnevmodiskli uchlikga uzatadi. Uchlik 18 ventilyator 1 kamayining og‘ziga o‘matilgan. Hayo oqimi uchliklardan chiqqan suyuqlik zarrachalarni purkash obyektiga uzatadi.

Harakat traktorning quvvat olish validan kardanli uzatma orqaii reduktorga uzatilib ventilyator va nasosga keladi. 1.8.2-rasmida QBX-600 asosida yaratilgan laboratoriya stendi kinematik sxemasi ko‘rsatilgan. Uchlik o‘rnatilgan ventilyator karnayi o‘ng va chap tomoniga burilib ishchi suyuqlikni sepish uchun ventilyator g‘ilofi

¹⁴ Brian Bell MBE Martin Rickatson Farm machinery 6th Edition. Published by 5M Publishing Ltd, Benchmark House, 8Smithy Wood Drive, Sheffield, S35 1 QN, UK. 2015.


tros (zanjir) orqali tebranuvchan sektor bilan ulangan. Ishchi suyuqlik bosimi 0,2-0,5 MPa boiishi kerak. Puskash qurilmasini minutiga 16-20 marta burilish, minimal qamrash kengligi esa kamida 25 m ga o'matiladi.



1.8.1-rasm. Ventilyatorli purkagichning texnologik ishjarayoni sxemasi:

1 - ventilyator; 2 - nasos; 3 - uzuvchi klapan; 4,16 - kranlar; 5,14,17 - ffltrlar; 7 - bosim rostlagichi; 8,11 - uzatish magistrals; 9,10 - rezervuarlar; 12 - so'rish magistrali; 13 -brandspoyt; 15 - uch yo'lli kran; 16- zaharli modda uchun shlang; 17- so'rish shlangi; 18- puskash uchligi

Pnevmodiskli parchalash qurilmasi o'ta yupqa (qalinligi 0,35 mm) polietilen disklar va ular orasiga qistirilgan shaybalarni aylanuvchan asosga qisib qotirish natijasida yasaladi. Disk va shaybalar o'rtasi g'ovak bo'lib, u yerga bosim ostida suyuqlik yuboriladi. Pnevmodiskli parchalash qurilmasi o'ta yupqa (qalinligi 0,35 mm) polietilen disklar va ular orasiga qistirilgan shaybalarni aylanuvchan asosga qisib qotirish natijasida yasaladi.



1.8.2-rasm. Laboratoriya stendining kinematik sxemasi:

/-sharnirli val; 2-chervyakli redukтор; 3-prujina; 4-kulachok; 5-rolik; 6-tros;

7-sektor; S-ventilyator; 9-korpus; /0-yuritma ularish muftasi; 77-ventilyator

ularish muftasi; 72-dasta; Y3-redukтор; /4-nasos; /5-reduktor yuritmasining
zanjiri

Disk va shaybalar o'rtasi g'ovak boiib, u yerga bosim ostida suyuqlik yuboriladi. Disklarda kengligi 2,5 mm boigan kanalchalar bo'lganligi sababli, nasos katta tezlik bilan ($\ll 15-20$ ming ayl/min) aylanganida ko'ndaiang kesimi $2,5 \times 0,35$ mm boigan kanallar bo'yicha, markazdan qochirma kuchlar ta'sirida g'ovak ichidagi suyuqlik tashqariga ingichka favvorachalar ko'rinishida otilib chiqadi va ventilyator shamoli ta'sirida 60-150 mkm diametrli tomchilarga ajraladi. Natijada, kam miqdorlab purkash ta'minlanadi.

Purkagichni ishga tayyorlashda purkash uchliklari soni n tanlanib, bir dona uchlikdan sepilishi lozim boigan suyuqlik miqdori q aniqlanadi:

$$q = NBiV_m/600, \text{ 1/min},$$

bunda, N - bir gektar yerga sarflanadigan suyuqlik me'yori, 1/ga;

Bi — agregatning ishchi qamrash kengligi, m;

$v_{,,}$ - agregatning tezligi, km/soat.

Purkagichga o'matiladigan uchliklar soni z quyidagicha topiladi:

$$z = q / q^1$$

Turli bosimlarda sarflanadigan ish suyuqlikning miqdori q^1 formulasi:

$$q^1 = 0,06 \cdot n f z \cdot y f 2 \overline{P/p} / \sqrt{n \cdot m};$$

bunda \wedge -suyuqlik sarflash koeffitsiyenti, 0,3;

/-purkash uchligidagi suyuqlik chiqadigan teshikning kesim yuzasi, $=\pi r^2$, mm²;

bunda r - teshik radiusi, $r = 1,25$ mm;

P - suyuqlik haydash yo'lidagi bosim, Pa;

p - ishchi suyuqligining zichligi, $=1000$ kg/m³.

Purkagichning asosiy rostlashlari. Bosim rostlagichi ishchi suyuqligi sarfini rostlash uchun xizmat qiladi. Haydash tizimining bosimi haydash magistrali 6 da joylashgan manometr orqali nazorat qilinadi. Uchliklarning suyuqlik sarfini rostlash uchun bosim rostlagichning yuqori maxovigidan foydalaniladi. Maxovik soat strelkasi bo'yicha aylantirilsa, suyuqlik haydash tizimining bosimi oshadi va buning natijasida uchliklarning suyuqlik sarfi ham oshadi, aks holda - kamayadi.

Talab qilinadigan suyuqlik sarflash me'yoriga qarab purkash qurilmasiga uchliklar kerakli sonda (4-8) dona o'matiladi. Agregat bajaradigan ish turiga qarab, purkagichga dalabop yoki bog'bop uchiikli kamay o'matiladi. Purkash moslamasi kulachok, sektor, tros va tortqilar vositasida harakatlantiriladi. Ventlyator karnayi burilish darajasi burilish amplitudasi qaydash bolti orqali rostlanadi. Yuritma trosining tarangligi va ishchi organning ravon burilishi uchun tortqilaming prujinasi va rolik yordamida rostlanadi. Purkash moslamaning tebranishi zanjirli uzatmadagi boshqaruvchi yulduzcha tishlarining soniga qarab o'zgartiriladi.

Ishni bajarish tartibi

1. OBX-600 ventlyiatorli purkagichning konstruksiyasi, ish jarayoni va uni rostlash prinsiplari o'rganiladi.
2. Purkagichning texnologik ish jarayoni va kinematik sxemalari chiziladi.

3. OBX-600 ventilyatorli purkagichning ishini tavsiflovchi asosiy parametrlari o'rganiladi va ular chizmalar bilan tasvirlanadi.


4. Purkagichning barcha uchliklaridan sarflanadigan ishchi suyuqligining miqdori q (1/min) hisoblanadi, q ning qiymatini hisoblashda 1.8.1-jadval ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Purkagichning asosiy parametrlari

1.8.1-jadval

Kattaliklar qiymati				
B_t, m	26	26	22	22
$V, km/soat$	7	8	7	8
$N, 1/ga$	180	180	180	180
$q, 1/min$				

5. Hisoblangan q ning qiymatini suyuqlik sarflash nomogramma (1.8.3-rasm) yordamida aniqlanadi. Buning uchun gorizontal chiziqda 0 nuqtadan chap tomonda N , o'ng tomonda esa q ning qiymatlari belgilanadi va ikkala tomonda vertikal chiziqlar chiziladi.



1.8.3-rasm. Purkagichdan sarflanadigan ish suyuqligining miqdorini aniqlash nomogrammasi (nomogramma purkagich $V_i = 26$ va 24 m.;

$v_m = 5$ va 6 km/soat uchun qurilgan):

-----nomogrammani qurish chiziqlari; ----- purkagichdan minutiga sarflanishi lozim bo'lgan ishchi suyuqligi miqdorini aniqlash chizig'i

Bir gektar yerga sarflanadigan suyuqlik me'yori N nomogrammada belgilanib, u yerdagi strelka bo'yicha kerakli agregatning ishchi qamrash kengligi B , bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkazilib, topiigan nuqtadan gorizontal chiziq chiziladi va uni agregatning tezliklari v_m bilan kesishgan nuqtasidan vertikal chiziq o'tkazilsa, kerakli suyuqlik miqdori q aniqlanadi. Agar $q < 501/\text{ga}$ boiib chiqsa, pnevmodiskli, $\geq 50 \text{ l/ga}$ bo'lsa ventilyatorli purkash qurilmasi ishlataladi.

Purkagichning barcha uchliklaridan sarflanadigan ishchi suyuqligining miqdori q ($1/\text{min}$) hisoblanadi, q ning qiymatini hisoblashda 1.8.1-jadvai ma'lumotlaridan foydalaniladi.

6. Purkagichning uchliklaridan sarflanadigan ishchi suyuqlikning miqdori $q'n'mg$ qiymati turli bosim P va to'zitish uchliklarining soni z uchun bir necha marta hisoblanadi, olingan natijalar 1.8.2-jadvalga yoziladi va ular asosida suyuqlik sarfming bosimga va uchliklar soniga bog'liqlik $P=f(q)$ grafiklari (1.8.4-rasm) quriladi. 1.8.4-rasmda ko'rsatilgan grafiklari bo'yicha purkagichning uchliklaridan sarflanadigan ishchi suyuqlikning miqdori $q=28 \text{ l/min}$ bo'lganda to'zitish uchliklarining soni $z=8; 10; 12$ uchun suyuqlik haydash yo'lidagi bosim $P=0,62; 0,32; 0,14 \text{ MPa}$ boiadi.


Asosiy parametrlar

1.8.2-jadval

M	0,3			0,3			0,3		
$d, \text{ mm}$	2,5			2,5			2,5		
z	2			4			8		
$P, \text{ MPa}$	0,5	0,6	0,8	0,5	0,6	0,8	0,5	0,6	0,8
$q', \text{l/min.}$									

7. Bitta uchlik sarflanadigan suyuqlik miqdori amalda aniqlanadi. Buning uchun rezervuarga 2-3 chelak suv quyiladi, purkagich laboratoriya stendining elektrdvigateli ishga tushiriladi. Suyuqlik haydash magistralidagi aniqlangan bosim rostlagich yordamida o'matiladi. Bitta uchlikning tagiga idish qo'yiladi va purkagich bir minut davomida ishlataladi. Idishga tushgan suyuqlik miqdori

hisoblangan q^l ga teng bo‘lishi kerak, aks holda bosim rostlagichning yuqori maxovigidan foydalanib magistraldagi bosim o‘zgartiriladi.



1.8.4 - rasin. Suyuqlik sarfming bosimga bogiiqlik grafigi

Bajarilgan ish bo‘yicha hisobot mazmuni

1.0BX-600 ventilyatorli purkagichning ta’rifi, konstruksiyasi va texnologik ish jarayoni bayoni.

2.0BX-600 ventilyatorli purkagichning prinsipial va kinematik sxemalari.

3.0BX-600 ventilyatorli purkagichning purkash me’yoriga rostlash ma’lumotlari bayoni.

4.Purkagichning barcha uchliklaridan turli bosimlarda sarflanadigan ishchi suyuqlik miqdori hisobi.

5.Hisoblangan parametrlar jadvallari.

6.Purkagichdan sarflanadigan ish suyuqligi miqdorini aniqlash nomogrammasi. Suyuqlik sarfining bosimga bog‘liqlik grafigi.

7.Xulosa.

Masala.¹⁵ Teshiklar radiusi 1,25 mmli 10 uchliklar uchun suyuqlik haydash yoiidagi bosim 0.32 MPa;; ishchi suyuqligining zichligi 1000 kg/m³ berilgan bo‘lsa sarflanadigan ishchi suyuqlikning miqdori aniqlansin, //suyuqlik sarflash koeffitsiyenti, 0,3;

¹⁵ Engineering principles of agricultural machines 2nd Edition. Ajit K.Srivastav & Michigan State University and others. Copyright © 2012 by the American Society of Agricultural and Biological Engineers.

Berilgan: $P=320 \text{ Pa}$; $p=1 \text{ OOO kg/m}^3$; $r=1,25 \text{ mm}$; $z=10$; $//=0,3$

Masalaning yechilishi: Turli bosimlarda sarflanadigan ish suyuc'ikning miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$q^1 = 0,06 \frac{\eta f_z}{\eta / P} \sqrt{\frac{2P}{r}} = 0,06 \cdot 0,3 \cdot 3,925 \cdot$$

$$\frac{10J2 \cdot 320/1000}{10J2 \cdot 320/1000} = 0,565 \frac{1}{\text{mm}}$$

Javob. Turli bosimlarda sarflanadigan ishchi suyuqligining miqdori $0,565 \text{ l/mingateng}$.

Nazorat savollari

1. Ventilyatorli purkagichning vazifasi ish jarayoni nimadan iborat?
2. Purkagichning konstruksiyasi va asosiy rostlashlarini tushuntiring.
3. Ishchi suyuqligini sarflash me'yori N ($1/\text{ga}$) berilgan bo'lsa, qanday bosimda ishlash kerakligini tushuntiring.
4. Ventilyatorli purkagichning asosiy mexanizmlari va ularning vazifalaxi?

1.9. КС-Ф-2ДВ о't o'rgich qirqish apparatining barmoqli brus va pichog⁴ ini rostlash

Ishning mazmuni: KC-Ф-2,1B o't o'rgichining konstruksiyasi, texnologik ish jarayoni o'rganish, uning qirqish apparatining barmoqli brus va pichogini rostlash.

Kerakli uskunalar va jihozlar: KC-Ф~2,1B o'to'rgich laboratoriya stendi, o'rgichlarning ishchi organlari, plakatlar, chizmalar, o'quv adabiyotlari, o'Ichash asboblari to'pi ami.

Ish hajmi: laboratoriya ishi 2 soat auditoriya vaqtiga va Isoat mustaqil ishlashga mo'lja!langan.

Umumiy ma'iumotlar

"ОЧ о'rgich - ekilgan va tabiiy holda o'sgan o'tlarni o'ruchchi qishloq xo'ja!ik mashinasi. Bajaradigan ishiga qarab quyidagi gruppalarga bo'linadi: o'tni o'rib, ang'izga yotqizib ketadi; o4ni

o'rib, qator uyumga yotqizadi; o'rib maydalab transport vositasiga yuklaydi; o'rib yuklaydi; o'rib ezadi va ezilgan o'tlami qatorga I'yumlaydi yoki ang'izga yotqizib ketadi.”¹⁶ Agregatlash bo'yicha tirkalma, o'rnatma va yarimo'matma o't o'rgichlar bor. Qirquvchi apparatlari soniga qarab bir, ikki uch va besh brush o't o'rgichlar boidi.

Qirquvchi apparatlar traktorning oldida, yonida va orqasida joylashishi mumkin; traktorning QOVdan yoki yurish g'ildiraklaridan harakat oladi.

O4 o'rish mashinalarining asosiy ish bajaruvchi qismi qirqish (o'rish) apparatidan iborat. Qirqish apparatlari o'simlik poyalarini qirqish usuliga qarab ikki xil: tayanchga tirab (o't o'rgichlar va g'alla o'rgichlaming segment-barmoqli va barmoqsiz~qo'shpichoqli qirqish apparatlari) va tayanchga tiramasdan (rotatsion va diskli o't o'rgichlaming qirqish apparatlari) bo'jadi.


Segment-barmoqli va qo'shpichoqii segmentli apparatlar o'shnlik poyalarini qaychisimon qirqadi. Bu apparati aming pichoqlari o't o'rish jarayonida murakkab harakat qiladi: krivoship-shatunii mexanizm yordamida yon tomonga nisbiy ilgarilanma-qaytma va mashina bilan birga oldinga ko'china harakat qiladi.

Pichoqning segmenti trapetsiya shaklida Y9A asbobsozlik po'latdan 2-3 mm qalinlikda tayyorlanadi. Segmentlar pichoqning yelkasi deb ataluvchi 20x5 mm kesimli Ct.5 po'lata polosaga (uzunligi 2,1 m) biriktiriladi. Segmentlar va po'lata polosa yig'iq holda qirqish apparatining pichogi deb ataladi. Qirqish apparatining qarshi qirqish qismi barmoqlariga biriktirilgan plastinalardan iborat. Barmoqlar qo'zgalmas po'lata brusga mahkamlangan. Segment-barmoqli qirqish apparatida o'simlik poyasi qirqilish paytida segment ta'sirida ikki tayanchga: qarshi qirqish plastinasiga va barmoqning perosimon qismiga tiraladi, tigiar orasida qisilib to'xtaydi va qirqiladi.

Segmentli qo'shpichoqli (barmoqsiz) qirqish apparati bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanuvchi ustki va ostki segmentli pichoqlardan iborat. O'simlikpoyasi faqat bir nuqtaga tirab qirqiladi. Segment-barmoqli qirqish apparatlari segmentlar qadami *t*, qarshi qirqish plastinalari (barmoqlar) qadami *to* (1.9.1-rasm) va pichoq

¹⁶ (:h. Boylj, I. Jutras. Designing a small scale grain harvester: a tool for urban and peri-urban growers. USA, National Center for Appropriate Technology, 2012

yo‘li S ning o‘zaro nisbatiariga qarab baland, past va o‘rtacha turlarga bo‘linadi.



1.9.1.-rasm. Segment - barmoqli qirqish apparatlarining turlari:

- a) -bir yoi o‘tadigan pichoqli; b)- $\backslash k\backslash$ yo‘l o‘tadigan pichoqli baland qirqish; fif)-past qirqish; e)-o‘rtacha qirqish apparatlari;
- / -segmentlar qadami; /,-barmoqlar (yoki qarshi qirqish plastinalari) qadami;
- S -pichoq yo‘li.

Baland qirqish apparatida segmentlar qadami va qarshi qirqish plastinalari (barmoqlar) qadami o‘zaro teng bo‘ladi. Bu apparat o‘z navbatida uch xilga ajraladi:

- bir yo‘l o‘tadigan pichoqli baland qirqish apparati (1.9.1,a - rasm);

$$t=t_0=S; 5=76,2 \text{ mm yoki } 90 \text{ mm};$$

- ikki yoi o‘tadigan pichoqli baland qirqish apparati (1.9.1,6 - rasm).

$$2t=2t_0=S=152,4 \text{ mm yoki } 101,6 \text{ mm}$$

- karrali boimagan yoi o‘tadigan pichoqli baland qirqish apparati

$$kt=kto=S=40 \text{ mm},$$

bunda $t=t_0=76,2 \text{ mm}$, $\kappa=1,84$;

Past qirqish apparatida (1.9.1 ,d - rasm) barmoqlar yoki qarshi qirqish plastinalari qadami t_0 segmentlar qadami t dan ikki hissa qisqa, soni esa ikki barobar ko‘p boiadi:

$$t=2t_0=S=16,2 \text{ mm yoki } 101,6 \text{ mm.}$$

0'rtacha qirqish apparatida (ang'iz o'rtacha balandlikda o'riladi) (1.9.1 .e-rasm) barmoqlar yoki qarshi qirqish plastinalari qadami *to* segmentlar qadami *t* dan k[^]rralirnas /r.vonga qisqa bo'ladi:

$$t^{kto^S} = 76,2 \text{ mm yoki } 101,6 \text{ mm}, k = 1,5, \text{ yoki } Af = 1,33.$$

Qo'shpichoqli qirqish apparatida ustki va ostki pichoqlar segmenti bir-bii'lariq qarama-qarshi ilgarilanma-qaytma harakatlanib, bir yo'1 o'tadi. Pichoq yo'li $S = t/2$ boiib, bu apparat past qirqish apparatlari qatoriga kiradi. Ostki pichogi qo'zg'almaydigan qo'shpichoqli (barmoqsiz) qirqish apparatlari, masalan, sholi o'rish mashinalarida ham ishlatiladi.


Segmentli qirqish apparatlarining texnikaviy darajasini oshirish asosan ikki yo'nalishda: apparatlarning parametrlarini *to*'g'ri tanlash, o'rishning yangi usullarini va apparatlarining yangi turlarini izlash; pichoqlarni yuritish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishjarida olib borilmoqda.

Pichoqlarni ilgarilanma-qaytma harakatga keltirish uchun uch turli: krivoship-shatunli va krivoship-pishangli va krivoship-kulisali mexanizmlar, shuningdek, kombaynlaming xederlari (o'rish qismi) da tebranma shaybali va tebranma vilkali mexanizmlar ishlatiladi. Krivoship-shatunli mexanizmlar (KShM) ikki turli: aksial va dezaksial bo'ladi. (1.9.2-rasm) Aksial markaziy KShM da krivoshipning aylanish o'qi pichoqning harakat chizig'ida joylashadi. Dezaksial KShM da krivoshipning aylanish o'qi pichoqning harakat chizig'idan yuqoriga chetlatilgan bo'ladi. Cletlatish qiymati /% dezaksial deb ataladi.

Dezaksialning qiymati krivoship aylanganda ang'izga urinmaydigan qilib tanlanadi: $h_g = (2-3)r$, bunda *r*-krivoshipning radiusi. 0't o'rgichlarning barmoqli brusi ichki va tashqi boshmoqlar (tayanchlax) vositasida dalaning notejisliklariga moslanib harakatlanadi. Bu maqsadda brus ramaga shtanga vositasida sharnirlar osiladi. Shtanganing elastik deformatsiyalanishi va sharnirlardagi tirqishlar tufayli barmoqli brus va pichoq 3 (1.9.2,6-rasm) yon tomonga chetlashadi, ortiqcha zararli kuchlar paydo boladi. Bunga yo'1 qo'ymaslik uchun bannoqli brus krivoshipning aylanish Ickisligidan $d=35-55$ mm masofaga old tomonga chetlatiladi.

KShM zvenolarining turli tekisliklarda o'zaro erkin harakatiana olishi uchun sharli sharniriari C va B qoilaniladi. Fazoviy (turli tekisliklarda harakatlanuvchi) KSHMdasi $h_g = (7-8)r$.

Dezaksial qancha katta bo'lsa, shatunning uzunligi $l_s h$ va lining gorizontal qiyalik burchagi y , shuningdek, qirqish apparatiga ta'sir etuvchi vertikal kuchlari hamda ishqalanish kuchlari ham katta boidi. Q't o'rgichlarda $l_s = (15-25)r$, g'alla o'rgichlarda $l_s h = (9-W)r$.



1.9.2-rasm. Krivoship-shatunli mexanizmlar sxemasi:

a-aksial KShM; й-dezaksial KShM; /-krivoship; 2-shatun; J-pichoq.

O'simlik poyalarini qirqishga sarflanadigan quvvat,

$$N = Ro V_p, \text{ N}$$

bunda i_0 -qirqishga qarshilik kuchi, N ; v_p - pichoqning tezligi, m/s. Qirqishga qarshilik kuchi R_a quyidagicha hisobianadi:

$$Ro = I_s + q_0 B, \text{ N}$$

bunda I_s - inersiya kuchi, N; $q_0 = 750 \text{ N/m}$; B - qamrash kengligi, m. Inersiya kuchi quyidagicha aniqlanadi:


$$I_s \sim (m_p + m_{sh}/3) r w^2, \text{ N}$$

bunda m_p pichoq massasi (3,4 kg); m_{sh} - shatun massasi (3,1 kg):

r - krivoship radiusi (0,038 m); w - krivoshipning burchak tezligi, rad/s.

KC-Ф-2,1B o'to'rgich rama, yuritma va qirqish apparati dan iborat. Segment-barmoqli qirqish apparatining asosiy qismlari (1.9.3-rasm) segmentli pichoq, barmoqli bms 14; tayanch boshmoqlar 2 va 6, barmoqlar 8, ishqalanish plastinalari 13 va qisqichlar 11 dan iborat. Ichki boshmoqqa oldingi 3 vaketingi 16 yoiialtirgichlar biriktirilgan.

Yo'naltirgichlar pichoqning kallagini to'g'ri chiziqli harakatlantirish uchun xizmat qiladi. Po'lat chiviq 1 o'rildigan o'simlik poyalarini pichoq tomonga og'diradi. Tashqi boshmoqqa mahkamlangan taxta 7 va poiat chiviq o'rulgati o'tlami ichki tomonga og'dirib, yo!! ochadi. Agregatning navbatdagi yonma-yon o'tishda traktor g'ildiraklari shu yoidan harakatlanadi.



1.9.3-rasm. KC-Φ-2ДВ о't o'rgichining segment-barmoqli qirqish apparati:

/-ayirgich; 2,5-ichki va tashqi boshmoqlar; J;/6-oldingi va ketindi yo'naltirgichlar; 4-kallak; <5-sirrangich; 7-dala taxtasi; 5-barmoq;

P-ichquyma; 70-segment; 1 /-bosish panjası; 72-pichoq yeikasi; 75-ishqalanish plastinasi; 74-barmoqli brus; 15; 17-chuv.

Po'latli brus 14 ga 27 dona barmoq (qamrash kengligi 2,1 m va barmoqlar qadami 76,2 mm li apparatda) yashirinma kallakli boltlar bilan qotirilgan. Qarshi qirqish plastinalari 9 barmoqlaming ichki qismiga parchin mixlar bilan mahkamlangan. Bu plastinalar, ba'zan ichquymalar deb ataladi.

Segmentlar 10 biriktirilgan po'lat polosa 12 pichoq yelkasi deb ataladi. Segmentlar ichquymalaming ustida tirqishsiz ilgarilanma-qaytma harak?tlanadi, Pichoq kallagining va segment!arning orqa qismi ishqlanish plastinalari 13 ustida sirpanadi. Segmentlar ichquymalar ustida tirqishsiz sirpansa, poyalar tekis, yulinmasdan qirqiladi. Lekin bunga erishish qiyin bo'lgani uchun segmentning faqat yuqori asosi ichquymalarga yopishib sirpanadi, quyi qismi esa ko'pi bilan 1-2 mm tirqish hosil qilib joylashadi. Tirqish katta bo'lsa, poyalar segment bilan plastina orasiga kirib qoladi, Tirqish bo'lmasa, segment yeylimadi va sinish ehtimoli oshadi.

Qisqichlar 11 .yegmentlami ichquymalarga bosib turadi, Ishqlanish plastinalarning oldingi yuzasi pichoqning yelkasiga urinishi lozim. O't o'rish jarayonida qirqishga qarshilik kuchlarining tik yo'nalgan tashkil etuvchisi pichoq plastinasiga qisadi. Bannoqlar va qisqichlar bog'lanuvchan КЧ 33-8 cho'yandan tayyorlanadi. Tortish shtangasining oldingi uchi rarnadagi o'qqa, ketingi uchi esa o'rish apparatining ichki tayanch boshmog'idagi o'qlar 15 va 17 ga birlashtiriladi.

КС-Ф-2ДВ о't o'rgichn'mg texnikaviy tavsiflari

- ^ turi yaiimosma;
 - ◆ agi'egatlanadi 0,9; 1,4 klass traktorlari bilan;
 - ◆ 1 soat asosiy vaqt davomida ish unumi 5,4 ga/soat;
 - 4 qamrash kengligi 2,1 m gacha;
 - ◆ o'rish apparati o'ng tomonlama, baland qirqadigan, pichog'i bir yo'l o'tadigan;
- 4- ishchi tezligi 6-9 lcm/soat; massa 280kg.

Qirqish apparatining asosiy rostlashlari. Qirqish apparatini harakatlantiruvchi shatunning uzunligini o'zgartirib, pichoqning chetki holatlarida segment o'qini qo'zg'almas barmoq o'qi ustiga tushishi sozlanadi. Segment bilan barmoq plastinasi orasidagi tirqish 1,5-1,0 mm bo'lishi uchun bosuvchi qisqich segmentga tegib turishi kerak.

0'rish balandligini sozlash uchun apparat tayanib turadigan boshraoqlar sirpangichlarining holatini o'zgartirish lozim. Kompen-satsion prujinalar tarangligini o'zgartirib, ichki boshmoqlarning yerga tushiradigan bosimi 250-350 N, tashqi boshmoqlarning yerga tushiradigan bosimi 80-150 N boiishiga erishiladi,

Segmentli pichoqning tebranish (yoki krivoshipning aylanish chastotasi) bir yoi o'tuvchi pichoq uchun 900-1000 min¹, ikki yo⁴I o'tuvchi pichoq uchun esa 450-550 min¹,

Ishni bajarish tartibi

1.KC-Φ-2,1B o' to'rgichning vazifasi ish jarayoni, ishchi organlarining konstruksiyasi o'rganiladi.

2.KC-Φ-2,1B o't o'rgichning principial sxemasi chiziladi.

3.0't o'rgichning asosiy konstruktiv parametrleri o'rganiladi va sxemada ko'rsatiladi.


4. Barmoqli brusni shatun harakatining vertikal tekisligidan og'ishi rostlanadi. O'z o'rgichning barmoqli brusi ish jarayonida pichoqning harakat chizig'i shatun simmetriya o'qining gorizontal proeksiyasiga parallel qilib o'rnatilgan bo'lishi kerak. Aks holda, barmoqli brus va pichoq detallari shatun tomonidan yo'naltirilgan kuch ta'sirida katta yejilishga ega bo'ladi. 0't o'rgich ishlaganda brusning tashqi sirpangichi tortqi shtangasi deformasiyasi va birikmalaridagi tirkishlari ta'sirida orqaga og'adi; pichoqning harakat chizig'i shatun simmetriya o'qi gorizontal proeksiyasiga naparallel bo'madi. Bu holatda pichoqqa qo'shimcha kuch ta'sir etadi. Buni oldini olish uchun baroqli brusning o'ng chekkasi 1,5-2,5 sm oldinga suriladi. Buning uchun:

4 o'to'rgich ish holatida shatunning simmetriya o'qi gorizontal tekisligiga proeksiyalanadi. Shovun yordamida, shatunning chekka nuqtalari gorizontal tekkisligiga proeksiyalanadi *van n* (1.9.4-rasm) chiziq chiziladi.

◆ *n n* chizig'idan *m* masofada *SS* chiziq chiziladi, /y va fomasofa *o'cB.an&d\./z=1+Z..A* sm shart saqlanishi lozim.

◆ tortish shtanga sharniridagi eksentrikli vtulka buriladi. Eksentrikli vtulka sharnir bilan bolt yordamida biriktirilgan. Tortish shtangasi ichki sirpangich bilan shtir yordamida biriktiriladi. Ichki

sirpangichning ro'stlashi rostlovchi bolt va vtulka yordamida bajariladi.




1.9.4-rasm. O'to'rgichning barmoqli brusi shatun harakati tekisiigiga nisbatan chiqishi:
1-shprengel; 2- quioqcha

Ba'zi bir holatlarda brus tashqi sirpangichining oldinga chiqish masofasi shpengel 1 bilan biriktirilgan quioqcha 2 (1.9.4-rasm) yordamida rostlanadi. Masofani oshirish uchun quioqcha ichki sirpangichiga burab kiritiladi; masofani kamaytirish uchun quioqcha burab chiqariladi.

5. Segmentlar va qarshi qirqish plastinasi (ichquyma) orasidagi tirkishini rostlash. Qirqish apparatining qirqish sifati segment va ichquyma orasidagi tirkishga bog'liq. Pichoqning oldingi qismida segmentlar va ichquymalar bir-biriga tegib turishi. kerak (1.9.3-rasm), orqa qismida esa tirkishning masofasi $\approx 0,3^0,5$ mm ga teng bo'ladi. Tirkishni rostlash uchun:

◆ Barmoqli brus to'g'ri lanadi. Brus egri chiziqli pastga egik holatda yasaladi ($a-b-c$ chiziq) (1.9.5-rasm). Ish holatida gorizontal maydonchada barmoqli brus to'g'ri chiziqli bo' I ish i kerak. Barmoqli brusning to'g'ri chiziqligini tekshirish uchun brus yuqori orqa qirrasidan shnur tortiladi. Agarda shnur brus qirrasi bilan mos kelmasa, brus 6—7 zvenolarining uzunligini o'zgartirish yo'li bilan to'g'rila nadi. Buning uchun tortqining rezbali chekkasi zveno qulqchasiga burab kirdizadi.

Zveno 6-7 uzunligini kattalashishi yoki qisqartirishi barmoqli brusning ichki va tashqi sirpangichlariga ta'sir etuvchi yuklamani o'zaro nisbatini o'zgartiradi.



1.9.5-rasm. 04 o‘rgichning bamoqli brusini ko‘tarish mexanizmi sxemasi:

1-2, 2—3, 3-4, 4-5, 5-6, 6-7, 7—5-barmoqli brusini ko‘tarish mexanizmi zvenolari; JJI-tortuvchi shtanga; abc-egilgan barmoqli bms hoiati; Z)-rostlovchi boit.

Zveno 6-7 qisqartirilsa, tashqi sirpangichga ta’sir etuvchi yulama kamayadi va barmoqli brus yuqoriga egialiadi. Lekin brus pastga egilgan qilib yasaladi, natijada tashqi sirpangich yuksizlantiriladi va ayrim darajagacha to‘g‘rilanadi.

◆ Pichoq chekka holatga qo‘yiadi.

□ Segmentlar va qarshi qirqish plastinalarning oraliq tirqishi yordamida tekshiriladi va talab etilgan tirqish barmoqlar to‘g‘rilash natijasida kerakli qiymatga keltiriladi.

6.Tajriba natijasida oichangan va hisoblangan zarur konstruktiv va texnologik parametrlar jadvalga yoziladi.

0“t o‘rgichning parametrlari

Qam-rash kengligi <i>B</i> , m	Segment-lar qadami <i>t</i> , mm	Barmoqlar qadami <i>to</i> , mm	Pichoq yo‘li <i>S</i> , mm	Qirqishga sarflanadigan quvvat <i>N</i> , <i>Vt</i>	Qirqishga qarshilik kuchi <i>Ro</i> , N

Bajarilgan ish bo'yicha hisobot mazmuni

1. KC-Ф-2ДВ о't o'rgichning konstruksiyasi, asosiy ishchi organlarining vazifasi va ish jarayoni qisqa bayoni.
2. KC~Ф-2,1B o't o'rgichning rostlashlari bayoni.
3. 04 o'rgichning prinsipial konstruktiv sxemasi.
4. Segment-barmoqli qirqish apparatlarining turlari va ularni ifodalovchi tenglamalar formulalari.
5. 04 o'rgichning segment-barmoqli qirqish apparati sxemasi.
6. Tajriba yo'li bilan olingan KC-Ф--2,1B o't o'rgichning asosiy parametrlari jadvali.
7. Xulosa.

Masala.¹⁷ Qamrash kengligi 2,1 mli o't o'rgichning segment-barmoqli qirqish apparati pichoq massasi 3,4 kg, shatun massasi 3,1 kg; krivoship radiusi (0,038 m); krivoshipning burchak tezligi, 9,17 rad/s. Qirqish apparati inersiya kuchi aniqlansin.

Berilgan: $B = 2,1\text{m}$; $m_p = 3,4 \text{ kg}$; $m_{sh} = 3,1 \text{ kg}$; $r = 0,038 \text{ m}$; $w = 550 \text{ min}^{-1} = 9,17 \text{ rad/s}$.

Masalaning yechilishr. Qirqish apparati inersiya kuchi quyida-gicha aniqlanadi:

$$I_s = (m_p + m_{sh}/3) rw^2 = (3,4 + 3,1/3) \cdot 0,038 \cdot (9,17)^2 = 14,16 \text{ N}$$

Javob: Qirqish apparati inersiya kuchi $I_s = 14,16 \text{ N}$.

Nazorat savoHari

1. Qirqish apparatlarining qanday turlari bor?
2. Segment-barmoqli qirqish apparatlari parametrlarining 'zaro nisbatiga qarab qanday turlarga ajraladi? Bu nisbatlami har bir apparat turi uchun yozing.
3. Tayanchga tirab va tayanchga tiramasdan qirqish apparatlarining pichoqlari o'sirnlik poyalarini qanday lezliklarda q'trqadi?

¹⁷ Engineering principles of agricultural machines 2nd Edition. Ajit K.Srivastava. Michigan State University and others. Copyright © 2012 by the American Society of Agricultural and Biological Engineers.

1.10. MX-1,8 rusumli vertikai shpindelli paxta terish masSsraasi (PTM) ajratklchlaring shpindellarga msbatan va kamera darchasining holatlarini rostlasb

Ishning mazmuni: MX-1,8 rusumli vertikai shpindelli paxta terish mashinasining konstruksiysi, texnologik ish jarayoni va terish apparati texnologik rostlashlarini o‘rganish, ajratkichlarning shpindellarga nisbatan holatini va kamera darchasini holatini rostlash.

Kerakii uskunalar va jihozlar: MX-1,8 rusumli vertikai shpindelli paxta terish mashinasi, vertikai shpindelli apparatlarni tadqiqot qilish stendi, PTM ishchi organlari, plakatlar, chizmalar, o‘quv adabiyotlari, o‘lchash asboblari to‘plami.

Ishb hajmi: laboratoriya ishi 3 soat auditoriya vaqtiga va Isoat mustaqil ishlashga mo‘ljallangan.

Umumiylar

Paxta terish mashinaiari (PTM) ikki yoki to‘rt qatorli qilib tayyorlanadi. PTM 0,9 yoki 1,4 klass traktorlariga yoki o‘ziyurar shassiga o‘rnataladi. Mashina qator oralari 60 yoki 90 sm qilib ekilgan g‘o‘za tuplaridagi ochilgan ko‘saklarning chigitli paxtasini terishga mo‘ljallangan. Mashina terimi g‘o‘za tuplaridagi barcha ko‘saklarning kamida 60 foizi ochilganda boshlanadi. Bu davrga kelib o‘rtacha nav g‘o‘zalar bo‘yi 60-100 sm, uzun tolali nav g‘o‘zalar bo‘yi esa 150 sm bo‘ladi.

Mashina terimi oldidan g‘o‘zalar defoliatsiya qilinib, barglar sun‘iy to‘ktiriladi. Shunda barglarning kamida 70 foizi to‘kilishi lozim. Mashina terimi ikki marta bajariladi. Birinchi terim ko‘saklaming yarmidan ko‘pi ochilganda, ikkinchi terim esa ikki haftadan keyin o‘tkaziladi. Birinchi terimdan so‘ng desikatsiya o‘tkaziladi, ya’ni defoliatsiya natijasida biror sabab bilan barglari to‘kilmay qolgan maydonlardagi g‘o‘zalarga kimyoviy dorilar sepib, sun‘iy quritiladi.


MX-1,8 rusumli traktorga yarim osma paxta terish mashinasi o‘rta tola paxta navlarining g‘o‘za qator oralari 90 sm bo‘lgan maydonlardagi ochilgan paxtani terishga mo‘ljallangan (1.10.1-rasm).

MX-1,8 rusumli PTMning texnikaviy tavsiflari

◆ turi	yarim osrrr
◆ agregatlanadi	TT3-80.1 Itraktor bilan
◆ qamrash kengligi, m	1,8
Φ qator oraligi, sm	90
◆ ishlov beriladigan qatorlar soni, dona	. 2
◆ soat asosiy ish vaqtidagi ish unumdorligi, ga/soat:	0,76 - 0,92
◆ gabarit o4ehamlari, m,(ortiq emas) ..	7950x3350x400
4 massasi (traktor siz), kg	3720
◆ bunkerning sig'imi, kg (m^3)	650...800 (13,8)
◆ bunker turi	ag' darma
◆ harakat tezligi, km/soat	-birinchi terimda (2-uzatma) 4,23 -ikkinchi terimda (3-uzatma) 5,23 -transport tezligi, km/soat 15,0
◆ bir o'tishda yetilgan hosilni terish to'liqligi, %	85
◆ bir o'tishda paxtaning yerga to'kilishi, %,	8
◆ apparat turi	vertikal shpindelli
◆ apparatlar soni, dona	2
◆ blokda shpindelli barabanlar soni, dona	8
Φ narabandagi shpindellar soni, dona	12
◆ barabanning diametri, mm	292
◆ blokdagi ajratgichlar soni, dona	12

PTM dala bo'ylab harakatlanganda ochilgan paxtasini ikki tomonlama va ikki marta qayta teradi. Tupko'targichlar 4 va old g'ildirakning suyrilari ikki qatorning g'o'za tuplarini juft barabanlar o'rtasiaagi ish tirqishiga yo'naltiradi. Barabanlar 1 ish zonasida mashinaning harakat yo'nalishiga teskari tomonga aylanadi. Barabanlarning aylana tezligi n mashina tezligi v,, dan 1,3-1,6 marta katta bo'lganidan barabanlar g'o'za tuplarini ortiqcha og'dirmasdan tirqish tomonga tortadi. Shpindellar ish zonasida mashina harakati tomonga aylanadi. Shunga ko'ra o'ng baraban shpindellari soat mili yo'nalishida, chap baraban shpindellari esa qarshi tomonga aylanadi va bu shpindellar o'naqay va chapaqay tishli deb ataladi, Barabanlarning aylanasi bo'ylab joylashgan shpindellar o'zining


tishli sirti vositasida ko'saldardagi ochilgan paxtani ilib olib, o'ziga o'raydi. Barabanlaming burmalari ko'k ko'sakiarning shpindellar c-rasiga kirib tiqilib qolishiga voi qo'ymaydi.



1.10.1-rasm. Paxtaterish mashinaning texnologik ish jarayoni sxemasi:
i-shpindelli barabon; 2-shpindel; 3-ajratgich; 4-tup ko'fargich; 5-qabul kamerasi;
6- terish apparati; 7-g'o'za tupiari

Baraban aylanishda davom etib shpindellarni paxta terish (ish) zonasidan olib chiqqach, ulami ajratgichlar 7 zonasiga keltiradi. Bu zonada shpindellar teskari aylantirish kolodkasining ponasimon tasmalariga duch kelib teskari tomonga aylana boshlaydi. Cho'tk.ali ajratgichning aylana tezligi shpindellamikidan olti hissa katta. Cho'tkaning qillari shpindellaming tishlariga 0,5-1,0 mm gacha botib turadi va shpindelga o'ralgan paxtani yechib oladi. Paxta terish apparatining old va ketingi juft barabanlarining shpindellaridan ajratib olingan paxta har qaysi tomonda uchta ajratgich yordamida qabul kamerasiga uzatiladi. Qabul kameratubi ochiq vertikal tirqishli irubadan iborat. Barcha og'ir qo'shilmalar (kesak, mayda tosh, ko'k-yashil ko'sakiar va b.) yerga to'kilad.i, paxta esa ventilyator hosil qilgan havo oqimi la'sirida pnevmatik transport trubalari bo'ylab bunkerga boradi.

Vertikalli shpindel / (1.10.2-rasm) uch xil harakatda qatnashadi: mashina bilan ilgarilanma, shpindelli baraban bilan uning markaziga nisbatan aylanma va o‘z o‘qi atrofida aylanma harakat qiladi. Rimday harakatlarni ta’minlovchi yuritma eng oddiy ishqalanma turdag'i planetar mexanizm bo‘lib, uning quyosh (markaziy) g'MIdiragi qo‘zg‘aImas tasma (kolodka)lar 9 va 11 bilan almashtirilgan. Ish zonasida aylantirish tasmalari shpindelning yuritish roliklari 10 ga tashqi tomondan urinadi, ajratgichlar zonasida esa teskari aylantirish kolodkasi roliklarga ichki tomondan urinadi. Qo‘zg‘almas tasmalar tarangligi prujinalar bilan rostlanadi. Shpindel to'xtaganda uning sirtiga o'ralgan paxtaga teskari yo‘na!gan katta tezlanish ta’sir etadi.



I.10.2-rasm. Vertikal shpindelli paxta terish apparatining sxemasi;


/ -shpindel; 2 - shpindelli baraban vali; 3 - pastki disk; 4 - ro'para shchit; J - gofrali baraban; 6 - yuqori disk; 7 - yuqori panel; S - tishli g'ildirak; P - ichki kolodka; /0 - rolik; 17 - tashqi kolodka

Shunda paxta o‘rami shpindel sirtidan biroz ko‘chadi va shpindel bilan birga uning o‘qi atrofida teskari yo‘nalishda aylanmaydi. Lekin ko‘pchilik hollarda paxta shpindeldan o‘z-o‘zicha yechilmaydi.

Shuning uchun paxta cho'tkali ajratgichlar yorci[^]
 urib yoki tarab ajratib olinadi. Ajratgichning chen[^]a yechib tortib,
 terilgan. Plankalar esa barabanda silindr yas[^]ari plankalarga
 chiziqlari bo'ylab joylashtirilgan. hilari y₀[^]i v_n^t

Shpindeilar ajratish zonasida paxtadan toij[^]

Shpindeida qolgan tolalar keyinchalik mustahk[^]¹Zalanishi lozim.
 ko'saklardagi oehilgan paxtani ilib olish qobj[^] Vopishib. tishlar
 B unday hollarda shpindeilar maxsus metajj[^] atini yo'qotadi.
 tozalanadi. Shira bosgan shpindeilar suv bilan y_b[^] ch^o^tkalar bilan
 ikki xil: yaxlit va tarkibiy boiadi. Yaxlit shpij[^]*ladi. Shpindeilar
 qalin devorli po'lat trubadan iborat bo'lib, unin[^] ^ O-10.3,,_a-_{ra}sm)
 qator tishlar kertiladi, har qatordagi tishlar qaclg.[^]shqi sirtida to'rt
 mm. Tarkibiy shpindel (1.10.3,6-rasm) oddiy p[^]* va balandligi 2
 vint chiziq yo'nalishida o'ralgan tishli poiат 1e^ц truba^{lat} unga
 dan iborat.




1.10.3-rasm. Vertikal shpindel][^]

a-yaxiit; 6-tarkibiy; /-qopqoq; 2-vtulka; 3-rolik; 4-shpj

1-5-P^odshipnik

Ko'sakdag'i ochilgan paxtani terishda shpindellaming tishlari paxta bo'laklariga sanchiladi, tolalar orasiga kiradi, ularni shpindelga o'raydi. Shpindel tishlarining paxtag? sanchilib tolalar orasiga botish qobiliyati paxta terish apparati asosiy parametrlarining o'zaro nisbatiga bog'liq. Bunday parametrlarga shpindel va barabanning diametrlari, aylanish tezliklari, shpindellar soni, mashina tezligi va h.k. kiradi. Bu parametrlar shpindel tishlarining faolligini va sirttnoqsimon absolyut traektoriya bo'ylab harakatlanishini ta'minlashi lozim. Barabanning aylanish tezligi tuplarining ish tirqishiga tortilishi ko'maklashishi lozim.

G'o'zapoyalar apparatning ish tirqishiga kirishdan oldin tupyo'naltirgichlar 1 (1.10.4-rasm) orasida siqiladi, og'ib qolgan shoxlar ko'tariladi. Ish tirqishi 26-34 mm.



1.10.4-rasm. G'o'za tuplarining barabanlar orasidagi ish tirqishiga tortilishi sxemasi:

/- tup yo'naltirgich; 2-shpindelli baraban; 3- g'o'za tuplari

Siqilgan g'o'zapoyalar shpindel bilan A nuqtada uchrashadi. G'o'zapoyalaming shpindelli barabanlar ta'sirida ish tirqishiga faol tortilishi uchun A nuqtaning v_{\parallel} , absolyut tezligi v_{\parallel} , mashina tezligiga qarshi yo'nalgan bo'Mishi lozim.

Absoljojt tezlik baraban v^* va mashina v_{\parallel} , tezliklarining geometrik yig'indisiga teng:

$$\overline{V_a} = \sqrt{v^2 + v_b^2}$$

Bu tenglama absolut tezlik vektori v_a ga tik yo'nalgan holati uchun yozilgan. Sxemadan ko'rish mumkinki, bu holat $v^* > v_m$ bo'igandagina yuzaga keladi. Shpindel sirti bilan tuplar orasida ishqalanish borligidan absolut tezlik yo'nalishi ichkari tomonga ishqalanish burchagi $< p$ ga og'ib, katta qiymatga erishadi va tuplarni ish tirqishiga kuchli tortadi.

Baraban va mashina tezliklarining o'zaro nisbati shpindeli barabanning mashina tezligiga nisbatan o'zish koeffitsiyenti deyiladi:

$$K = Vb / v_m = Wb R / v_m$$

Amalda $K = 1,3-1,6$ qabul qilinadi. K ning qiymati kattalashishi bilan g'o'za tuplarining old tomonga og'ishi kama3'adi, ayni vaqtida paxtani tuplardan yig'ish toiiqligi oshadi. Lekin $K \sim 1,6$ dan kattalashganda xom ko'saklarning uziiib yerga to'ki!ishi ortadi. Tuplar odatda $35^\circ-50^\circ$ ga og'adi.

PTMning asosiy parametrlari

1. Shpindelning aylanish tezligi:

$$n_s h = 60 v_s h / Ttdsh, \text{ min}^{-1}$$

bunda $v_s h = 1,6-1,7$ in/s qabul qilinadi, $d_s h$ o'lchanadi;

2. Barabandan shpindelga harakat uzatish nisbati:

$$i = (R \pm r) / r$$

bunda R - barabanning shpindellar markazigacha radiusi,in
 r - shpindel yuritish g'altagini yumalash radiusi ,m. «» ishorasi shpindelni teskari aylantirish zonasini uchun qabul qilinadi. R va r qiymatlari o'lchanadi

3. Shpindelli barabanning aylana teziigi

$$\sqrt{b} - Tt R rish / 30 i, \text{ m/s};$$

4. Mashinaning harakat tezligi

$$v_m = v_b / K, \text{ m/s};$$

5. Shpindelli barabanning aylanish tezligi

$$n_b = 30 K v_m / TCR, \text{ min}^{-1};$$

6.1sh zonasida shpindellarni aylantirish tasmasi ish qismining uzunligi

$$L = it (R+r) (y_i + y_i) / 180, \text{ mm},$$

bunda ($y_i + y_2$) - ish zonasida yuritish tasmalarining shpindel roliklarini qamrash burchagi (apparatdan O'chanadi).

7. Shpinielning ish zonasida bir marta avbnish vaqt;

$$T = 60/p_s k, \text{ s}$$

8. Shpindel markazining L masofasini o'tish vaqtி

$$t = (y_i + Y_2) / (60m), \text{ s.}$$

9. Shpindelning ish zonasida o'z o'qi atrofida aylantirishlari soni

$$z = t/T$$

10. Baraban A nuqtasining ishqalanish hisobga olingandagi absolut tezligi:

$$v_j = v_{\infty} \sin y_i / \sin \{ 90 - y_i - \angle p \}, \text{ m/s}$$

bunda $f_i = 90 - y_j - \angle p ; \angle p$ - ishqalanish burchagi, $c_p = 30^\circ$.

PTM ikki xil rostlanadi: 1) paxta terishda qatnashadigan ishchi organlari va mexanizmlarni rostlash va 2) mashinaning ish qobiliyatini ta'minlaydigan mexanizmlarni rostlash.

1. Yondosh barabanlarning shpindellarini shaxmat tartibida o'matish va ish tirkishining kengligini rostlash. Ish tirkishining kengligi 22-32 mm apparatlarning ham o'ng, ham chap qismlari uchun tashqariga chiqarilgan rostlash vinti orqaii o'zgartiriladi. Vint barabanlar diskiga ta'sir etadi. Disk bir marta aylantirilganda tirkishning kengligi 1 mm ga o'zgaradi. Old barabanlar o'rtasidagi ish tirkishining kengligi ketingi barabanlar orasidagi tirkishidan 2 mm ga kengroq qilib o'rnatilgan. Oldingi va ketingi kulachoklarni birlashtiruvchi tortqilarning uzunligini o'zgartirib, old va ketingi ish tirkishlari o'rtasidagi farqni o'zgartirish mumkin. Ish tirkishining kengligi shpindellarning yuqorigi va pastki qismlarida maxsus shchup bilan o'chanadi. Tirkishning pastki qismi 2 mm gacha kengroq bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Ish tirkishini oichash vaqtida shpindellar shaxmat tartibida, ya'ni bir-biridan yarim qadam narida turishi kerak. Shunda faqat bir juft barabanlar o'rtasidagi ish tirkishining kengligi o'mchanadi, ikkinchi juft barabanlar o'rtasidagi tirkish esa avtomatik tarzda o'rnatiladi.

2. Ajratkichlarning shpindellarga nisbatan holatini rostlash, Cho'tkaning qillari shpindellarning tishlariga ko'pi bilan 1,5 mm botib turishi lozim, chunki bundan ortiq botib tursa, cho'tk.a tezda ishdan chiqadi. Ajratkichlarning holatini rostlashda ajratkichning yuqorigi korpusini maxsus bolt atrofida aylantirib, cho'tkalar

shpindellarga yaqinlashtiriladi. Cho'tkaning pastki qismidagi qiliari ko'proq yeyilgan bo'lsa, cho'tkani aylantirib qo'yish kerak; oldingi va ketingi ajratkichlarning to'g'ri rostlanganlipini tekshirish oson bo'lishi uchun oldingi barabanda ajratkichlar o'rtasidagi joylashgan taranglovchi tortqi tez olinadigan qilib o'matilgan.

3-Kamera darchasi holatini rostlash. Shpindelli barabanlardagi paxtani ajratkichlar yordamida qabul kamerasiga to'g'ri, to'xtovsiz uzatish hamda kameraning ishonchli ishlashi uchun darcha bilan oldingi ajratkich o'rtasidagi tirkish 5-7 mm qilib saqlanadi. Bu tirkish oraiiq to'sig'inining yuqori qismida joylashgan boltlar yordamida rostlanadi.

4.Apparatlami mashinaning bo'ylama o'qiga nisbatan to'g'ri joylashtirish. Buning uchun a) yetakchi g'ildiraklaming orasi (koleyasi) 2400 mm ekanligi va ularning traktor bo'ylama o'qiga nisbatan simmetrik joylashgani tekshiriladi, b) g'ildiraklar shinalaridagi havo bosimining me'yorga mos ekanligi tekshiriladi; d) apparatlar ish tirkishlarining maxsus maydonchadagi reja chiziqlariga nisbatan paralelligi tebratkich vallarining podshipniklari bilan ramaning ko'ndalang brusi orasiga vertikal tekislikda qistirmalar o'rnatib rostlanadi.

5.Apparatlarning tortqisini rostlash. Apparatlar o'matilgan ramkalarning parallelelligi apparat tortqisining vinti va kontrgayka orqali rostlanadi.

6.Shpindelli barabanlamingparallelelligini rostlash. Barabanlarning yuqori va pastki qismlarida ish tirkishlarining kenglikiaridagi farq 2 mm dan ortiq bo'lmasligi kerak. Rostlash karkas ramasi brusining ostiga qistirmalar qo'yib tuzatiladi.

7.Apparatlar reduktorining va tarqatish reduktorining konus shesternyalarini rostlash. Shesternyalar tishlari orasidagi yon tirkish 0,15-0,50 mm bo'lishi lozim. Tishlar bir-biriga uringanda qoldiradigan izi tishning o'rtasida, konusning cho'qqisiga yaqinroqda kamida 50-60 foiz joyda bo'lishi kerak.

8.Apparatlar osmasining muvozanatlovchi prujinalarini rostlash apparatlarni yuqoridagi salt holatga ko'tarilib qo'yilgan holda markaziy vintni burab taranglanadi.

9.Ventilyatorlar, ularning tasmalarining tarangligini, shkivlar va taranglash qurilmasi roliklarining holatini rostlash.

Ishni bajarish tartibi

- Vertikal shpmidelli PTMsining vazifasi, ish jarayoni, ishchi organiarining konstruksiyasi o‘rganiladi.
- Vertikal shpindelli PTMsining prinsipial sxemasi chiziladi.
- PTMning ishini tavsiflovchi asosiy konstruktiv parametrлари o‘rganiladi va sxemada ko‘satilad i.
- PTM ajratkichlarining shpindellarga nisbatan holati rostlanadi (p.2).
- PTM kamera darchasining holati rostlanadi (p.3).
- Bevosita oichangan va hisoblangan parametrlarning qiymatlari jadvalga yoziladi.
- Jadvai ma’lumotlari asosida 1:5 masshtabda shpindelli baraban va tezliklaming yoiiish sxemasi (1.8.4-rasm) chiziladi.

PTMsining tajriba yoii bilan oichangan va hisoblangan parametrlari

Db , mm	(ish-mm)	r , mm	i	$n_s f$, min ⁻¹	n , m/s	Π_b , min ⁻¹	K	V_m , m/s	γi +Y2-grad	z	$\frac{?}{h}$

Bajarilgan ish bo‘yicha hisobot mazmuni

- Vertikal shpindelli PTMning konstruksiyasi, asosiy ishchi organiarining vazifasi va ish jarayoni qisqa. bayoni.
- Vertikal shpindelli PTMning rostiashlari bayoni.
- Vertikal shpindelli PTMning prinsipial konstruktiv sxemasi.
- Vertikal shpindelli paxtaterish apparati (PTA)ning sxemasi.
- Tajriba yoii bilan olingan PTMning asosiy parametrlari jadvali.
- Shpindelli baraban va tezliklaming yo‘nalish sxemasi.
- Xulosa.

Masala. Shpindel yuritish g‘altagining yumalash radiusi 0,0155 m; ish zonasida yuritish tasmalarining shpindel roliklari orasidagi

burchak 30° : shpindelli barabanning diametri 0,292 m. Ish zonasida shpindellarni aylantirish tasmasi ish qismining uzunligi aniqlansin.

Berilgan: $r = 0,0155$ m, $y_1 = y_2 = 30^\circ$, $R = 0,292 / 2 = 0,146$ m.

Masalaning yechilishi:

$$L = TC(R+r)(y_1 + y_2) / 180 = 3,14(146+15,5)(30^\circ + 30^\circ) / 180 \\ = 169 \text{ mm},$$

Javob: ish zonasida shpindellarni aylantirish tasmasi ish qismining uzunligi $L = 169$ mm.

Nazorat savollari

1. Paxta terish mashinasiga qanday agrotexnik talablar qo'yiladi va bu talablami bajarish uchun mashina qanday tuzilgan?
2. Paxta terish apparati qanday qismlardan tuzilgan va ularning vazifalari nimadan iborat?
3. Shpindellaming yuritmalarini va barabandan harakat uzatish nisbatini aniqlash formulasini tushuntiring.
4. Shpindelli baraban tezligining o'zish koeffitsiyenti nima va u paxta terish sifatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Vertikal shpindellar va cho'tkali ajratgichlaming qanday xillarini bilasiz hamda ular qanday tuzilgan va ishlaydi?

1.11. "John Deere-7260" gorizontal shpindelli PTMning sSipindelii kassetalarini o'rnatish va shpindellarga harakat uzatuvchi uzatmani rostlash

Ishning mazmuni: "John Deere-7260" gorizontal shpindelli paxta terish mashinasining konstruksiyasi, texnologik ish jarayoni o'rganish va uning shpindelli kassetalarini o'rnatish va shpindellarga harakat uzatuvchi uzatmani rostlash.


Kerakli uskunalar va jihozlar: gorizontal shpindelli paxta terish mashinasi, gorizontal shpindelli apparatlarni tadqiqot qiiish stendi, apparati arning ishchi organlari, plakatlar, chizmalar, o'quv adabiyotlari, o'lchash asboblari to'plami.

Ish hajnii: laboratoriya ishi 3 soat auditoriya vaqtiga va Isoat mustaqil ishlashga mo'ljallangan.

Umumiy ma’himotlar

“John Deere-7260” gorizontal shpindelli PTM ham vertikal shpindelli PTMga o‘xshab, shpindelli barabanlar, ajratkichlar, terilgan paxtani uzatish moslamasi, bunker kabi qismlardan iborat. Bu mashina vertikal shpindelli mashinadan shpindelli baraban, ajratgich va shpindellami yuvib tozalash moslamasining tuzilishi bilan tubdan farq qiladi. Gorizontal shpindelli paxta terish mashinasidan unumli foydalanish uchun chigit qatorlab qalin (100 kg/ga) ekilgan, g‘o‘za tuplaridagi ko‘saklarning deyarli hammasi ochilgan boiishi lozim.”¹⁸

“John Deere-7260” gorizontal shpindelli PTM terish apparatining shpindellari 3 (1.11.1-rasm) gorizontal holatda joylashgan bo‘lib, vertikal o‘q atrofida aylanadigan baraban 1 ga kassetalarda o‘matiladi. Baraban g‘o‘za qatorining yon tomonida joylashtiriladi.



1.11.1-rasm. “John Deere-7260” gorizontal shpindelli PTMni bir tomonlama terish apparatining sxemasi:

1-gorizontal shpindelli baraban; 2-g‘o‘za qatori; 3-shpindel;
4-ajratkch

¹⁸John Deere-7260 hanging horizontal spindle series 7260. Operation text-book. © 2008 John Deere, LLC Rac 6-3505


'Mashina dalada g'o'za qatori 2 bo'ylab harakatlanganda baraban harakat yo'nalishiga qarshi tomonga aylanadi, barabanning kasse-talaridagi gorizontal shpindeilar g'o'za shoxlarining orasiga Як holatda kirib o'z o'qi atrofida aylanib ochilgan paxtalami o'ziga o'rabiadi va yana shoxlar orasidan tik holatda chiqadi. Shpindeilar ish kamerasi 7 dan ehiqqach, diskli ajratkich 4 lar ostiga keladi.

"John Deere-7260" PTMning texnikaviy tavsiflari

Φ turi	tirkalma
♦ agregatlanadi	Magnum 8940 traktor bilan
♦ qator oraligi, sm	38 - 100
4 ishlov beriladigan qatorlar soni, dona 2	
♦ soat asosiy ish vaqtidagi ish unumdorligi, ga/soat:	0,97 - 1,15
♦ bunkeming sig'imi, m ³	13
Φ bunker turi	ag' darma
♦ harakat tezligi, km/soat - terimda (2,3-uzatma)	5,1-5,8
	- transport tezligi, km/soat 27,3
♦ gabarit oichernlari, mm,(ortiq emas)	6490x3500x3500
♦ massasi (traktor siz), kg	4500
Φ bir o'tishda yetilgan hosilning terish to'!iqligi, %	90
♦ apparat turi	gorizontal shpindelli
Φ apparatlar soni, dona 2	
4 blokda shpindelli barabanlar soni, dona	4
Φ barabandagi shpindeilar soni, dona	216
4 barabanning diametri, mm	410
♦ blokdagi ajratgichlar soni, dona	4

Disklar shpindellardagi paxtani halqasimon shaklda sidirib oladi va qabul kamerasi 8 ga (1.! 1.2.-rasm) uzatadi. Ventilyatordan yubo-rilgan havo oqimi qabul kamerasidagi paxtani mashinaning bunkeriga jo'natadi. Paxtadan bo'shagan shpindel 4 namlagich-larning yostiqchalari 9 ga kelib urinadi. Namlagichlar maxsus suyuqlik vositasida shpindellami shira, xom ko'sak, changdan yuvib tozalangan shpindel yana ish kamerasiga kiradi va jarayon

takrorlanadi.¹⁹ Gorizontal shpindelli PTA shpindelli barabanlarining g'oz'a qatorlariga nisbatan joylashishiga va asosiy qismlari (ajratgichlar, qabul kameralar va riamlagichiar)ning apparatdagi o'miga qarab bir-biridan farqianadi.



1.11.2-rasm. Ikki tomonlama gorizontal shpindelli PTAning ish jarayoni sxemasi:

1-tupko'targich; 2-ish kamerasi; 3-shpindel; 4-shpindel; 5-xas-cho'p chiqarish darchasi; 6-yo'lakcha; 7-ajratgich; 8-qabul kamerasi; 9-namlagich; 10-O-shpindelli baraban; 11-panjara; 12-siuvchi devor.

Terish apparatlari shpindelli barabanlarning g'oz'a qatorlariga nisbatan joylashishiga qarab ikki guruhga: g'oz'a tuplaridagi ochilgan paxtalarni bir tomonlama teradigan va baraban lari g'oz'a qatorining ikki yonida joylashib, paxtalarni ikki tomonlama teradigan apparatlarga ajraladi. Paxtani bir tomonlama teradigan apparatlar ikki tomonlama teradiganlarga nisbatan ensiz va ixchamroq bo'ladi, lekin ularning shpindellari siuvchi devor yonidagi paxtalarni chalaterGANI uchun ularning agrotexnik ko'rsatkichlari past darajada bo'iadi.

Har bir shpindel 3 panjara 11 ning tirkishlari orqali ish kamerasi 5 ga kiradi. Tirkishlaming kengligi shpindellarning chiqish joyida 28-

¹⁹Jelm Deere-7260 hanging horizontal spindle series 7260. Operation text-book. © 2008 John Deere, LLC Rac 6-3505


·32 mm boMib, paxta o‘ralgan shpindellaming erkin o‘tishiga yetarli bo‘ladi. G‘o‘za tuplaridagi ochilgan paxtani ikki tomonlama teradigan apparatda birinchi barabanning ish kamerasidan ch‘qayotgan shpindeii va ikkinchi barabanning ish kamerasiga kirayotgan shpindeli orasidagi masofa eng yirik ko‘sak diametridan katta bo‘lib, (60-80 mm), shpindelning uchi bilan siquvchi qo‘zg‘aimas devor orasi 6-7 mm ni tashkii etadi. Shpindellaming uchidan siquvchi devorgacha 2-5 mm oraliq qoldirish mumkin. Ko‘saklardagi paxtani to‘liq, ajratib olish uchun g‘o‘za tuplari ish kamerasida 70-100 mm kenglikgacha siqilishi lozim. Ish kamerasining kengligini bundan 18-20 mm ga kichiklashtirish mumkin. Bundan ortiq kamaytirilsa, shoxlar sinishi mumkin. G‘o‘zapoyalar ish tirqishiga ortiqcha siqili‘b kiritilsa, shoxlar ko‘p og‘adi va pastki ko‘saklar paxtasi terilmay qolishi mumkin. Yuqori va pastki rostlash vintlari siquvchi devorga prujinalar orqali ta‘sir etadi. Kuchli rivojlangan g‘o‘za tuplari o‘tganda, xom ko‘saklar ko‘p bo‘lganda prujinalar siqilib, ish kamerasining kengayishiga imkon beradi.

ish kamerasining balandligi g‘o‘za tuplarining bo‘yidan 200-250 mm ga kam boiib, 650-700 mm ni tashkii etadi. Shpindelli baraban 10 ning aylanasida 12 ta vertikai kasseta joylashgan. Har bir kassetaga 12-16 dona shpindel o‘rnatalidi.

Shpindelning diametri paxta terish mashinasining ish sifatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Diametr qancha kichik bo‘lsa, tolaiarning shpindelni qamrash boshlang‘ich burchagi shuncha katta boiib, shpindelning paxtani ilib olish imkoniyati shuncha yaxshilanadi. Lekin $d_s h$ ortiqcha kichik bois, uning sirtidagi paxtani ajratib olish sharoiti yomonlashadi va shpindel sinishi mumkin.

Shpindelning konusli burchagi $6,5-8^\circ$, o‘rtaligining qismidagi diametri $d_s h = 9,5-10$ mm (1.11.3-rasm), ish qismining uzunligi $l_{is} h = 70-90$ mm, tayanch qismining uzunligi 50-55 mm. Shpindelning simmetriya o‘qi bilan kasseta vali 1 ning O‘qi orasidagi burchak $86-87^\circ$ bo‘lib, konus yasovchisi (yuqori chiziq) gorizontal joylashadi. Bunday joylashgan shpindel ajratgichga va namlagichning yostiqchasiga butun ish sirti bilan uriladi. Shpindelning yuqori sirti bilan njmtgichning diskiga orasida $0,1-1,0$ mm tirqish bo‘ishi lozim. Tirqish bundnn katta bo‘lsa, paxta shpindeldan yechilmay qolishi mumkin. Shpindelning sirti namlagichning yumshoq yostiqchasiga $0,5-0,8$

шундай ботирилади. Шпинделларни узлуksiz yuvib turish uchun namlagichning yostiqchalariga moy томчilarini erita oladigan konsentrasiyali maxsus suyuqlik berib turiladi.




1.11.3-rasm. Shpindellarning kassetada joylashish sxemasi:
■kasseta vali; 2-shpmde!ning simmetriya o'qi; 5-konussimon shpindel sirtining
ustki yasovchisi; 4-kasset.a; 5-baraban vali

Suyuqlik 1,35-,7 kPa bosimda beriladi. Bosim bundan past bo‘lsa yostiqchalaming namligi kam bo‘lib shpindelning sirti chala tozalanadi va keyinchalik unga paxta yopishib qoladi.

12 ta kassetali baraban diametri $D = 209\text{--}227$ mm. Kasseta 1 (1.11,4-rasm) ustki 2 va quyi 13 podshipniklar atrofida aylanadi. Shpindellar 12 harakatni barabanning vali 6 dan $Z_1, Z_2, Z_3, Z_4, Z_5, Z_6$ silindrik shesternyalar va Z_7, Z_8 konussimon shesternyalar tishli ilashmasi orqali oladi. Konussimon shesternyalar kasseta trubasi 7 ning ichida joylashgan. Z_7 shestemya kassetening vali 14 ga mahkamlangan, Z_8 shesternya esa, shpindel 12 bilan yaxlit yasalgan. Baraban vali 6 va kasseta vali 7, shesternyadan bir xil yo'nalishda, lekin turli tezlikda aylantiriladi. Baraban aylanganda shpindellarni ma'lum yo'nalishda aylantirish uchun har bir truba 7 ning yuqori uchiga rolik 4 li krivoship 3 mahkamlangan. Rolik tuxumsimon shakldagi yo'naltimvchi yo'lakchaning devorlari bo'ylab yumalaydi.

Jumiadan, kasseta shpindel bilan birgalikda yoiakcha ta'sirida o'z o'qi atrofida o'ng tomonga burilsa, Z_s shesternya o'zgarmas tezlikda aylanayotgan Z_i shesternya ustida shpindel aylanayotgan tomonga yumalab o'tadi va shpindel qo'shimcha tezlik oladi.



1.11.4-rnsm. Gorizontal shpindelli PTAningkinematik sxemasi:

/ - kasseta; 12, 1.? - podshipniklar; 3 - krivoship; 4 - rolik; 5 - yo'naltimvchi yo'lakcha; ^ - baraban vali; 7 - ka.ssctn trubasi; 8 - namlagichning yostiqehasi; 9 - shesternyali shpindel tayanchi; 10 - diskli ajratgich; / - val; 2 - shpindel; /4 - kasseta vali.

Qo'shimcha tezlik qiymati krivoship 3 ning barabanga nisbatan aylangandagi burchak tezligiga bog'liq. Kasseta shpindel bilan birgalikda chap tomonga burilsa, Z_s shesternya Z_i shesternya ustida shpindel aylanayotgan tomonga teskari yo'nalishda yumalab o'adi, natijada shpindelning aylanish tezligi kamayadi.

Yo'naltiruvchi yoiakcha shakli shunday tanlanganki, shpindel ish kainerasida mashinaning harakat yo'nalishiga qarshi, lekin u bilan bir xil tezlikda siljiydi, ya'ni shpindelning uchi mashinaning harakat

yo'naiishiga tik hoiatda, yerga nisbatan to'g'ri chiziq bo'y lab harakatlanadi, shpindellar bir-biriga nisbatan parallel boMadi.

Kass^{ta} 3 ning (1.11.2-rasm) shpindellari yoiakcha 6 ta'sirida ish kamerasi 2 ga A nuqtada deyarli tik kiradi va mashina tezligi v,,, hamda baraban bilan birga aylanayotgan kassetaning chiziqli tezligi v* o'zaro teng bo'lganidan, shpindellar g'o:za tuplarining orasida bir joyda aylanib (shoxlarni og'dirmasdan) paxtani o'ziga o'raydi. Shpindellar paxta bilan birgalikda B nuqtada ish kamerasidan yana tik hoiatda chiqib ketadi. Kasseta yo'lchaning BC qismida harakat yo'nalishi bo'y lab o'ng tomonga keskin buriladi, shpindelning Zs shestemyasi Z7 shesternya tishlari bo'y lab teskari tomonga yumalaydi va CD qismida shpindelning tezligi kamayib, ajratgich bilan uzoq vaqt urinadi va paxta to'liq yechib olinadi. Agar shpindelda tolalar qolsa, ular shpindelga mustahkam o'ralib qoidi, chanoqlardan paxtani ajratib olish yomonlashadi va mashinani to'xtatib, shpindellarni tozalash zarur boMadi. Paxtani shpindeldan to'liq yechib olish ko'p omiilarga, shu jumladan apparatni to'g'ri rostlashga bogiiq.

Gorizontal shpindelli PTMning asosiy rostlashlari:

- bir barabandagi kassetalarning bir xil nomli qatoridagi shpindellarning yuqori yasovchilari bir tekislikda joylashtirish, yasovchilar balandliklari bo'yicha o'zaro farqi $\pm 0,2$ mm gacha;
- shpindel bilan namlagich orasida tirqish bo'lmasligi lozim;
- shpindelning bo'ylama lufti (liqillashi) almashma qisdrmaiar yordamida ko'pi bilan 0,2-0,8 mm atrofida rostlanadi.

Shpindelning ish kamerasida bo'lishi vaqtida paxtani o'ziga to'iiq o'rabi olishi uchun necha marta aylanishi zarurligiga va shpindel sirtining ruxsat etilgan aylana tezligiga bogiiq. Tajribalarning ko'r-satishicha, ochilgan paxta tolaiarini uzib yubormasdan chanoqlardan ajratib olish tezligi 1,5-1,7 m/s ni tashkil etadi, Hozirgi mashinalarda shpindelning o'rta qismidagi aylana tezligi 1,1- 1,4 m/s.

Shpindel paxtani ilib olgach, o'ziga o'ray boshlaydi va bu jarayon shpindelning uchi siquvchi devor tomonga to'g'ri harakatlanishida davom etadi. Agar shpindel chanoqdagi paxta boiaklarining hammasini o'ziga bir vaqtida o'ray boshlasa, paxtani ajratib olish uchun zarur bo'lgan aylanish soni kam boiadi. Shpindel paxtani o'ziga 3-5 marta o'raydi. Ajratib olish jarayonida chanoqdagi chigitli paxta boiakiari

230-250 mm gacha cho'ziladi. Diskli ajratgich shpindeldagi paxtani to'liq yechib ulgunnaydi va asosan halqacha shaklida sidirib, ajratib oladi. Shpindel ish kamerasida 10-11 martta aylanadi.

Islrni bajarish tartibi

1. "John Deere-7260" gorizontal shpindelH PTMning vazifasi, ish jarayoni, konstruksiyasi o'r ganiladi.

2. Stendda o'rnatilgan gorizontal shpindelli PTAning vazifasi, ish jarayoni, konstruksiyasi bilan tanishib chiqiladi.

3. "John Deere-7260" gorizontal shpindelli PTAning prinsipial sxemasi chiziladi.

4. Terisb apparatining qopqoq va yon devorlarini ochib, shpindellarga harakat uzatuvchi uzatmaning (1.11.4-rasm) dagi sxemaga mosligi tekshiriladi. Barabanning vali qo'lda aylantiriladi, bunda shpindelning va vo'naltiruvchi yo'lchadagi rolikning harakati kuzatiladi. Shpindel harakatining (1.11.2-rasm)dagi sxemaga mosligi kuzatiladi. Bunda shpindelning ish kamerasidagi harakatiga, diskli ajratgichga va namlagichga yaqinlashayotgan paytdagi harakatiga e'tibor beriladi.

5. Zarur konstruktiv parametrlar oichanib 1.ll.1-jadvalga yoziladi.

Gorizontal shpindelli PTAning asosiy parametriari

1.11.J-jadval

Parametrlar	0'lchami	Parametrlar	Q'Ichami
Baraban diametri, mm		Shpindellar orasi, mm	
Barabandagi kassetalar soni, dona		AB qismdag'i kassetalar soni, dona	
Kassetadagi shpindellar soni, dona		Shpindel uzunligi, mm	
Ish kamerasining kengligi, mm		Ajratgich diskining diametri, mm	

Shpindelning <i>AB</i> qismida aylanishi ari soni;		Aylanish tezligi, min [†] - baraban - shpindel - ajratgich	158 4125 3716
<i>AB</i> qismida shpindeilar soni, dona			

Bajarilgan ish bo‘yicha hisobot mazmuni

1. Gorizontal shpindelli PTMning konstruksiyasi, asosiy ishchi organlarining vazifasi va ish jarayonining qisqa bayoni.
2. Gorizontal shpindelli PTMning rostlashlari bayoni.
3. “John Deere-7260” gorizontal shpindelli PTAning prinsipial sxemasi
4. Gorizontal shpindelli PTAning kinematik sxemasi.
5. Tajriba yoTi bilan olingan PTAning asosiy parametrлари jadvali.
6. Xulosa.

Nazorat savollari

1. Gorizontal shpindelli PTM ga qanday agrotexnik talablar qo‘yiladi va bu talablarni bajarish uchun mashina qanday tuzilgan?
2. Gorizontal shpindelli PTA qanday qismlardan tuzilgan va ularning vazifalari nimadan iborat?
3. Shpindellarning yuritmalarini tushuntiring.
4. Gorizontal shpindelli PTA ajratgichlari qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?

II QISM, AM ALIY MASHG ‘TJLOTL AR

2.1. ПП-5-35 tirkalma plugining konstruksiyasini o‘rganish va og‘irlilik markazining izi (OMI) koordinatalarini aniqlash.

Mining mazmuni: Г1П-5-35 tirkalma plugining konstruksiyasi, texnologik ish jarayonini, uni rostlashni o‘rganish va og‘irlilik markazining izi (OMI) koordinatalarini aniqlash.

Kerakli uskunalar va jihozlar: tirkalma ПП-5-35 plugining ishchi organlari, plakatlar, chizmalar, o‘quv adabiyotlari, o‘lchash asboblari to‘plami.

ish hajmi: amaliy mashg‘uloti 3 soat auditoriya vaqtiga I soar mustaqil ishlashga mo‘ljallangan.

Umumiy maTumotlar

Plug yerga asosiy ishlov berish uchun mo‘ljallangan qishloq xo‘jalik quroli. Pluglar lemekli va diskli bo‘lad i. Lemekli pluglar o‘z navbatida uch xilga ajraladi:


- dalalarni 18 sm gacha chuqurlikda haydash uchun mo‘ljallangan yuza yumshatgich-pluglar;

- dalalarni 25-30 sm chuqurlikda shudgorlaydigan umumiy ishlarga moiiallangan pluglar;

- yangi yerlarda bog‘lar barpo etish uchun yerni 40-60 sm chuqur haydaydigan maxsus pluglar. Bular jumlasiga plantaj pluglar, butazor-to‘qayzorlarni haydashga mo‘ljallangan pluglar, bog‘dor-chilik va tokzor pluglari kiradi.

Tirkalma plugining asosiy qismlari (2.1.1-rasm): lernex - ag‘dargicbli 5 ta korpus, 5 ta chimqirqar, yassi diskli pichoq, dala g‘ildiragi, orqa g‘ildirak, egat g‘ildiragi va bu g‘ildirakiarning mexanizmlari va tirkamadan iborat. Plugining ramasi poTatpolosalari-gryadillardan tekis tayyorlangan. Barcha ishchi organlar va mexanizmlar plugining ramasiga o‘rnatiladi. Tirkalma plugining ko‘tarish-rostlash mexanizmlari g‘ildiraklarni yer haydash

chuqurligiga mos o'lchamga ko'tarish, ramani gorizontal holatga keitirish va aksincha ish holatga avtomatik o'tkazish uchun mo'ljanlangan.



2.1.1-rasm. Tirkalma plug umumiyo ko'rinishi:

1 - rama; 2 - bo'yama tortqi; 3 - ilgak; 4 - kashak; J - egat g'ildiragi; 7 - egat g'ildiragi; 8 - chimqirqar; 9 - lemex; 10- ag'dargicb; 11 - cho'zish plankasi; 12 - borona uchun tirkalma; 13 - orqa g'ildirak; 14 - pianka; 15 - egat g'ildiragi mexanizmi; 16- dala g'ildiragi mexanizmi; 17- dala g'ildiragi mexanizmi;

Bu mexanizmlar vazifisiga ko'ra: da'lal gildiragining mexanizmi, egat g'ildiragining mexanizmi va orqa g'ildirak mexanizmi deb ataladi.²⁰


ГІІІ-5-35 piugining asosiy texnikaviy tavsiflari

- ◆ konstruktiv qamrash kengligi - 1,40-1,75 m
- ◆ ishchi tezligi - 8-12 km/soat
- ◆ shudgorlash chuquriigi - 30 sm gacha
- ◆ korpusning qamrash kengligi - 35 sm
- ◆ chimqirqarning qamrash kengligi - 23 sm
- ◆ korpuslar soni — 5 dona
- ◆ gabarit o'lchamlari - 4420x2210x1520 mm
- ◆ massasi — 830 kg

²⁰ Soil and tiliage research bulletin. Chaina. 2000 - 2015.

§ 3;4 klass traktorlari bilan agregatlanadi

Tirkaima plugning namunaviy kinematik sxemasi (2.1.2-rasm)da ko'rsatilgan bo'lib, ishchi qismlari o'matilgan r^masi uchta g'ildirakka tayanib turadi.



2.1.2-rasm. Tirkaima plugning kinematik sxemasi:

a - ishchi holatida; b - transport holatida; d - orqa g'ildirak holati; e - orqa g'ildirak holatini rostlash

Plug ramasining chap tomoniga dala g'ildiragi (DG') o'ng tomoniga egat g'ildiragi (EG') va orqa g'ildirak (OG') o'rnatiladi. Korpuslar bir xil chuqurlikda ishlayotgan plugning DG' , haydalagan dala 3-uzasi bo'ylab, EG' plugning oldingi yurishida hosil bo'lgan egat tubi bo'ylab harakatlanadi. DG' sathi bilan EG' va OG' sathlarining farqi haydash chuqurligi a ga teng. G'ildiraklar diametri ishlash sharoitiga moslab tanlanadi. EG' egat tubida yurishi sababli, uning gupchagi yer yuzasiga tegmasligi uchun radiusi REG' maksimal shudgorlash chuqurligi a_{max} va gupchak radiusi r_g yig'indisidan 4-5 sm katta qilinadi, ya'ni $REG' = c_{max} + r_g + (4-5)$ sm bo'lishi lozim. Amalda $REG' = 350 - 400$ mm bo'ladi. Oddiy pluglarda DG' bilan EG' ning diametrлари o'zaro teng qabul qilinib.

OG ‘diametri esa 500 mm atrofida bo’Madi. Korpuslar ag‘darayotgan tuproqning qarshiiik kuchi ta’sirida piug haydalmagan chap tomonga burilmasligiga daiataxtalari hamda *OG* ‘yo‘l qo‘ymaydi. Shu sababli *OG* ‘to‘g‘ini shudgor devorining pastlga tiralib yuradi va gorizontga nisbatan 70°-80° da qiyalab o‘matiladi. Tirkalma plug 6 ta berk to‘rt bo‘g‘inli mexanizm bilan jihozlangan (2.1.2, o-rasm).

1-2-3-4-1 - ko‘tarish mexanizmi ishlayotgan plugni transport hoiatiga ko‘tarib, ish holatiga tushirish uchun xizmat qiladi. Bosim ostida yuboriigan moy ta’sirida gidrosilindr shtokining ichkariga tortilishi natijasida 3-4 bo‘g‘m qisqarib, *1-2* tirkakni oidinga buradi. *1-2* tirkak *Tga* tekkidan so‘ng gidrosilindr ramaga nisbatan *DG* ‘ni pastga tushirib, ramani korpuslari bilan birgalikda dala yuzasiga nisbatan yuqoriga ko‘taradi.

1-5-6-7-1 - *DG* ‘ mexanizmi shudgorlash chiqurligini o‘zgartirish va plugni transport holatiga vint *A* yordamida qoi kuchi bilan ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

8-9-10-11-8 - *EG* ‘ mexanizmi ramaning o‘ng tomonining yerga nisbatan balandligini o‘zgartirish hisobiga uni vertikal ko‘ndalang tekislikda gorizontal holatga keltirish, ya’ni korpuslarni bir xil chiqurlikda ishlatish uchun xizmat qiladi.


15-16-17-18-15 - *OG* ‘ mexanizmi ramaning orqa qismini (korpuslarni) transport holatga ko‘tarib - tushirish uchun xizmat qiladi.

1-9-10-11-1 - *DG* ‘ ni *EG* ‘ bilan bogiash mexanizmi plugda yetaklovchi hisoblangan *DG* ‘ holatini o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Bu mexanizmning qoniqarli ishi sharnir 8 ni ishga tushuradigan vint (*B*) ga kulisa yordamida rostlanadi.

1-13-14-15-1 - *DG* ‘ ni *OG* ‘ bilan bog*lash mexanizmi *DG* ‘ holati o‘zgartirilganda, unga moslab *OG* ‘ holatini o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Bu mexanizmda *13-14* korpuslarini ko‘ tar a boshlaydi va plugni ko‘tarish yengillashadi. bog*inining uzunligi shunday tanlanishi kerakki, *DG* ‘ plug ramasini *a/2* balandlikka ko‘targanidan so‘ng, u to‘liq taranglashib, *OG* ‘ mexanizmini ishga tushuradi. Bu holda *DG* ‘ ning mexanizmi, avvaliga, plugning old tomoni *a/2* balandlikka ko‘tarib ulgurganidan so‘nggina *OG* ‘ mexanizmi orqa korpuslarni ko‘chara boshlaydi va plugni ko‘tarish yengillashadi. *DG* ‘

va OG'mexanizmlari tirkalma plugning korpuslarini bir xil yoki har xii chuqurlikda o'rnatib ishlatalish imkonini beradi.

Plug traktor bilan agregatlanganda vertical va gorizontal tekisliklarda barqaror harakatlanib ishlashi lozim. Buning uchun plugning tirkamasi shunday o'rnatilgan bo'Mishi kerakki, bunda tortish kuchining yo'naliш chizigi (tortish chizigi) ramaning gryadellariga parallel bo'lih, plugning og'irlik markazi izi (OMI)dan o4adigan bo'lsin (2.1.3-rasm).



2.1.3-rasm. Plug og'irlik markazining izini aniqlash sxemasi

Plug og'irlik markazining izi S nuqta plugning egat g'ildiragiga nisbatan olingan momentlar tenglamalari bo'yicha aniqlanadi:

$$x = \frac{[R_0(A + B) + R_d A]}{G},$$

$$Y = \frac{i72_0(C-D) + R_d Cl}{G},$$

bunda G - piugning og'irlik kuchi,N.

$$G \approx R_D + R_E + R_0,$$

bunda R_d , R_E , R_0 - plugning dala, egat va orqa gidiraklariga tuproqning reaksiya kuchlari. Plugning og'irligi tayanch g'idirak-larga quyidagicha taqsimlanadi: $R_D = 0,3 G$; $R_E = R_0 = 0,35 G$.

Shudgorlash chuqurligining rostlash masofasini aniqlash uchun plug tirkagichi uzunligi L (2.1.4-rasm) quyidagi formula yordamida topishdi:


$$L = \frac{H + ah}{\sin a}, ?$$

bunda H - traktor tirkash ayrisining balandligi, ram;
 h - korpuslaming tayanch tekisligidan plug tirkagichi K nuqtasining balandligi, mm;
 a - tortish kuchining yo'nalishi bilan gorizont orasidagi burchak, grad; $a \ll 10^\circ$

$$\tan a = \frac{h}{X}$$

bunda l_x - OZI1 ning S nuqtasidan plug tirkagichi K nuqtasigacha I masofaning proyeksiyasi, mm.

$$l_x = (j + j^L) h - H$$



2.1.4-rasm. Plug tirkagichi yordamida shudgorlash chuqurligini rostlash masofasini aniqlash sxemasi

Demak, shudgorlash chuqurligi a o'zgarilishi tayanch tekisligidan plug tirkagichi K nuqtasining balandligi bilan bog'lanadi, h kattalashsa, a o'sib boradi. Shuning uchun traktor pluglari ramalarining oldingi qismi egilgan bo'lib bir nechta teshiklarga ega. Bu teshiklar yordamida tirkagich holatini vertikal bo'y lab o'zgartirish mumkin.

$$a_{max} \sim h_{max} O - y \sim \frac{L}{y} \sim H;$$

$$h_{min} = h_{min} \left(1 + \frac{L}{y}\right) \sim li-$$

Maksimal shudgorlash chuqurligi korpus qamrash kengligining 75%dan oshmasligi, ya’ni $b \geq 21c$, bo‘lishi kerak, aks holda paixsa sifatii ag’darilmaydi.

Ishni ba jarish tartibi

1.Tirkalma ПП-5-35 piugining vazifasi va ish jarayoni, ishchi organiarining konstruksiyasi o‘rganiladi.

2.Tirkalma plugning kinematik sxemasi chiziladi.

3.Plugning asosiy konstruktiv parametrlari olchanib 2.1.1-jadvalga yoziladi.

OTchangan plug parametrlari

2.1.1-jadval

Rama-j ning ba-1 land-I ligi [A], mm	Pichoq dia-metri d, mm	Kor-pus va chim-qirqar orasi /ch , mm	Kor-pusSar orasi Lk, mm	Kor-pusning qara-rash kengligi b, mm	A, mm	B, mm	c, mm	D, mm	Kor-puslar soni, n
1.....									

4. 2.1.1-jadvalga asoslanib plugning OMI koordinatalari aniqlanadi va tanlangan masshtabda plug sxemasi chiziladi va OMI belgilanadi (2.1.3-rasm).

5. 2.1.2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida plugning parametrlari hisoblanib 2.1.3-jadvalga yoziladi va tanlangan masshtabda shudgorlash ehuqurligining rostlash masofasini plug tirkagichi yordamida aniqlash sxemasi chiziladi (2.1.4-rasm).

Mustaqil ish variantlari

2.1.2-jadval

Vari-ant.raq.	slwd™ gorlash chuqurligi я,mm	P.hig massasi m, kg	Traktor tirkasfe ayrisi-ning baland-ligsi H, mm	Tirka-gicfaning K nuqtasi balandligi h, mm	Egat g'ildiragiing diametri BE, mm	Orqa g'ildiraning diametri Do, mm
1	200	1260	300	325	700	480
2	220	1320	350	380	720	490
3	240	1400	400	430	740	500
4	260	1510	450	475	760	510
5	280	1600	500	560	780	485
6	300	1650	550	580	800	505

Hisoblangan ping parametrlari

2.1.3-jadval

G. H	R _D , H	R _E > H	R _p : 1 ^ H 1 mm	Y, mm	L, mm	Д a, mm	b, mm	l _x , mm

Bajarilgan ish bo'yicha hisobot mazmuni

- 1.Tirkalma plugging kinematik sxemasi, asosiy ishchi organiarining vazifasi va ish jarayonning qisqa bayoni.
2. Plugning rostlashlari bayoni.
3. Plug OMIni aniqlash sxemasi.
4. Egat g'ildiragi va dala g'ildiragi mexanizmlari sxemalari (alohibo) va ularning ishlashi bayoni.
5. Tajriba yo'li bilan olingan va hisoblab chiqilgan parametrlar jadvallari.
6. Shudgorlash chuqurligining rostlash masofasini plug tirkagichi yordamida aniqlash sxemasi.
7. Xulosa.

Masala.²¹ Uch korpusli 1510 kg massali plugning dala, egat va orqa g‘idiraklariga tuproqning reaksiya kuchlari aniqlansin.

Berilgan: $m = 1510 \text{ kg}$.

Masalaning yechilishi: $G = R_D + R_E + R_0$,

Bunda $G = m \cdot g = 1510 \cdot 9,8 = 14798 \text{ N}$.

Plugning og‘irligi tayanch g‘idiraklarga quyidagicha taqsim-lanadi:

$R_d = 0,3 \cdot G = 0,3 \cdot 14798 = 4439,4 \text{ N}$; $R_E = R_0 = 0,35 \cdot G = 0,35 \cdot 14798 = 5179,3 \text{ N}$.

Javob: Plugning dala, egat va orqa g‘idiraklariga tuproqning reaksiya kuchlari:

$$R_D = 4439,4 \text{ N}; R_E = 5179,3 \text{ N}; R_0 = 5179,3 \text{ N}$$

Nazorat savollari

1. Plugn qanday tasniflanadi va qanday vazifani bajaradi?
 2. Tirkaima pluglarda qanday mexanizmlar bor, ular qayerda o‘raatilgan, vazifalarini tush untiring.
 3. Tirkaima plug qanday rostlanadi?
 4. Plugning asosiy ishchi organlarini ta’riflab bering.
- 2,2. ПН-4-45 o‘rnatma plugining konstruksiyasini o‘rganish va ishchi organlarining ramada o‘zaro joylashtirish sxemasini qurish

Ishning mazmeni: ПН-4-45 o‘rnatma plugining konstruksiyasi, texnologik ish jarayonini, uni rostlashni o‘rganish va ishchi organlarining ramada o‘zaro joylashtirish sxemasini qurish

Kerakli uskunalar va jihozlar: o‘rnatma DH-4-45 pligi, plugning ishchi organlari, plakatlar, chizmalar, o‘quv adabiyotlari, o‘lchash asboblari to‘plami.

Ish hajini: amaliy mashg‘uloti 4 soat auditoriya vaqtini va 2soat mustaqil ishlashga moijaliangan.

²¹ Engineering principles of agricultural machines 2nd Edition. Ajit K.Srivastava. Michigan State University and others. Copyright ©2012 by the American Society of Agricultural and Biological Engineers.

Lemexli pluglar a" "dargichii va ag" dargichsiz boiadi. Lem ex va ag" dargich umumiy stoykaga biriktirilib, plugning !emex-ag" dargichli korpusi deb ataladi, Haydov agregati harakatlanganda lemex-ag" dargichii korpusning lemexi tuproq palaxsalarini ostidan qirqadi, ag" dargich esa lemexdan uzatilayotgan palaxsani aylantirib ag" daradi va ayni vaqtida uvaiaydi. Pluglarning ag" dargichsiz korpusiari tuproq palaxsasini ostidan lemex bilan qirqadi, ag" darmasdan faqat uvaiaydi, maydalaydi, palaxsalar o'z holatini saqlaydi.

"Oddiy (umumiy ishlarga mo'!jallangan) lemex-ag" dargichli pluglar tuproq palaxsalarini qirqib, o'ng tomonga ag" daradi. Tuproq palaxsalarini faqat o'ng tomonga ag" daruvchi pluglarning kamchiligi shundaki, haydov agregati yomna-yon o'tganda harakat usuliga qarab har gal yoki ochiq egat, yoki tuproq uyumlangan marzalar hosil bo'ladi. Bunday shudgomni ekishga tayyorlashda buldozerlar va boshqa qurollar bilan ishlov berishga to'g'ri keladi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun tekis haydash pluglaridan foydalaniladi. Bular aylanma korpusli, klavishsimon korpusli, mokisimon harakatlanuvchi va koipuslari frontal joylashgan pluglarga ajraladi. Hozir asosan aylanma korpusli pluglar ishlatiladi (Lemken, Kvemeland Kleep AS fmnlari mahsuloti)".²² 0"rnatma toil korpusli plug (2.2,1-rasm) bo'ylama gryadillar 2 va Z-simon kashaklardan tuzilgan hamda bikrlik balkasi 1 bilan mustahkamlangan ramadan iborat boiib, har bir gryadilga lemex-ag" dargichli korpus 3 va chimqirqar 4 o'rnatilgan. Ramadagi oxirgi korpus-chimqirqar juffi oldida erkin aylanadigan yassi diskli pichoq 9 o'rnataladi.

Г1Н-4-45 plugging asosiy texnikaviy tavsiyatlari


- ◆ konstruktiv qamrash kengligi - 1,40-1,75 m
- ◆ ishchi tezligi - 8-12 km/soat
- ◆ shudgorlash chuqurligi - 40 sm gacha
- ◆ korpusning qamrash kengligi - 45 sm
- ◆ korpus lar soni — 4

²² Kvemeland Kleep AS. Operation text-book by tillage © N-4344 Kvemeland Norway. 2010

Φ gabarit oichamlari - 6210x3270x1550 mm

Φ massasi -- 1350 kg

Φ 4-5 kiass traktorlar bilan agregatlanadi



2.2.1-rasm. To'rt korpusli o'matma plugning umumiy tuzilishi:


/ - chimqirqar; 2 - plug koipusi; 3 - konsol; 4 - rama; 5 - diskli pichoq; 6 - vintli mexanizm; 7 - tayanch g'ilidiragi; 8 - o'rnatgichning osish ayrisi;

Plug korpusi (2.2.2-rasm) asosiy ishchi organi boiadi. Korpusning asosiy qismlari lemex, ag'dargich, dala taxtasi va stoykadan iborat.

Lemex tuproq palaxsasini gorizontal tekislikda ostidan qirqib, uni qisman parchalaydi va ag'dargichga uzatadi. Lemexlar ikki xil: trapetsiyasimon va iskanasimon bo'ladi.

Plug sxemasining tuzilish va ish organlarini joylashtirishda quyidagilarga amal qilinadi. Rama balandligi birinchi egat olishda tuproq palaxsasining erkin ko'tarilishi, aylanishi va rama ostidan o'tishi shartidan aniqlanadi. Birinchi egat chuqurligi $2a/3$ boiganidan $H = b + 2a/3$, yoki:

$$H = \sqrt{Vb^2 + ci_{max}^2}$$



2.2.2-rasm. Plug ishchi organlarining ramada o'zaro joylashtirish sxemasi

bunda $/? = 1,20 - 1,25$.

Chimqirqaming ishslash chuqurligi $a = 100 - 120$ mm, qamrash kengligi $b_t = 2b/3$, Uning tumshug'idan korpus tumshug'igacha oraiiq $t = 300 - 350$ mm. Bu masofa qirqilgan palaxsaning korpus va chimqirqar sirtlaridan alohida-alohida tushishini ta'minlash lozim. t katta bo'lsa, plug qo'pol va og'ir bo'ladi. Chimqirqaming dala qirrasi korpus qirrasidan $l_e = 5 - 10$ mm, disksimon pichoq chimqirqardan $l_2 = 10 - 15$ mm yonga chetlatiladi.

Disk markazi chimqirqar tumshug'i ustida joylashadi yoki old tomonga $t_x = 40$ mm gacha siljtiladi. Diskning pastki qirrasi chimqirqar tumshug'idan (% - a_2) = 20 - 30 mm past, diskflanetsining pastki cheti esa dala betidan $h_i = 10 - 20$ mm yuqori turadi. Pichoq tuproqqa $a_2 = 120 - 130$ mm botadigan qilib o'rnatiladi.


Haydalma qatlam ostini yumshatish uchun korpuslar ketida tuproq chuqurlatgich o'rnatiladi. Asosiy korpus va tuproq chuqurlatgich tumshuqlari orasi tuproqning erkin o'tish shartidan aniqlanadi va u $t_p = 500$ mm bo'lsadi. Tuproq chuqurlatgich ko'ndalang yo'nalishda korpusning dala qirrasidan $n = 0,5b + S$ masofada o'rnatiladi. Bunda $S = 20 \pm 5$ mm. Uning qamrash kengligi $b_p = 0,7b$;

yumshatish chuqurligi $a_p = 60 - 160$ mm. Panja tumshug'i qanotlaridam — 10 — 20 mm past joylashtiriladi.

Plug korpusining ag'dargiclov qirqilgan tuproq palaxsasini qo'shimcha ravishda uvalash, kamida 128° ga aylantirib ag'darishga mo'ljallangan. Lemex va ag'dargich birgalikda lemex-ag'dargichii sirtni tashkii etadi. Lemex-ag'dargichli sirtlar to'rt xil: silindrik, madaniy, yarimvintsimon va vintsimon bo'ladi (2.2.3-rasm). Dala taxtasi egat. devoriga va tubiga nisbatan $2-3^\circ$ qiya o'rnatiladi. Ish jarayonida plug dala taxtasining tovoni vositasida egat tubiga tayanadi. Shunda dala taxtasining yon sirti egat devoriga ishqalanib, plunning to'g'ri chiziqli barqaror harakatlanishini ta'minlaydi.

Korpus stoykasi po'latdan quyiladi yoki shtamplab tayyorlanadi. Unga lemex, ag'dargich va dala taxtasi biriktiriladi. Chimqirqar ham lemex-ag'dargichli sirtdan iborat, Uning lemexi silindrik, ag'dargichi esa silindroidal sirtga ega. Chimqirqar tuproq palaxsasining 8-12 sm li chimli qatlamini qirqib, egat tubiga tashlaydi. Uning qamrash kengligi asosiy korpus qamrash kengligining 2/3 qismini tashkii etadi. Chimqirqar ketidan kelayotgan asosiy korpus tuproq qatlamining qolgan qismini qirqib, aylantirib, ilgari tashlangan chimli qatlamni ko'mib ketadi.

Plug pichog'i oxirgi qatlamni vertikai tekislikda qirqib, egat devorining tekis va egat tubining toza boiishini ta'minlaydi. Plug g'ildiragi tayanch vazifasini bajaradi va shudgorlash chuqurligini rostlash uchun xizmat qiladi. O'rnatrma pluglar bir yoki ikkita tayanch g'ildirak bilan jihozlanadi. Shudgorlash chuqurligi vintli mexanizm 8 ni (2.2.1-rasm) burab, rostlanadi. Ish vaqtida plunning tayanch g'ildiragi dalaning relyefiga, ya'ni past-balandliklariga erkin moslanib harakatlanishi lozim. Shuning uchun plug ish holatida traktoming gidrotizimi bilan gidravlik aloqada bo'lmaydi; gidrotaqsimlagichning zolotnigi «erkin» holatga o'matilgan boiadi. Shuning uchun traktorning gidroko'targichi faqat plugni salt holatga ko'tarishda ishlataladi. Plug ish holatiga o'z og'irligi ta'sirida tushadi. Shudgorlash chuqurligi 18-20 sm bo'lganda 2-3 korpusli o'rnatma pluglar traktorga osilganda o'rnatish mexanizmining tortqilari traktor asosiga uch nuqtada birlashtiriladi.



2.2.3-rasm. Plug korpuslarining turlari:

ftyl-madaniy; ty-chuqurlatgich bilan; c.)-ag'dargichsiz; <#-o'yqli; e)- yo'tiq keskichli; //-kombinatsiyalangan; gj -- yarimvintsimon; h), ^-yumshatuvchi; ^-polosali; ^-diskli; /-lemex; 2—ag'dargich; 3-stoyka; 4-dala taxtasi; 5-chuqurlatgich; 6-to'siq; 7-kengaytirgich; S-qanot; P-iskana; 10-rotor; //—burchak qirg'ich; /2-suyri; /3-o'qyoysimon panja; 14-naralnik; /5-lemex; /6-diskli ag'dargich; /7-tozalagich

Plug traktor bilan agregatlanganda uning nominal tortish kuchi P^n_u ko'pi bilan 85-95 % foydalaniladigan bo'lishi lozirn. Tortish kuchi trak+orning texnikaviy tafsilotidan aniqlanadi. Traktoring I uzatmada eng katta (nominal) tortish quwatiga mos kelgan tortish kuchi nominal tortish kuchi deb ataladi. Plugning tortish qarshiligi P ni akad. V.P.Goryachkinning ratsional formulasi bo'yicha aniqlash mumkin, N:

$$P = fmg + kabn + cabnpv, /$$

bunda P-plugning tortish qarshilik kuchi, N;/-plugni salt tortishga qarshilik koeffitsiyenti; / η -plug massasi, kg; я-korpusiar soni; a -shudgorlash chuqurligi, m; 6-korpusning qamrash kengligi, $b-k$ a, m; b-pona koeffitsiyenti, k ≈ 1,27; At-tuproqning shudgorlashdagi solishtirma qarshiligi, N/m²; c-mutanosiblik koeffitsiyenti, c «0,8; p — tuproqning zichligi, kg/m³; v_m - agregatning ishchi tezligi, m/s.

Foydali ishni bajarishga sarfianadigan kuchlamning yig'indisini umumiylar sarflanayotgan kuchga nisbati plugning foydali ish koeffitsiyentini beradi:

$$\eta = \frac{kabn + cabnpv \cdot \frac{2}{n}}{fmg + kabn + cabnpv^{\wedge}}$$

Agregat tezligi v_m ning shudgorlashga sarfianadigan quvvat N miqdoriga ta'siri, kVt:

$$N = Pv_m / 102 = \frac{(fmg + kabn + cabnpv \cdot \frac{2}{n})v_m^2}{102}$$

Demak, katta tezlikda ishslashga mo'ljallangan plugni agregatlash uchun sud rash quvvati katta boigan traktorlardan foydalanish talab qilinadi.

Ishni bajarish tartibi

1.0'rnatma ПН-4-45 plugi vazifasi, ishchi organiarining konstruksiyasi va ish jarayoni o'rganiladi.

2. 0'matrna plugning prinsipial sxemasi chiziladi.

3. Zarur parametrlar o'rnatma ПН-4-45 plugidan o' Ichaniib 2.2.1 - jadvalga yoziladi.

0‘lchangان plug parametrlari

2.2.1-jadval

Rama-ning baland- ligi H , mm	Picchioq- nimg diametri d , mm	Korpus va chim- qirqar orasi t , mm	Korpus baland-- ligi h , mm	Korpuslar orasi L , mm	Korpusning qamrash kengligi b , mm

4. Plugning konstruktiv va ekspluatatsion parametrlari 2.2.2,-jadvalda berilgan ma'lumotlar bo'yicha aniqlanadi. Hisobktnigan parametrlar 2.2.3-jadvalga yoziladi.

5. 2.2.3-jadvalga asoslanib tanlangan masshtabda plugning ish organlarini joylashtirish sxemasi chiziladi.

Mnstaqil ish variantlari

2.2.2-jadval

Var. raq.	m , kg	a , m	n	v_m , m/s	A, kg/sm ²	p, kg/m ³	/	(I_{ch} , m)	t , mm
1	1260	0,22 ^{**}	3	1,12	0,3	1300	0,5	0,10	300
2	1390	0,24	4	1,29	0,4	1400	0,8	0,11	320
3	1480	0,28	2	1,76	0,5 ⁿ	1450	1,0	0,12	325
4	1530	0,30	3	2,05 ["]	0,6	1500	0,5	0,10	340
5	1600	0,35	4	2,37	0,7	1550	0,8	0,11	345
6	1650	0,38	3	2,64	0,8	1650	1,0	0,12	350

Hisoblangan parametrlar

2.2.3-jadvai

Z>, m	P , N	rj	N , kVt	H , mm	bch , m	n_{yu}

Bajarilgan ish bo'yieha hisobot mazmuni

1. O'rnatma plugning konstruksiyasi, asosiy ishchi organlarining vazifasi va ish jarayoni qisqa bayoni.
2. Plugning rostlashl'ari bayoni.
3. Plug ishini tavsiflovchi (asosiy parametrlar ko'rsatilgan) sxemasi.
4. Tajriba yo'li bilan olingen va hisoblangan parametrlar jadvallari.
5. Plugning ish organlarini joylashtirish sxemasi.
6. Xulosa.

Masala.²³ Massasi 1650 kg to'rt korpusli plug shudgorlashda 2,64 m/s tezlik bilan harakatlanadi; plugni salt tortishga qarshilik koeffitsiyenti 0,3; mutanosiblik koeffitsiyenti ≈ 0,8;. Shudgorlash chuqurligi 0,38 m, tuproqning zichligi 1600 kg/m³ shudgorlashga sarflanadigan quvvat aniqlansin:

Berilgan: / = 0,3; m = 1650 kg; n = 4; a = 0,38 m; k | ≈ 1,27 N/m²; c ≈ 0,8; p = 600 kg/m³; v,, = 2,64 m/s; b - k_p; a - 1,6 - 0,38 = 0,60 m

Masalaning yechilishi: Shudgorlashga sarflanadigan quvvat N aniqlanadi:

$$N = \frac{Pv_m / 102 - \frac{(fm g + kabn + cabnpv^2)v_m}{102}}{0,3 \cdot 1650 \cdot 9,8 + 1,27 \cdot 0,38 \cdot 0,60 \cdot 4 + 0,8 \cdot 0,38 \cdot 0,60 \cdot 4 + 1600 \cdot 2,64^2} = 2,64 \\ N = 127 \text{ Vt}$$

Javob: Shudgorlashga sarflanadigan quvvat 127 Vt

Nazorat savollari

1. Plugning tasnifi va vazifasini aytинг.
2. O'rnatma plugning ko'tarish-rostlash mexanizmlari qanday ishlami bajaradi va qanday ishlatalidi?
3. Plugning asosiy ishchi organlarini ta'riflab bering.

²³ Engineering principles of agricultural machines 2nd Edition. Ajit K.Srivastava. Michigan State University and others. Copyright © 2012 by the American Society of Agricultural and Biological Engineers.

2.3. Tishli boronaning konstruksiyasini o‘rganish va uning asosiy parametrlarini aniqlash, ishchi orgailarmi joylashtirish sxemasini qurish

Ishning mazmuni: tishli boronaning konstruksiyasini o‘rganish va uning asosiy parametrlarini aniqlash, ishchi organlarini joylashtirish sxemasini qurish

Kerakli uskunalar va jihozlar: tishli borona, tishli boronaning ishchi organlari, piakatlar, o‘quv adabiyotlari, chilangarlik va o‘lchash asboblari to "pi ami.

Ish hajmi: amaliyot ishi 2 soat auditoriya vaqtiga va 1 soat mustaqil ishslashga mo‘ljallangan.

Umumiy ma’lumotlar

Tishli boronalar dalani ekin ekishga tayyorlash uchun eng ko‘p ishlatiladigan quroldir. Tishli borona yer yuzasi ust qismini sayoz yumshatish, kesaklami maydalash, o‘simlik qoldiqlarini xaskashlab chiqarib tashlash, qatqaloqni buzish kabi ishlami bajarishda yaxshi natija beradi. Tishli boronalar bitta tishga tushadigan og‘irlikka qarab og‘ir, o‘rtalagi yengil turlarga bo‘linadi. Borona tishi tomonga surishi, qisman zichlashi, tuproqni maydalab yumshatishi aralashtirishi mumlcin. Borona tishlari turli shaklda yasalib, ular ma’lum tartibda joylashtiriladi. Boronaning qamrash kengligi tuproqqa bir tekisda ishlov berishi uchun har bir tish alohida iz qoldirishi va izlar oralig‘i bir xil bo‘lishi lozim. Yonma-yon joylashgan tishlar orasiga o‘simlik qoldiqlari va kesaklar tiqilib qolmasligi uchun ularning oralig‘i 15 sm dan kam bo‘lmasligi kerak.

Bu talabni qoniqarli amalga oshirish uchun borona tishlarini ko‘p qirqimli vint yoyilmasi bo‘yicha joylashtirish kerak. Agar plankalar oraligi mi , vint kirimlari soni $\kappa = 1$ boisa, vint qadami t quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$t \approx M \cdot bo = b,$$

bunda M — ko‘ndalang plankalar soni; bo — borona tishlari qoldirgan izlarning oralig‘i, mm; b - bir plankada yonma-yon joylashgan tishlar oralig‘i, mm.

Izlar oralig‘i bo o‘zgarmas bo‘lsa, plankalar soni $z_p i$ ni ko‘paytirib plankadagi yonma-yon tishlar oralig‘i b ni kesak va o‘simlik

qoidiqiari tinqilib qolmaydigan kenglikkacha yetkazish mumkin.
 2.3.1-jadvaida tishli boronalarning asosiy parametrlari keitirilgan.

Tishlarni borona ramasida ma'lum bir tartibda joylashtirish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak: a) har bir tish alohida iz qoldirishi va izlar oralig'i bir xil bo'lishi lozim; b) boronaning turg'un siljishini ta'minlash uchun, tortish kuchi og'ir'ik markazi izidan o'tishi lozim.

2.3.2-jadvalda tishli boronaning ishchi organlarini joylashtirish sxemasini qurish uchun quyidagi parametrlar keitirilgan.

Tishli boronalarning tavsiflari

2.3.1-jadval

Bo- rona turi	Ekisi- lar ora- iig'i, mm	Bo- gola- lash chu- qur ligi, mm	Itish ga tush- gan yuk- lu ma, N	Itish- ning tortish qar- shiligL N	Tishlar qatorlari oraligi, mm		Tish uzun- Hgi, mm	Tish qir- qimi
					<i>h</i>	<i>hi</i>		
OgMr	50±75	75±125	16±20	40±50	300±450	150-300	150-300	kvadrat
0'rtacha	40±55	40±75	32±15	20±25	250±350	150-250	100-200	kvadrat
Yen- gil	25±35	20-40	6-10	10±15	200±300	100-200	100-150	doira

Tishli boronaning parametrlari

2.3.2-jadval

Var. Raqa- mi	Borona tmi	<i>K</i>	<i>M</i>	<i>N</i>	<i>It</i> , mm	<i>a</i> , mm	<i>q</i> , N	<i>Po</i> , N	<i>I</i> , mm
1.	Yengil	2	5	5	300	35	8	10	100
2.	Yengil	3	9	6	300	25	7	12	125
3.	0 'rtacha	3	5	5	250	40	12	22	140
4.	O 'rtacha	2	5	4	275	45	15	25	175
5.	Og'ir	3	5	5	325	50	18	45	150
6.	Og'ir	2	1	5	400	70	18	47	275

Bunda: a - qatorlar oralig'i, mm; M — ko'ndalang plankaiar soni; N — bo'ylama piankalar soni; κ — asosiy vint yo'llari soni; h - ko'n-dalang nlankalarning orasidagi masofa, mm; q - bitta tishga tushadigan yuklama, N; Po — bitta tishning tortish qarshiligi, N; I - tishning uzunligi, mm,

Ishii bajarish tartibi

1. A4 formatdagи katakchali qog'ozga $M+l$ yasovchilar chiziladi $I-I$, 2—2 va h.k. Yasovchilar bir biridan h mm da joylashgan (2.3.1-rasm.).

2. Vint qadami hisoblanadi:

$$b = M-a, \text{ mm} \quad (2.3.1)$$

3. Asosiy vint yo'li aniqlanadi:

$$t = b-k, \text{ mm} \quad (2.3.2)$$

4. Qo'shimcha vint yo'Hari soni aniqlanadi:

$$\kappa i = M'' k. \quad (2.3.3)$$

5. Qo'shimcha vint yo'li aniqlanadi:

$$tj = b-k], \text{ mm.} \quad (2.3.4)$$

6. $I-I$ yasovchida $AB = t$ va $BC = ti$ boiaklar belgilanadi, ular b ga teng kesmalar soniga boMinadi.


7. B nuqtadan BD perpendikulyar yasaladi. Perpendikulyar $l'-l'$ yasovchi bilan kesishish D nuqtani A va C nuqtalar bilan birlashtiriladi. AD va CD chiziqlar asosiy va qo'shimcha vintlarning vintli chiziqlarning razvyortkasini ko'rsatadi. D nuqtadan chap va o'ng tomonlarga bir nechta AD va CD chiziqlariga parallel bo'lган chiziqlar chiziladi. Bu chiziqlar yasovchilarni b bo'laklarga bo'ladi. Borona tishlarining rmaydoni umumiy eni b ($N+l$) dan kam boMishi mumkin ernas.

M +i-chi yasovchida qurilgan tishlar maydoni vintning to'liq razvyortkasi (yoymasi) bo'ladi. Yoymaning yuqori $l'-l'$ chizig'i pastki $I-I$ chiziqli takrorlaydi. Shuning uchun piankalar soni M , M yasovchilarda joylashishi kerak.

8. Borona zvenosi konturi shunday chiziladiki, z-simon plankalaming o'rtancha qismi 2- va 4- yasovchilarning, soni kam qadamii vint yoyi bo'ylab joylashsin. Bo'ylama plankalarning chet qismlarini sonini ko'p qadamii vint yoyi bo'ylab joylashtirish kerak.

Borona zvenosi shakiini to‘g‘ri tanlash uchun bitta bo‘yimma planka bilan ko‘ndalang plankalarning kesishish nuqtalarini I—I ya^ovchiga proeksiya qilish kerak, bu nuqtalarda borona tishkri joylashgan bo‘ladl. Agar bitta qadam bo‘ylab faqat bitta tish o’tsa va egatlar orasidagi masofa bir-biriga teng boiib qatorlar orasi a ga teng boiganda, borona zvenosi shakli agrotexnika talablarigajavob beradi.

Chetki ko‘ndalang plankalardagi tishlar begona o‘tlar bilan kamroq tiquilib qoladi. Shunda borona gabarit oichamlarimi kichraytirish maqsadida ularni o‘itacha plankalarga h_j masofagacha (2.3.2-jadval) yaqinlashtirish mumkin. Buning uchun hi masofada qo‘srimcha l_{ii} - l^n va $5^n - 5^n$ yasovchilar chiziladi va 1- va 5-yasovc-hilardagi tishlar o‘rnatish joy lari proyeksiyalanadi (2.3.1-rasm). Shunda chetki plankalarda joylashgan tishlar vintli chiziq yoyidan siljiydigan bo‘lib chiqadi.



2.3.1-rasm. Borona tishlarining maydoni sxemasi

